

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK 85.3**

**RASULOVA YULDUZ BAXTIYAROVNA**

**YOSHLARNING MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA  
CHOLG'U IJROCHILIGI VA ADABIYOTNING ROLI**

**Mutaxassislik: 5A111101 -“Musiqqa ta’limi” yo’nalishi magistrantining**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** Saidiy Said Bolta-Zoda  
San’atshunoslik fanlari nomzodi

**Navoiy –2015**

**YOSHLARNING MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA  
CHOLG'U IJROCHILIGI VA ADABIYOTNING ROLI**

**REJA:**

**Kirish:(mavzuning dolzarbligi)**

**I-Bob. Yoshlarni ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda musiqaning adabiyotga bo’g’lanishidagi nazariy asoslar**

1.1-§. Musiqqa yo’nalishlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksaltiruvchi me’zonlar.

1.2-§. O’zbekistonda ma’naviyatning uzviy qismi bo’lgan cholg’u va qo’shiqchilik san’atining rivojlanish bosqichlari va tanqidchilik

**Birinchi bob bo’yicha xulosalar**

**II-Bob. Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda musiqa va adabiyot qudratli omil sifatida**

2.1-§. Musiqaning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati

2.2-§.Yoshlarning ma'naviy salohiyati, tafakkurini rivojlantirib tarbiyalashda musiqa va adabiyotning ruhiyyotga ta'siri

**Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar**

**III-bob. Cholg'u ijrochiligi jo'rnavoqligida she'riyat sharxi va bog'lanishidagi suxanronlik talqini**

3.1. Ma'naviyatning Suxanronlik va suvanronlik talqinlarida tavsilot, tavsilot va tasnifot

3.2. Amaliy ijro va annotatsiyalar

**Uchinchi bob bo'yicha xulosalar**

**IV-bob. Musiqa va she'riyatning o'zaro bog'lanish kompozitsiyasini yuqori sinf o'quvchilariga o'rgatish usullari**

4.1-§.O'zbek xalq ommaviy aytimlarining maktab repertuariga kiritilishi

4.2-§.Cholg'u-she'riyat hamda o'qituvchi va o'quvchi munozaralarida kompozitsion kulminatsiyalarni badiiyligi

**To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar**

**Umumiy xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

**Dissertatsiya "Annotatsiya"lari**

## KIRISH

*Insonni ruhiy kamolotga yetkazish maqsadiga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. (Karimov I.<sup>1</sup>*

**Mavzuning dolzarbligi.** Barkamol avlod tarbiyasida muhim bo'lgan omillarni o'rganish, doimo ma'naviy saboq asnosidagi ehtiyoj va izlanishlarga aylanishiga sabab bo'lgan. Tadqiqotlar, u yo bu ong ravnaqidan kelib chiqadigan dolzarb masalalardan biriga aylanib borgan va olimu-izlanuvchilar tomonidan turli mavzularda o'rganib kelingan va o'rganilmoqda.

Insoniyat tarixida o'z zamonasining mashhur olimlari ham ushbu omillar haqida fikrlar bildirib kelganlar. Yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishda San'at va adabiyot ham doimo katta rol o'ynab kelgan. Ko'plab olimlar cholg'u ijrochiligi va adabiyot ma'naviy hayotning ajralmas qismi deb hisoblab keladilar. Masalan: qo'shiq kuylash nafosat tarbiyasiga kiradi, lekin qo'shiqning so'zlari orqali aqliy tarbiya beriladi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda San'at va adabiyot rivojiga katta diqqat e'tibor qaratib kelinmoqda. Jamiyat a'zolarini ma'naviyatni yuksaltirishda San'at turlari va adabiyot boshqa davlatlarga qaraganda bugungi kunda yanada muhimroq bo'lib kelmoqda.

Musiqa-cholg'u-adabiyot uchligi asrlar mobaynida rivojlanib keldi va jamiyat hayotining, inson kamolotining ajralmas qismiga ajraldi. Biz bugungi ma'naviy yuksalish jarayonini San'at turlarisiz va adabiyotsiz tasavvur eta olmaymiz.

“Adabiyot!, bu - bilimlar kaliti, ma'naviy- ma'rifiy ilm manbai, insoniyat tarixining tafakkuru-olam xazinasi, ta'lim va tarbiya ko'zgasidir.”,<sup>2</sup> “Musiqa esa- u yo bu mavjudodlarning qon semantikasi bilan bog'liq- borliq va ajdodlar ruhiyatini bir- biri bilan bog'lovchi ma'naviy omil sifatida, badiiyyat amalining ruhiyatshunoslik tilidir!, deb ta'kidlaydi S.Saidiy o'z tadqiqotlarida.

Qomusiy olimlar Al-Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin al-Urmaviy, Xoja Abdulqodir al-Marog'iy, Darvesh Ali Changiy va boshqa mutafaqqirlarning asarlarida musiqiy cholg'ularga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirilib, nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan edi. Abdurauf Fitrat o'zining “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli tadqiqotida Sharq musiqasi bag'rida muhim o'rin tutgan o'zbek musiqasi, milliy cholg'ulari, maqomlar mazmuni, musiqa va aruz kabi dolzarb muammolarni yoritib bergan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirishda cholg'u ijrochiligi va adabiyotni tutgan o'rni masalasi Prezident I.A.Karimov asarlarida keng yoritib kelinmoqda. musiqa – cholg'u-adabiyotni rivojlanib borishi, jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishda va inson ma'naviy kamolotidagi o'rni beqiyos ekanligi doimo ta'kidlanadi. Bugungi kunga qadar

<sup>1</sup> I.Karimov .«Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch». T. Ma'naviyat. 2008.140b).

<sup>2</sup> S.Saidiy, “Moziy sadolariga bir nazar”.. (qo'lyozma shaxsiy biblioteka), 2008.

ma'naviyatni yuksaltirishda cholg'u ijrochiligi va adabiyotni tutgan o'rni masalasi sharq va g'arb olimlari tomonidan ham turli baxslar orqali o'rganib kelingan va kelinmoqda.

Markaziy Osiyoda manbashunoslik va adabiyotlar, ayniqsa cholg'ushunosligi, xususan o'zbek milliy cholg'u ijrochiligining tarixiy, nazariy va amaliy masalalari O'zbekiston San'atshunos olimlari S.Pugachenkova, T.Vizgo F.Karomatli, I.Rajabov, A.Malkeeva, S.Saidiy, yevropalik musiqashunoslar G.Farmer, L.Pekkin, V.Vamberi, yaponiyalik S.Genichi, Eron Mashxadida Firdavsiy, Manuchexriy, Nishopurda esa Umar Hayyom, Hindustonda Xusrav Dehlaviy va Boburiylar sulolasi tomonidan hamda boshqa qator olimlar izlanishlarida ham keng tadqiq etilgan.

Chunonchi, T.Vizgo, A.Malkeeva asarlarida o'zbek xalq cholg'ulari, ularning tarixi, F.Karomatli tadqiqotlarida esa cholg'ularning ijro imkoniyatlari, mahalliy uslublari, sozlanish va diapozonlari har tomonlama o'rganiladi. Ayniqsa, mazkur uch olim hammualliflikda yozgan, Germaniyada nashr qilingan «Muzik hiechte in Bildern, Bibliogd.III.»<sup>3</sup> kitobi cholg'u San'atiga izchil yondashuv, batafsilligi bilan o'zbek etnocholg'ushunoslik fani taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

F.Karomatli tadqiqotlarida o'zbek an'anaviy cholg'ulari, ularning sozlanish va diapozonlari, tovush xususiyatlari, sozlar ijrosidagi musiqiy asarlar, yakkaxon va ansambl ijrochiligining o'ziga xosliklari, mahalliy uslublarida so'zlarning kunlikdan olingan holda voqeylik bilan bo'g'liq badiiyuligi keng ko'lamda tadqiq qilinadi.

Bilvosita yuqorida qayd etilgan holatlar magistrlik dissertatsiyasi mavzusini **“Yoshlarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda cholg'u ijrochiligi va adabiyotning roli”** deb tanlashga asos bo'ldi.

**Tadqiqot maqsadi:** Jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishda va har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazishda, yuksalib borayotgan mamlakatimiz poydevorini mustahkamlashda tadqiqotlarni umumlashtirish, musiqa- cholg'u- adabiyotning tutgan o'rnini yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti:** Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltiradigan musiqiy cholg'ular ijrochiligida va adabiyotdagi hayot yo mamot tasniflanishidagi u yo bu turli manzaralarni she'riy matnda aks ettirilishini musiqa bilan bog'lash, she'r-sharxlash va cholg'u ijrochiligida qo'shiqqa aylantirish ushlik bog'lamalari va ular oldida turgan vazifalar. Tarix va kitobiy tasvirlariga oid ma'lumotlar, ilmiy farazlar, O'zbekiston xalqlari cholg'u ijrochiligi va turli adabiyot merosiga bag'ishlangan tadqiqotlardir.

**Tadqiqot predmeti:** Yoshlarni ma'naviy salohiyatini yuksaltiradigan cholg'u ijrochiligi va adabiyotning tutgan o'rnini asoslab boradigan metod va vositalar mazkur tadqiqot ob'ekti sifatida belgilandi.

---

<sup>3</sup> Muzikgeschichte in Bildern. Bd.II. Mittelasiien. F.M. Karomatov, V.A.Meskeris, T.S.Visgo.Leipzig, 1987.- 157 r.

**Tadqiqotning vazifalari:** -Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishning dolzarb masala ekanligini yoritib berish;

- Yoshlar ma'naviyatini shakllantiruvchi vositalar tizimini tahlil etish;

- cholg'u ijrochiligi va adabiyot ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini yoritib berish; -San'atning barcha turlari va adabiyot yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltiradigan omillar ekanligini asoslab berish;

-O'zbekiston ta'lim tizimida yoshlar ma'naviyatini yuksaltiradigan San'at va adabiyot rivojiga berilayotgan e'tiborni yoritib berish.

-Ma'naviy salohiyatni shakllantirishda adabiyot, va musiqiy san'at oldidagi vazifalarni belgilash;

**Tadqiqot metodlari:** Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini yoritib berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Shuningdek, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, tarixiylik va mantiqiylik, umumlashtirish uslublaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridagi yuksaklikni o'rganish, mafkuraviy tarbiyani rivojlantirish, barkamol inson, yukas ma'naviyatli shaxs tarbiyasiga oid bayon etilgan fikrlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim tarbiyaga oid qarorlari, davlat ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalar, mutafakkirlarimizning moddiy va ma'naviy uyg'unligini yoritib beradigan manbalar.

Tadqiqotimiz uchun yaxlit ilmiy - umumnazariy va amaliy qoidalaridan biri - bu muayyan xossalarini o'rganish orqali umumiy xususiyatlarni aniqlash, qiyosiy tahlil, ya'ni induksiya va umumlashtirish vositasida ayrim amaliy uslublarni ham tavsiflab, ularning imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda cholg'u ijrochiligi va adabiyotdan foydalanish zaruriyat ekanligi va u jamiyat hayotini yuksaltirib boradigan asosiy omillardan biri ekanligini yoritib beriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, cholg'u ijrochiligi va adabiyot birligi, chambarchas bog'liqlik muammolarining yaxlit ilmiy tizimli asosda ilk bor o'rganilayotganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, bu yangilik mazkur masalaning mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi zamirida alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda cholg'u ijrochiligi va adabiyotdan foydalanish roli va ahamiyati o'rganiladi. Mutafakkirlarimizning moddiy va ma'naviy cholg'u ijrochiligi va adabiyotning uyg'unligiga bo'lgan ahamiyatini yoritib beriladi.

Erishilgan natija va xulosalar avvalo ma'naviy-ma'rifiy tarbiya maqsadini amalga oshirishda, nazariy va amaliy boyitish, shuningdek, zamonaviy musiqa sharqshunosligi va adabiyotning undagi o'rni, tarixiy va nazariy muammolarini o'rganishda manba bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** - arxiv materiallari, Sharq mutafakkirlarining risolalari, hamyurt va xorijiy musiqashunos olimlarning monografiya va maqolalarida keltirilgan cholg'u ijrochiligi va adabiyotga oid

ma'lumotlarni tizimli -kompleks tahlil etish, ilg'or zamonaviy uslublarni tadqiqot maqsad va vazifalariga moslashtirish, to'plangan etnografik materiallarni o'zaro solishtiruv tarzida tahlil qilish va natijalarini induktiv uslub orqali umumlashtirish, to'plangan nazariy xulosalarni tatbiq etilishini ta'minlashga qaratiladi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 bob, 7 ta qism, xulosa, izohli atamalar, kalitli so'zlar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Xulosa qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslanadi, maqsad va vazifalari aniqlanadi, uslubiy yo'nalishlari hamda o'rganilish darajasi belgilanadi.

**Dissertatsiyaning birinchi bobi:** Yoshlarni ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda musiqaning adabiyotga bog'lanishidagi nazariy asoslar. Bunda;

- Musiqa yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksaltiruvchi me'zonlar asoslanadi;
- Musiqiy san'at yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksaltiruvchi me'zonlar asoslanadi;
- O'zbekiston ma'naviyatning uzviy qismi bo'lgan qo'shiqchilik san'atining rivojlanishi va tanqidchilik;

Mamlakatimizda ma'naviyatning uzviy qismi bo'lgan adabiyotning rivojlantirib borilishida cholg'u ijrochiligi va adabiyotning qadim davrlarda shakllanishi va evolyutsiyasi mantiqini ochib berishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bob bo'yicha xulosa berilgan. Birinchi bob bo'yicha xulosalar beriladi.

**Dissertatsiyaning ikkinchi bobi;** –xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan bo'lib, bunda; -Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda cholg'u ijrochiligi va adabiyotning qudratli omil sifatida e'tiborli ekanligi asoslanadi;

- Musiqaning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyatini yoritish;
- Yoshlarning ma'naviy salohiyati, tafakkurini rivojlantirib tarbiyalashda musiq va adabiyotning ruhiyyotga ta'siri asoslash;
- Yoshlarning ma'naviy salohiyatini rivojlantirishda ularni g'oyaviy tarbiyalashda Musiqiy cholg'u va adabiyotning tutgan o'rni beqiyos ekanligi o'zga xos maxsus tadqiqotlar ko'lamini ekanligi asoslanadi; ushbu bob bo'yicha xulosa berilgan. Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar beriladi.

**Dissertatsiyaning uchinchi bobi; -Cholg'u ijrochiligi jo'rnavozligida she'riyat sharxi va bog'lanishidagi suxanronlik talqini,** deb nomlandi. bunda;

- Musiqaning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyatini belgilanadi;
- Yoshlarning ma'naviy salohiyati, tafakkurini rivojlantirib tarbiyalashda musiq va adabiyotning ruhiyyotga ta'siri yoritiladi;
- Suxanronlik-suvanronlik va sh'eriyaatning musiqaga bog'lanishi ilmiy asoslarda yoritiladi. Uchinchi bob bo'yicha xulosalar beriladi.

**Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi; Musiqa va she'riyatning o'zaro bog'lanish kompozitsiyasini yuqori sinf o'quvchilariga o'rgatish usullari,** deb nomlangan.

- Bunda; - O'qituvchining metodik tajribasi va zamonaviy dars uslubi asoslanadi;
- Cholg'u -she'riyat hamda o'qituvchi va o'quvchi munozaralarida kompozitsion kulminatsiyalarni badiiyligi amaliy ijrota o'z isbotini topadi. To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar beriladi.

**Dissertatsiyaning umumiy xulosa qismida** tadqiqot davomida erishilgan nazariy va amaliy mulohazalar bayon etiladi.

## **I-BOB**

### **YOSHLARNI MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA MUSIQANING ADABIYOTGA BO'G'LANISHIDAGI NAZARIY ASOSLAR**

#### **1.1-§. Musiqa yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksaltiruvchi me'zonlar**

Shubhasiz, milliy qadriyatlarsiz millat kelajagini tasavvur etish qiyin. Yurtboshimizning xalq qadriyatlarini tiklash va milliy o'zlikni anglash, kamol toptirishga alohida e'tibor qaratayotganligi ham aslida bejiz emas. "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlarini izlashga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi 9-5-ming yillar muqaddam Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Shunday ekan, aytmog'imiz mumkinki xalq qadriyatlari kishilar, xususan yoshlarimizning o'z Vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashda tariximizni anglash va o'rganish omillari muhim ahamiyatga ega. Zero, turkona qadriyatlar otabobolarimizdan meros asnosida bamisoli yo'lni yorituvchi mashhala, dillarga yorug'lik, ezgulik olib kiruvchi mo'jizadir. Ayni chog'da bu yuksak tuyg'ular farzandlarimiz ongi, shuurini charxlovchi, ularning kamoliga ziynat bag'ishlovchi betakror donishmandlikdir"<sup>4</sup>

Sharqona qadriyatlarimizni oyoqqa turg'azish maqsadida "Ma'naviyat va ma'rifat" Respublika markazi, "Oltin meros" kabi jamg'armalarning tashkil etilganligi ayni muddao bo'ldi. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Shuni alohida ehtirol etishimiz kerakki, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari uzoq tarixiy davrni qamrab oladi. Binobarin, milliy qadriyatlar ham tarixiy hususiyatlarga ega. Millat qancha qadimiy bo'lsa, uning qadriyatlari ham shu kabi ko'hnadir.

Qadriyatlar hech mubolag'asiz xalq tarixi, millat qiyofasidir. Qadriyatlar kimlarningdir shunchaki, xususiy o'ylarining mahsuli emas. Ayni paytda uning mavjudligi ham ayrimlarning irodasiga bog'liq kechmaydi. Milliy qadriyatlar so'zsiz har bir millatning mavjudlik belgisidir.

B.Bartol'dning "Eski turklarda milliy vijdonning shakllanganligiga shubha bo'lishi mumkin emas"<sup>5</sup> degan fikrida turkiy qadriyat tuyg'ularining ko'hna tarixi ham aks etadi.

---

<sup>4</sup> В. В. Баргольд Туркий халклар тарихи

<sup>5</sup> В. В. Баргольд Туркий халклар тарихи

Olimlarimizning zahmatli, betakror mehnatlari evaziga fanga ma'lum qilingan "Sarmishsoy madaniyati", "Jayxun madaniyati", "Varaxsho madaniyati" "Kaltaminor madaniyati", "Sopoltepa madaniyati" singari o'nlab qadimiy madaniy qatlamlar va boshqalar butun dunyo ma'rifat ahlini hayratga solmoqda. Bu madaniyat topilmalari yurtimizni juda qadimiy davrlardan yuksak darajadagi milliy qadriyatlar diyori bo'lganligini isbotlaydi.

Asrlar davomida ajdodlarimizning aqlu zakovati ila yuzaga kelgan milliy qadriyatlar inson shaxsining har tomonlama kamol topishida yetakchi omildir. Shuni yanada teran idrok qilmoq kerakki, davr kishisi, xususan yoshlarning ongini mazmunan boyitib borish beqiyos ahamiyatga ega.

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan o'zining boy milliy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, jahon madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi bilan alohida o'rin egallaydi. Jahon madaniyati va san'ati taraqqiyotida turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosning butunjahon hamjamiyati tomonidan e'tirof qilinishining o'zi o'tmish tariximiz, bugungi hayotimizga berilgan munosib bahodir. Shu nuqtai nazardan o'zbek xalqining mumtoz musiqiy yodgorliklaridan biri bo'lgan Xorazm Dutor maqomlarini tadqiq etishi muhim ahamiyatga ega.

Bobokalonlarimiz tarafidan qadimgi davrlardan beri bizgacha saqlanib kelingan mumtoz musiqiy obidalar, ularning hayot tarzlaridagi o'ziga xos an'analari zamonlar o'tishi bilan shu makonda kamol topgan ilm ahlining musiqiy izlanishlarida sayqal topib, tobora ilmiyroq bir tusda tegishli yozma manbalarga muhrlanib, ma'naviy boyligimizga aylangan. Ushbu mulkni tadqiq qilib, amaliyotga tadbiiq etish kabi muhim vazifa, ayni paytda, biz uchun kechiktirib bo'lmaydigan ishlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2002 yil 23 mayda Hofiz Ollanazarovga maktub yo'llab, o'tmishda Xorazm musiqashunoslari tomonidan yaratilgan qo'lyozma maqom kitobini avaylab saqlab kelganligi uchun minnatdorchilik bildirgan edi<sup>6</sup>. So'ngra bu nodir manba O'zbekiston Prezidentining topshirig'iga binoan O'zbekiston davlat konservatoriyasiga tantanali ravishda topshirildi. Endilikda ushbu noyob manba mazkur dargohning muzeyida saqlanmoqda. Davlat rahbarining musiqiy merosimizga bo'lgan g'amxo'rliqi san'at ahlining qalbida saqlanib kelayotgan ezgu, orzu-umidlarini alanga oldirib, muazzam maqom mulkini obod qilish, undan milliy qadriyat sifatida xalqimizning ma'naviy manfaatlarini yo'lida foydalanish borasida tariximizda yangi davr paydo bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, Buxoro Shashmaqomini an'anaviy nota yo'lida saqlab avaylab kelgan Levi Boboxonning nevarasi Ari Boboxon tomonidan zamonaviy nota yo'lga tushirib tiklanganligi uchun Xalqlar Do'stligi ordeni bilan taqdirladilar.

Ajdodlarimiz merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish, mumtoz musiqa an'analari hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etish, eng asosiy masala – jahon ma'anaviyatida musiqa merosimiz tutgan o'rnini aniq, ravshan belgilab berishdan iborat.

---

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримов Ҳофиз Оллоназаровга мактуби // Халқ сўзи газетаси, 2002 . 28 май.

Prezident I.Karimov har jihatdan ma'naviyatli-ma'rifatli insonni kamol toptirishda, Vatan tarixining o'rniga alohida e'tibor berib: "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutmog'imiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"<sup>7</sup>, deb ta'kidlaydi. Binobarin, o'tmish faqat xushkayfiyat yoki afsusnadomatlar bilan emas, balkim sabog'i bilan qadrlidir. Zero, milliy o'zlikni anglash va milliy g'urur, vatanga muhabbat tuyg'ularini milliy qadriyatlar tasavvur etish qiyin. Shuningdek, milliy qadriyatlar bilan Vatan tuyg'usi o'zaro bog'liqdir. Shuni alohida ehtirol qilmog'imiz lozimki, milliy qadriyatlarga munosabat tuyg'usi ehtiros, kayfiyat, shuningdek, ruhiy holat bilan bog'liq emas. Aksincha, xalqning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti darajasiga bog'liq. Demak, milliy qadriyatlarni chuqur anglash vatan tuyg'usini mustahkamlaydi. Ayni paytda yoshlar vatan haqida qancha ko'p bilsa, milliy qadriyatlarni qanchalik chuqur anglab, ehzoqlasa uning milliy ongi ham shunchalik yuksak bo'ladi.

Biz yosh avlodni ana shunday yuksak insoniy g'oyalar, tushunchalar asosida tarbiyalamog'imiz lozim. Binobarin, faqat shunday vorislargina kelajagi buyuk mamlakatimizning haqiqiy fidoyilari bo'lishliqqa qodirdirlar. Zero, o'sib kelayotgan har bir yosh avlod Vatan bittaligini chin yurakdan his etsinlar.

Vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi bo'lmaydi. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti "bugun Vatanning har bir farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan faxrlanayapti. Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yanglishmagan bo'lamiz. Vatan, Vatandoshlik tuyg'usi eski mafkuraviy qobiqlardan xalos bo'lib, o'zining asl qiyofasini topadi"<sup>8</sup>.

Milliy qadriyatlar kishilar o'rtasidagi o'zaro ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni boshqaradi, g'oyaviy jipsligini mustahkamlaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bu kuchni hech bir omil bilan almashtirish mumkin emas. Bas, shunday ekan, milliy qadriyatlarga, e'tiborni kuchaytirmoq, undan yuksak aql-idrok, Vatan ravnaqi yo'lida foydalanish-ta'lim-tarbiya muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. To'g'ri, yer yuzidagi har bir millat o'ziga xos milliy qadriyatlar yig'indisiga ega. O'zga millatlar milliy qadriyatlarining ehzoqlash muayyan millatga nisbatan ehtiros belgisidir. Ta'lim-tarbiya jarayonida bularni biz aslo unutmasligimiz lozim. Ayni paytda turli xalqlarning milliy qadriyatlari bir-birini doimo boyitib, to'ldirib keladi. Ularni o'zaro ayrim holatda tasavvur qilish qiyin. Masalan, o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq xalqlarining tarixiy rivojlanishida o'zaro uyg'un jihatlar ko'p. Shu o'rinda aytmog'imiz keraqqi, milliy qadriyatlar millat totuvligini ham o'ziga xos omilidir.

## **1.2-§. O'zbekistonda ma'naviyatning uzviy qismi bo'lgan cholg'u va qo'shiqchilik san'atining rivojlanish bosqichlari va tanqidchilik**

<sup>7</sup> Тарихий хотирасиз келажак йўқ. "Мулоқот" журнали, 1998 йил, 5-сон

<sup>8</sup> Ислом Каримов. "Ўзбекистон келажаги буюк давлат" 1998 йил

**“O‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, o‘z kuchiga, o‘zi tanlagan yo‘lning to‘g‘riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho‘chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g‘arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo‘ladi”.**<sup>9</sup> I.A.Karimov

Odamzodning muntazam harakatlari muayyan usuliy tartibni tashkil etganligi natijasida urma cholg‘ularning paydo bo‘lishini ta‘minlagan deyish mumkin. Urma cholg‘ular sadolari yordamida inson ruhiy olamiga tegishli ta‘sir o‘tkazib kelingan. Borliqning insonga ta‘sirida insonning ichki ritmik-usuliy harakatlari ham muhim ahamiyatga egadir.

S.Saidiyning tadqiqotlarida; Ma‘lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida eng qadimgi va keng tarqalgan urma cholg‘ulardan biri nog‘oradir. Bu cholg‘uning asta-sekin mazkur xalqlar, ularning qavm va qabilalari orasida paydo bo‘lib, tarqalib ketishida ayollarning o‘rni va xizmati katta bo‘lgan.

Ular 100 ming yil oldin «Must‘e»<sup>10</sup> davrida g‘orlar ichida yashab, o‘z uy yumushlarini shu yerning o‘zida bajarishgan<sup>73</sup> Ayollar cholg‘u yasash maqsadida emas, balki kiyim tayyorlash maqsadida hayvon terisiga ishlov berganlar, so‘ngra uni xumsimon katta yog‘och kundaga quritish uchun tashlab qo‘yganlar. G‘orlardagi quruqlik va issiqlik ta‘sirida yog‘och kundalarga terining yelimsimon moddasi yopishib qolishi natijasida qurishi ham tezlashgan. Oqibatda, kovak kundaga yopishgan teri haqiqiy nog‘orasimon sas chiqarib, diqqatni jalb etgan holda urma cholg‘u mavqeini egallab qolgan deb, ilmiy asoslarda qiyoslab bergan.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi mehnat qo‘shiq-lari o‘sha davr turmush tarzi bilan bevosita bog‘lanib tarannum etilgan. Markaziy Osiyo hududida qadimgi Buxoro zaminidagi Darvozaqir, Qizbibi, Varaxsha, Romush [Romitan], Tojikistondagi Rushan [Badaxshon] tumanlarida, Panj daryosi atroflarida, Surxondaryoning Ayritom tumanlarida, Turkmanistonning Marv zaminlarida yashovchi qabilalar o‘rtasida musiqa cholg‘ulari nisbatan ilgariroq «neolit va eneolit» davrlarida paydo bo‘lganligini ta‘min qilish mumkin. Ayniqsa, cholg‘ulardan - doyra ertaroq paydo bo‘lganligi haqida tegishli ma‘lumotlar San‘at tarixi bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlarda berilgan<sup>73</sup>

S.Saidiyning ta‘kidlashicha, shu davrda ayollarning doyra ijrochiligi barcha uslubiy jilolari bilan namoyon bo‘lgan. Bunda, doyra usullari vositasida davolaydigan [tabobat qiluvchi], ya‘ni ko‘chirmachi ayollarni baxshi ayollar deb ham atashgan. Doyra chalib fol ochuvchilarni folbin, jodugar, ruhshunos farishta chaqiruvchi, parxon [parixon] deb ham ataganlar. Baxshi, ko‘chirmachi deb nomlangan doyrachi ayollarning ijrolaridagi xilma-xil zarbu usullari yordamida ayrim ruhiy kasallar shifo topib tuzalganliklari, bu insonlar muolajasi ruhiy ishonch paydo qilish maromi bilan bog‘liq bo‘lganligini alohida qayd etish joiz<sup>11</sup>.

<sup>9</sup> . I.A.Islom Karimovning "Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch" asari Toshkent-2009 yil.

<sup>10</sup> Саидий С.Б. Ноғора ва дойра чолғулари хусусида // Ж. Маҳорат кўзгуси.- Бухоро.- 2001.- №1.- 60-63 б.

<sup>11</sup>С .Б.Саидий Марказий Осиё маданиятида urma чолғулар (ўзбек ва тожик musiqa анъаналари мисолида). Тошкент. 2005 йил.-144 с.<sup>11</sup>

Fol ochuvchi parxonlar faoliyati ham doyra jo'rligida bo'lib o'tgan: oldinda kutilayotgan xabarlarni ularning ruhiy ta'sirotlarida yetkazganlar va bu bilan fol ochish mahoratlarini namoyish qilganlar. Demak, sof musiqiy ijrodan tashqari diniy-falsafiy, kosmologik usullar ham bo'lgan. Bunday ijrolar Hindiston, Xitoy, Afg'oniston hududlarida nisbatan kengroq taraqqiy etganligi haqida turli ma'lumotlar mavjud.

O'zbekiston va Tojikistonning o'tmishida Zardushtiy va Budda ibodatxonalarida musiqa muhim diniy g'oyalar targ'ibotchisi vazifasini bajargan. Bu haqdagi ilk ma'lumotlar Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida: «Afrosiyob o'z kuyovi Siyovushni o'ldirdi. Siyovushning esa Kayxusrav ismli o'g'li bor edi... Buxoro aholisi Kayxusravning otasi Siyovush o'limi munosabati bilan ajoyib qo'shiq yaratdi. Mashshoqlar bu qo'shiqni "Kini Siyovush" [Siyovush qasosi] deb, ataganliklari haqida ma'lumotlar beriladi. Bu qo'shiqni hamma jo'r bo'lib aytgan: deklamatsiyachilar [kavvalon] bu qo'shiqlarni [Surud] "jodugarning yig'isi" [Giristani mug'on], deb ataydilar. Ana shu voqeadan buyon 3000 yildan ko'p vaqt o'tdi" <sup>73</sup>Buxoroning barcha viloyatlarida mashhur bo'lgan Siyovushning o'ldirilishi haqidagi qo'shiq, Tojikistonning kasbiy xor jamoasida hozir ham mavjud.

Qadimgi Xorazm zaminida yaratilgan "Avesto" muqaddas kitobida, ayniqsa, uning "Xatlar" [Gatho] qismida musiqiy ijrochilik va uning uslublari haqida ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan. Zardushtiylik ta'limoti ham o'z davrida qadimiy an'analarni tiklab, ularni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etganki, ushbu madaniy qatlamga mansub Darbori va Dabiriston maktablarining vujudga kelishi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblanadi <sup>73</sup>. Bizgacha yetib kelgan "Avesto"ning ko'p madhiyalari surud [ya'ni, qo'shiq] tarzida yaratilgan. "Avesto" usulidagi surud [qo'shiq]lar, goho hozirgi fors-tojik tillaridagi Eron va Tojikiston musiqaviy folg'lor yo'nalishlarida ham ijro etib kelinmoqda N.Hakimovning tadqiqotiga ko'ra, Zardusht davrining 17 madhiyasi yashtlar orqali bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bu qadimiy qo'shiq an'anasining asosiy sarchashmalari "Avesto"ga borib taqaladi. Miloddan oldingi VII-IX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati va musiqa San'ati boshqa davlatlarda, xususan Boxtar [Baqtriya]da ham ancha taraqqiy etadi, keyinchalik Midiya va Ahmoniylar [Xoxomanish] imperiyasi Eron hududiga ham tarqaladi.<sup>12</sup> Bu davrda musiqa San'ati professional maktab darajasiga ko'tariladi. Asosiy maktablar — Darboriy, Dabiriston an'analari shakllanib, diniy musiqa asosan Xarbadiston uslubidan iborat edi.

Aynan Xorazmda yaratilgan "Avesto" ajdodlarimizdan bizlarga qolgan bebaho ma'naviy boylikdir. "Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu

---

<sup>12</sup> Хакимов Н. История исполнительства на народных инструментов Средней Азии. - Д.: Ирфон, 1989. - 160 с.

qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatlarki, uni hech kim inkor etolmaydi".<sup>13</sup>

Zardushtiylik dinining milliy va umumbashariy ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy qoidalari "Avesto"da bayon etilgan. "Avesto" aslan diniy kitob bo'lish bilan bir qatorda ajdodlarimizning uzoq moziydagi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati, tili, yozuv, odob-axloqi, ma'naviy-axloqiy va falsafiy, huquqiy, etik qarashlari va ta'limotlarni qaror topishi va rivojlanishi tarixini o'rganish uchun bebaho yozma manba hamdir.

Tarixiy-ilmiy manbalarining ko'rsatishicha, "Avesto" oshlangan 12 mingta mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Afsuski, eng qadimgi yozma adabiyot, axloq-odob qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan bu asar bizgacha to'la yetib kelmagan. Faqat u xatda yozilgan tarixiy manbalar bor.

Dunyoda "Avesto"chalik ko'p va shiddatli qarshiliklarga uchragan kitob bo'lmasa kerak. Uni dushmanlar olovda kuydirishdi. Bu muqaddas kitobdagi g'oyalarni taqiqlashdi. Ko'pdan-ko'p fojialarga uchradi.

"Avesto"-teran hikmatu xazinalar koni, umumbashariy ma'naviyatning eng qadimiy manbalaridan biridir. Unda qadimgi hind xalqining "Mahabxorot", "Ramayana", "Rigveda", "Kalila va Dimna" kitoblarida bo'lgani singari odamlarni ilmu ma'rifatga, insofu diyonatga, ezgulikka dahvat etadigan g'oyalar, yo'l-yo'riqlar shu qadar ko'pki, ularning har birini bebaho hikmatlar xazinasi deyish mumkin.<sup>14</sup> Zardushtiylik ta'limotida ilgari surilgan axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy, falsafiy, huquqiy g'oya va qoidalar bunga yaqqol misol bo'ladi.

"Zamin insonga shunday deydi:-O, sen, inson, o'ng qo'li va so'l qo'li bilan, so'l qo'li va o'ng qo'li bilan ishlov beruvchi, mehnat qiluvchi zot! Men haqiqatan ham har xil noz-ne'mat, shafotlarimni, mo'l-ko'l hosilimni sendan ayamayman. O'ng qo'li va so'l qo'li bilan, so'l qo'li va o'ng qo'li bilan yerga ishlov bermaydigan, mehnat qilmaydigan kimsalarga esa, O, Spitam, Charadushtra zaminning javobi shundaydir: O, sen, Odam, menga topinmaydigan, mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatdan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan, to'q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo'lajak!"<sup>15</sup>

Milliy-ma'naviy qadriyatlarimizning aksar muhim masalalari ifodalangan "Avesto"da hovuz, ariq, quduq suvlarini iflos qilish man etilgan, anhor va ariq bo'ylarida mol boqish, otlarni bog'lashga ruxsat etilmagan, yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi to'rt yuz qamchi urish jazosiga mahkumligi belgilangan, o't-o'lanlar, mevali daraxtlar ekilgan, suvlari hamisha ravon bo'lgan zamin eng yaxshi yer ekanligi, har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan zaminni fidoyisi bo'lishi shartligi qayd etilgan.<sup>16</sup>

<sup>13</sup> Ислом Каримов. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. 7-жилд. Т., "Ўзбекистон", 1997, 137-138-бетлар.

<sup>14</sup> Қаранг: Ҳ.Бобоев, С.Ҳасанов. Авесто — маънаиятимиз сарчашмаси. Т., «Адолат». 2001, 6-11-бетлар.

<sup>15</sup> Ж.Йўлдошов, С.Ҳасанов. "Авесто"да ахлоқий-таълимий қарашлар. Т., "Ўқитувчи", 1992, 24-бет.

<sup>16</sup> Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт. Т., "Ўзбекистон", 1997, 74-75-бетлар.

“Avesto”dagi ma’naviyat va ma’rifat haqidagi ta’limotga ko’ra, mehnat qilish barcha ezguliklarning asosi, insoniylik belgisidir. Ta’kidlanishicha, dehqonchilik bilan shug’ullanish o’n ming marta toat-ibodat qilishdan a’lodir.

Ilmiy-tarixiy, yozma va og’zaki manbalarda aytilishicha, qadimgi yunonlar miloddan avvalgi VII asrdan boshlab Turon-zamin xalqlari haqidagi ma’lumotlar bilan tanisha boshlaganlar. Ularning xudolar, bahodirlar haqidagi ertaklari, rivoyatlari, dostonlari hamda Yunoniston faylasuflari asarlarining mazmunidan zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi “Avesto”ning, Homerning “Odissey”ida esa “Alpomish”ning ta’siri bilinib turganligini sezib olish qiyin emas. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn), Ksenofont, Strabon, Ptolomey, Herodot esdaliklari va asarlarida mintaqamiz xalqlariga xos madaniyat, urf-odat va an’analar, afsonalar keltirilgan.

Yuqorida qayd etib o’tilganlardan ko’rinib turganidek, dunyodagi bironta xalq va millat hech qachon o’zidan boshqa xalqlar va mamlakatlardan, jahon sivilizatsiyasidan ajralgan holda yashagan emas. Xalqning, millatning ulug’vorligi milliy mahdudligiga qarab belgilanmaydi. Qaysiki xalq milliy qobig’iga o’ralib qolib o’zga xalqlar yutuqlaridan bahramand bo’lmasa, chinakamiga yuksala olmaydi. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti singari madaniy-ma’naviy, ma’rifiy rivojlanish tarixi ham bir-biri bilan uzviy borlanishdadir.

Buyuk Qo’shoniylar imperiyasining eramizdan oldingi davrida, Ko’xan-tojik musiqa maktabidan iborat bo’lib, ikki yo’nalishda bo’lgan.

San’atshunos olim S.Saidiyning keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, Darboriy musiqa maktabida talabalar an’anaviy cholg’u ijrochiligi va ovozxonlik bo’yicha saboq olganlar. Talabalari katta yoshli erkaklar va ayollardan iborat bo’lgan darboriy maktabida diniy musiqa yo’nalishida ham saboq berilgan.

Ahmoniy saltanatining oxirgi hukmdori Doro saroyida 329 ta talaba va maxsus ovozxonlardan tashkil topgan guruh bo’lganliklari, ular kuylash va raqsga tushish bilan shug’ullanganliklari bunga misol bo’la oladi. Diniy an’analardan tashqari, musiqa madaniyatining hofizlik an’analari davom ettirilib, bu yo’nalishlarda qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari an’anaviy ijro uslublari yuksak saviyada rivojlangan<sup>1</sup>

Shuni ta’kidlab o’tish joizki, N.Hakimov Darboriy va Doro musiqiy yo’nalishi haqida ma’lumot berish bilan chegaralanib, o’sha davrdagi musiqa madaniyatining hozirgi zamon yo’nalishlari va uslublari bilan taqqoslamagan. Bunda, aloqadorlik sezilarli darajadadir. Jumladan, musiqiy madaniyatda urma cholg’ular muhim o’rin tutganligi va ular qo’g’irchoqbozlar, masxarabozlar, harbiy yurishlar va yana turli xalq ijrochilik yo’nalishlariga jalb etilganligi haqida

<sup>1</sup> S.Saidiy, “Markaziy Osiyoda Urma zarbli cholg’ular” (o’zbek va tojik musiqa an’analari misolida), Toshkent 2008, \**“Musiq” nashr.*” Наршахий берган маълумот шарҳида кўплаб илмий изоҳлари мавжуд бўлиб, улар орасида асосийлари қуйидагилардир: “Муғлар кўшиғи” - ўлаётган ва тирилаётган табиат ҳақидаги Зардуштий мифологиясидан илгари айтилган Бухоро маҳаллий ривояти [3], аждодлар руҳи билан боғлиқ жанр [4], Зардуштий диний кўшиқчилик аънанаси [5]. Агар Муҳаммад Наршахий келтирган сана - “Ўша воқеадан буён 3000 йил ўтди”, жумласидаги рақам тахминий сана сифатида қабул қилинган тақдирда, диний маросим муסיқий аънаналари милoddan аввалги 2 минг йиллик ўрталарида, яъни Марказий Осиёда Зардушт таълимотининг шаклланиш даврига тўғри келади. <sup>73</sup> Қадимги давр Зардуштийлик муסיқавий маданиятининг барча услублари ва ундаги аънаналар Зардуштийларнинг кейинги авлоди бўлмиш қадимги Бухорода ўринлашган. <sup>83</sup> - деган маълумотлар ҳам мавжуд.

ham fikr yuritiladi. Ayni vaqtda Doro saroyida ijrochilar ansambli va maxsus tayyorlangan ashulachilar guruhi ham bo'lgan. Ular ko'pincha turli xil madhiyalar aytishgan. Urma cholg'ular raqs San'atida ham muhim o'rin egallaganligi ta'kidlanadi.

S.Saidiy tadqiqotlarida asosiy ta'sir doirasidagi musiqaviy San'at turlarining uslublari quyidagicha tasnif etiladi: 1. Saroy marosimiy uslublari, ya'ni haram va saroy uslublari; 2. Saroy harbiylari uslublari — a) ogohlantiruvchi tartib [salyutlar, uchrashuv marshlari]; b) harbiy orkestr uslublari; 3. Madaniy tarzdagi uslublari — a) vokal madaniyati. b) sozandalik madaniyati. 4. Kushon musiqachilari madaniyati — a) shahar uslubi, b) qishloq uslubi, v) vokal va cholg'uchilik uslubi, g) harbiylar uslubi [shahar qo'riqchilari], d) marosimiy uslublari.<sup>17</sup>

Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy an'alarining o'xshashligi ularning yanada takomillashib borishiga asos bo'lgan. Bunda, ayniqsa, o'sha davr saroy musiqa San'ati ta'siri yetakchilik qilgan. Ijrochilik amaliyotida, ayniqsa, "dabiriston" maktabi an'analarga boy bo'lgan. Shahar musiqiy madaniyatida quyidagi yo'nalishlar mavjud bo'lgan: 1. Musiqiy cholg'uchilar va hofizlar; 2. Raqqoslar; 3. Aktyorlar va masxarabozlar; 4. Yig'ichilar; 5. Adabiyotshunos va tarjimonlar, 6. Qo'riqchi mextarlar<sup>18</sup> bo'lganligi haqida olimning keng ma'lumotlari mavjud.

Qadimda u yo bu jarayonlarda, ya'ni fol'klor- (mahalliy) yo milliy- (professional) saroy xor jamoasi, harbiylar xori, havasmandlar xorida alohida e'tibor qaratib kelingan. Xor – nafaqat inson tarbiyasida shaxsni ajdodlar ruhida tarbiyalash vositasida kamolotga yetkazish hatto ramziy hollarda insoniyat hayotini ham saqlab qolganligi va hamdo'stlikni kuchayib borishida ham ruhiy jihatdan o'z taassirotni yetkazib turganligi haqida rivoyatlar mavjud.

Xorlarning turlari: "Xor-bu vakal musiqiy cholg'u asboblari jo'rligida yoki jo'rsiz ijro etuvchi xonandalar kollektivi "Xor-atamasi yunoncha so'zidan olingan bo'lib "to'da", "yig'in" ma'nosini bildiradi. Yana; «XOR-bu, (*Grektilidan olingan bo'lib*) "Xonandalarning hammunosabatda birlashib kuylashlari"- dir. Bunda; Vokal uslubining bir- birovi bilan uzviy bog'langanlik jarayonida ovozlari turlanishlarga ajratiladi. Bular: maktabgacha va uzluksiz ta'limdagi bolalar xori, ayollar xori, erkaklar xori va aralash xor jamoalaridir. Bilvosita; xor ovozlari uchun yaratilgan janrlar musiqiy asarning bir ovozli, iqqi ovozli, uch yo maxsus intonasiyalar qo'shilishida to'rt....ovozli birlashgan differentsialligining partiyasini tashkil etadi va Xormeyster rahbarligida uslubiy konsepsiyasiga bo'y sunadi!»- «XOR San'ati– bu, Jahon davlatlarining o'zlik maqomidagi milliylik ramzini aks

<sup>17</sup> Саидий С.Б. Зардуштий ва буддавийлар даври мусика санъати //Ж. Мозийдан садо.- Т.- 2003.- №№ 3-4.- 28-29 б. 74-77 б.

23.С.Б.Саидий. Марказий Осиёда урма зарбли чолғулар (ўзбек ва тожик мусика аънаналари мисолида): . /«Мусика» нашриёти.Тошкент- 2005 йил. 34-42 бб.

etuvchi omil, iftihori, shaxs sifatida har bir fuqarosining faxri va g'ururi, ma'naviy ruhiyatining badiiyligini ifodalovchi oynayu- iftihoridir!...» S.B.Saidiy (suxbat)

Tarix sarchashmalaridan S.Saidiyning ma'lumotlarida "Rivoyat qilishicha, kunlarning birida "Har ikkala qo'shni davlat kelishmovchiligidan jang maydonini tanlab, qo'shinlarini bir-biroviga qarshi qaratib saf tortib turgan emish. Jang boshlanishidan oldin birining otasi yo tog'osi, akasiyu- ukasi, kuyavi va boshqa qarindoshlari bir –biroviga qarshi dushman sifatida qarab turgan paytda, u va bu tomondagi mashhur aka-ukalarning biri "Shoir" va ikkinchisi esa "Nay" ijrochisi bo'lgan ekan. Akasi- ukasiga qarab har ikkala tomon xalqlariga mashhur bo'lgan va gohida xor bo'lib kuylashgan **"Inson ul-peshravi hayot yo shayton al-fatxi mamot"**<sup>19</sup> deb, nomlangan she'riyatini baland ovozda suxanronlik qilib ukasi tomon ohista-sekin qadam bosib boribti, ularga qarshi turgan ukasi "Nay" cholg'usini olib, Suxanronlikni - Suvanronlikka aylantirib, xor qo'shig'ini yuzaga keltirib jo'r bo'lgan holda ohista- sekin qadam tashlab akasining yoniga boribti. Ularning orqasidan esa qo'shinlar ham bir-biroviga qarab ushbu so'zlarni tong otguncha xor bo'lib kuylashgan va jang masofasidan chiqib bir –birovlariga qo'shilib, chatishib borishibti va shu tariqa ushbu she'riyat ramzlariga aylanib, harbiylar "Madxiya" si yuzaga kelganligi va jang emas, hamdo'stlik bayramlariga aylanib borganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Boshqa risolalarda esa, har ikkala tomon ham o'zlarining "madxiya" larini o'qib tugatishi bilanoq, jangga kirishib borganligi va qaysi davlat g'alabaga erishgan bo'lsa, unda "Madhiya" si yanada jozibali va tantanavor tarzda yangragankim, buni uzoq masofadan ham aholi anglab bilganligi haqida maqollar bitilgan.

Masalan, "Ho-zamzam" qo'shig'ini Tojikistonda fol'klor uslublarida aytilishini uchratish mumkin. Bu qo'shiq davrlar o'tib ancha takomillashib, zamonaviy musiqa ijrochiligida o'z o'rniga ega bo'lgan. Uning fol'klor uslubiga birmuncha yaqinligi, usul tartiblari Buxoroning «ufar»iga o'xshab ketadi. Biroq, Buxoro an'anaviy ufarining ijro etilish xususiyatini o'zga biror etnik guruh yoki xalqniki bilan solishtirib bo'lmaydi. U faqat Buxoroga xos uslubiy shaklda ekanligi bilan alohida ajralib, sezilib turadi.<sup>20</sup>

R.Abdullayev tadqiqotida, asosan o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq kabi turkiyzabon aholi bilan birga, fors-tojik vakillari ham yondosh yashashi natijasida milliy an'analarning musiqiy-ma'naviy hayotda ko'plab urf-odatlar, bayramona bazmlar, diniy marosimlar<sup>21</sup> ning naqadar qo'shilib-chatishib ketganligi haqida qiziqarli fikr-mulohazalar yuritadi.

Qadimdan bizga ma'lum cholg'ular tarannumidan tashqari "chapak", "qars" hamda qo'lga angishvona taqib, likopchalarga zarb berib, xor bo'lib kuylash udumlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Masalan, Zardushtiylarning qadimgi Kushon davri San'atiga xos diniy bayram usullari va harbiy xor jamoasining

---

<sup>19</sup> Саидий С.Б. Шарқ мўжизаси. YANGI AVLOD. //Навоий вилоят ўрта махсус, касб-хунар таълими бошқармаси газетаси. 2005. №3(46). 12 б.

<sup>20</sup> С.Б.Саидий. Марказий Осиёда урма зарбли чолгулар (ўзбек ва тожик музыка анъаналари мисолида): . /«Муסיқа» нашриёти.Тошкент- 2005 йил. 34-42 бб.

<sup>21</sup> Абдуллаев Р.С. Обрядовая музыка народов Центральной Азии. - Т.: Фан, 1994.– 135 с.

qo'shiqlari, ya'ni "Mozandaron" harbiy qo'shig'i, "Qini Siyovush" (Siyovush qasosi) – marsiyasi yoki qadimgi Buxoro umum- guruh jamoasi an'alaridan "Yazno-Nofarin" qo'shig'i, "Ho-zamzam" usullari hozirgi davrda Tojikiston xalq konservatoriyasi o'qituvchilarining tashabbuskorligi bilan talabalar va o'qituvchilardan tashkil topgan aralash xor dastasi va turli xil ansambllar dasturidan o'rin olgan<sup>1</sup>. Ammo Buxoroda bu yo'nalishlar sho'rolar hukmronligi davrida asta-sekin e'tibordan chetga chiqib qolgan. Biroq, turli aholi qatlamlari orasida hanuzgacha shunday ijro uslublarining ayrim tartib-namunalari saqlanib qolgan. Bir-qatorida bugungi kunda "Avesto", "Siyovush" va "Qo'shoniylar", davrining qo'shiqlari O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining katta xor jamoasi tomonidan ham tiklanishiga sabab S.Saidiyning tadqiqotlaridir.

Buyuk Qo'shoniylar davrining 329 ta talabadan iborat "Shoxona" professional Saroy XOR jamoasining repertuari.

### Buxoro "Dabiriston" maktabi er.avv.470 yil

#### Misollar: Ho-zamzam

O'lcho vlar	Temp (tezlik) lar m/m	Dinamik belgilar	Talqin etilishlar
1] 6/4 2] 4/4 3] 2/4	1] M:m = 60-80 2] M:m = 120 3] M:m = 140	$f < p < ff < mf < f > sf^2 > f < mf < f < ff > sf_2 < f > fff$	1] Orombaxsh. 2] Kuvnoq, jo'shqin, 3] Zavqona raqs bop
Usullar:			


Ushbu xor jamoasi 21 ta madhiyani yoddan bilgan, qaysi talaba 21 ta madhiyadan birini aytolmasa, unda shu zahot talabalik safidan chetlashtirilib, saroydan haydalgan. Zero maxsus Xor faqat Siyovush va Podshohlarga bo'y sunib kelgan va saroydan tashqariga konsert qo'yish yo xizmat qilish uchun Podshohning ruxsatigina amalga oshirilgan. Saroydan yashirincha chiqib Tumnat qilganlar esa shu zahot boshidan qatl etilgan<sup>22</sup>.

#### Mozandaron harbiy qo'shig'i

O'lcho vlar	Temp (tez-lik) lar. m/m	Dinamik belgilar	Talqin etilishlar
4/4 12/8 6/8	M:m = 60-80 M:m = 140	$f > mf > sf_2 < mf < ff > f > < sf_2 > mf < f < ff < fff$	1) Chaqiruvchan, 2) hayajonli, 3) jangovor, 4) tantanali

<sup>1</sup> С.Б.Саидий .Душанбе, ТГИИ. КИП факультет концерти вақтида 1990 йил ёзиб олинган.

<sup>22</sup> С.Б.Саидий. Марказий Осиёда урма зарбли чолғулар (ўзбек ва тожик мусиқа анъаналари мисолида): . /«Мусиқа» нашриёти. Тошкент- 2005 йил. 34-42 бб.



Yuqorida nomi keltirilgan qo'shiqlar turli xil tasniflanishlar va eng muhimi muayyan turkumiylikda qismlardan qismlarga to'xtovsiz o'tish jarayonlari, o'ziga xos usullari, ushbu usullar ritm-o'lchovlari hamda temp [tezlik] jihatlari bilan ajralib turadi.

Abu Rayhon Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, shu davrda Markaziy Osiyoda mahalliy aholi yil davomida 7 turdagi bayramni keng nishonlagan. Bayramlardan «Navro'z» go'yo podshohning tug'ilishi kuni<sup>23</sup> sifatida tantana qilingan.

Baqtriya, Sug'd hamda Markaziy Osiyoning boshqa viloyatlaridan topilgan yodgorliklardagi tasvirlarda jo'r bo'lib kuylash, yaqqa tarzda qo'shiq aytish, raqs manzaralarini likopcha, doyra, nay va boshqa musiqiy cholg'ular jo'rligida ijro etilgan.

M.Massonning ta'kidlashicha, Xorazm musiqasining ritmik o'zgarishi, rivoj topish davri yangi cholg'ularning kirib borishi bilan bog'liq bo'lgan.<sup>79</sup> Buning sababi, eramizdan oldingi VI-VIII asrlarda Xorazmning juda kuchli davlatga aylanishi, quldorlikning kuchayishi, qo'shni janubiy davlatlardan Sug'diyona, Oriyona va Parfiyona orasida Xorazmning yetakchi o'rinni egallaganligi bilan bog'liq.<sup>24</sup>

Xitoy shoiri Li Zyun: "Maydonni to'g'riladilar, bo'yрани keng yoydilar, nog'orasimon doul cholg'ularining ketma-ket uch zarbidan so'ng, raqqosa ranglangan doulning ketidan quvdi"<sup>25</sup> – deb, ta'kidlaydi. Tan shoiri Li-Duaniya o'z shehrida "Raqqos Xutehuning «Toshkent raqsi»da ular rangli kiyimlar kiyishi haqida ma'lumot bergan. Bu raqslar Koreya amaliyotida har xil rangga bo'yalgan, muayyan bir shakldagi nog'ora namunalarida kuzatiladi va ulardan ayrim o'ta dabdabali tantanalarda foydalanishgan. Masalan, Qora doul Yomg'ir mahbudasiga itoatga chorlab ijro etilgan. Sariq rangga bo'yalgan douldan qatl etishda foydalanishgan. Qizil rangga bo'yalgan douldan esa o'ynoqi raqslar usullari chalingan.

Ma'lum bo'lishicha, Kushon davrining oxirlarida ushbu xalqlarning tili, madaniyati va San'ati milliy-ma'naviy jihatdan ancha o'zgarib ketadi. Adabiy til va shevalar ko'lami ham o'zgarishga duch keladi. Madaniyat va San'atning, avvalo, til bilan aloqadorligi natijasida xalqning musiqiy ijrochiligi ham shu o'zgarishlar ta'siriga tushadi. Musiqiy ijrochilik Sosoniylar davrida ancha taraqqiy topa boshlaydi.

<sup>23</sup> Бухоро – Шарк дурдонаси.- Т.: Шарк, 1997.– 164 б.

<sup>24</sup> Массон М.Е. Средняя Азия и Древний Восток.- М.- Л., 1984.- 240 с.

<sup>25</sup> Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. 2.11.- М.: Госмузиздат, 1950.- 93 с.

Ayni paytda Eftalitlar davlati va turk xoqonligi musiqiy an'analari ham kamol topadi. Tarixiy manbalar miloddan avvalgi V-IV asrlarda massagetlarda<sup>26</sup>, Sirdare bo'ylarida yashagan shakllar, Zarafshon havzasida yashagan so'g'dlar hayotida ham raqs<sup>27</sup> va qo'shiqlar ommaviy tus olganligidan dalolat beradi.

Xalq og'zaki ijodiyotining muhim janrlaridan bo'lgan qo'shiq kuy-ohanglarni keltirib chiqargan, rivojlantirgan, takomillashshtirgan sabablar ichida birinchisi va belgilovchisi-mehnat, insonning amaliy faoliyatidir.

A.Rajabovning ma'lumotiga ko'ra, Buxoro musiqa madaniyatining o'ziga xosligi Darboriy [saroy] musiqa, ya'ni Buxoro mumtoz San'ati [keyinchalik Shashmaqom turkumi], diniy-marosimiy musiqa an'analari, harbiy musiqa turlari, pahlavonlar musiqasi, shahar hunarmandchilik musiqa yo'nalishi, Rustoy va Dehat, ya'ni folg'lor ijodiyoti namunalaridan tashkil topgan.

Darboriy musiqasi o'sha davrda mohir va mashhur ijrochilarni saroyda jamlab, muayyan kasbiy ijrochilik maktabini rivojlantiradi. Diniy-marosimiy musiqa esa, har bir insondan Avestoning 21 kitobi, ya'ni «Gatho»larni maxsus an'analarda ayta bilishni talab qiladi. Harbiy musiqa ustoz sozanda - mehtar rahbarligida ijro qilingan va ustoz-shogird tizimida o'rganilgan. Pahlavoniylarning alohida musiqa maktablari bo'lmagan. Ular asosan diniy va darboriy maktablarda ta'lim olganlar. Buxoroda shahar ustozona kasbiy musiqasi ancha taraqqiy etgan bo'lib, undan boshqa viloyatlar va davlatlarning sozanda, xonandalari ham o'rnak olganlar. Jahon musiqa madaniyati tarixi Movarounnahr xalqlari an'analari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu San'at madaniy-ma'rifiy va ilmiy-nazariy jihatdan Uzoq, O'rta va Yaqin Sharqda mashhur bo'lgan;<sup>28</sup> milliy jilolari esa, ayniqsa, usuliy jihatdan o'ziga xosligi va ta'sirchanligi bilan boshqa Sharq xalqlari ijodiyotidan farqli ravishda ajralib turgan.

O'rta asr tarixchilari qalamiga mansub asarlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Sosoniylar davrida Xisrav II Parviz saroyida "Samoi-Navro'z", "Sozi-Navro'z", "Musiqai-Navro'z", "Nozi-Navro'z", "Navro'zi-Xoro" bazmlari o'tkazilib, bu o'zbek va tojik xalqlarining eng sevimli musiqiy-madaniy an'analardan biri sifatida e'tiborli bo'lgan. Navro'z marosimiy ijro uslublari ham bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, qozoqlarda "Nauro'z", qirg'izlarda "Nooruz"<sup>29</sup> deb nomlangan. Navro'z bayramida aytiladigan kuy va qo'shiq ijrolari Boxtar, Sug'd, Xorazm, Parfiyona, Marv va boshqa qo'shni hududlarda odatda, taomilga binoan gardishining bir tomoniga teri tortilgan doullar, doyra, ikki tomonlama teri tortilgan nog'oralar, dapp, sanj, paqqildoq, qoshiqlar, jarangli sanjchalar, g'o'lachalar jo'rligida amalga oshirilgan.

O'zbekistonda - Xorazm hududida Tuproqqalha, Qo'y qirilgan qalha, Qumbostitepa. Surxondaryoda eski Termiz, Ayritom, Zartepa, Bolaliktepa,

<sup>26</sup> Айний С. Бухоро тарихи. Д.: Ирфон, 1990.– 335 б.

<sup>27</sup> Айний С. Бухоро тарихи. Д.: Ирфон, 1990.– 335 б.

<sup>28</sup> Раджабов А. Уникальный источник музыкальной культуры Народов Востока // Профессиональная музыка устной традиции Народов Ближнего, Среднего Востока и Современность.- Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1981.- 231 с.

<sup>29</sup> С.Б.Саидий. Марказий Осиёда урма зарбли чолгулар (ўзбек ва тожик мусиқа анъаналари мисолида): . /«Мусиқа» нашриёти. Тошкент- 2005 йил. 34-42 бб.

Dalvarzintepa va Xalchayon.<sup>30</sup> Buxoroda Darvozaqir 1-2, Qizbibi, Varaxsha, Romush, Buxor va Magokiy. [Hozirgi Mag'g'oki Attoriy, ya'ni qadimgi Buddha uyi – Ibodatxonasi].<sup>31</sup>

Qashqadaryo viloyati Zarafshon vodiysida, O'zqishloq, Yaqqabog', Mullaqo'ron, Panjikent.

Toshkent atrofida - Qanqa, To'ytepa, Chirchiq; Samarqandda - Afrosiyob, eski shahar atroflari, Farg'onada - Qorabuloq shaharlari va boshqalar bo'lgan.

N.Mironov nog'ora cholg'usi Ovropodan oldin bizning hududda bo'lganligi haqida ham ma'lumot beradi. Somoniylar davrida g'azal hali mustaqil shaklda emas, balki qasidaning kirish qismi bo'lgan.

Shuning uchun tasavvufning nazariyotchilari, jumladan, Abu Bakr Kalobodiy al-Buxoriy [vafoti 999 yil] g'azalni qadib usul cho'plarida ijro etishni "gunoh" hisoblashgan va ularni rud jo'rligida ijro etishni ma'qul ko'rishgan.<sup>32</sup>

Abu Nasr al-Forobiy, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom va boshqa qomuschi olimlarning ilmiy-ijodiy faoliyati natijalari, musiqa fani dunyoviy tavsiflarda tan olinishini ta'minlaydi.

Zaynulobiddin bin Muhammad Mahmud al-Husayniyning "Qonuni ilmiy va amalii musiqiy" nomli qo'lyozmasida. Abu Nasr al Forobiy va ibn Sino kabi buyuk olimlarning musiqa, musiqiy usul haqidagi qo'lyozmalaridabu xususda muhim fikr va qarashlar mavjud.

Chunonchi, Abu Nasr Forobiyning "Musiqqa haqida katta kitob" ["Kitob al-musiqqa al-kabir"] asari ushbu mavzuga bevosita taalluqli. Bu ulkan ahamiyatga ega. Forobiyning o'zi ham mohir ijrochi va nazariyotchi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga alohida e'tibor bergan. U "Jangu-jadallar, raqslar, to'y-tomoshalar, ko'ngilochar bazmlar hamda ishq-muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor" deb, yozgan edi<sup>33</sup>

Ilk uyg'onish davri IX-XII asrlarda Buxoroda Somoniylar saroy musiqachilari erkaklar bilan bir qatorda iste'dodli ayollardan ham iborat bo'lgan. Hofizlar, sozandalar va musiqa bilimdonlari orasida ayollar o'z San'atida, hatto butun bir musiqiy maktab<sup>34</sup> yaratganlari ham ma'lum. Ular yaratgan musiqa asarlari o'ziga xos nafosat va ta'sirchanlikda inson ruhiy olamiga kuchli ta'sir ko'rsata olgan.

Amir Xusrav Dehlaviy [1253-1325] asarlariga ishlangan minatyuralarda jangga otlangan lashkarlarning ayrimlarida nog'oralar, doulsimon cholg'ular bo'lib, ular fillar ustida ma'lum musiqani ijro etib borayotganliklari tasvirlangan.

Markaziy Osiyo, ayniqsa, o'zbek va tojik xalqlari madaniyatining musiqaviy San'at ildizlari Shimoliy Hindiston bilan ham ma'lum darajada bog'liqdir. Javoharlal Neru ma'lumotiga ko'ra, Xusrav Dehlaviy ijodi, shimoliy Hindiston

<sup>30</sup> С.Б.Саидий. Марказий Осиёда урма зарбли чолгулар (ўзбек ва тожик музыка аънаналари мисолида): . /«Музыка» нашриёти.Тошкент- 2005 йил51-54 бб.

<sup>31</sup> O'sha asar.

<sup>32</sup> O'sha asar

<sup>33</sup> Хусайний Зайнулобидин Махмуд. Қонуни илми ва амали муסיқий. Ражабов А. Такия ва дастнавис.- Д.: Дониш, 1987.- 253 с.

<sup>34</sup> Неъматов Н. Давлати Самониён.- Д.: Ирфон, 1989.- 297 с.

musiqiy madaniyatida muhim o'rin egallagan<sup>3536</sup>. "Men boshqa bunday namunani bilmaymankim, bundan 600 yil muqaddam yozilgan qo'shiqlar va adabiyotlar hozirgacha saqlanmoqda<sup>37</sup>. deydi u.

Firdavsiyning "Shohnoma"sig a ishlangan minatyuralarda ham doyra jo'rligida raqsga tushayotgan va qo'shiq kuylayotgan ayollar tasvirlari ko'plab uchraydi. Ushbu asarlarda [XIV asr] musavvir Muhammad Muqim Xisrav oldida ud chalayotgan [VI asr] Borbad tasvirlangan. Asardan cholg'ularning iqqi guruhga - xonaki cholg'ular [chang, rud, qonun, surnay, nay] va «shovqinli» puflama hamda urma cholg'ular [karnay, al-tabrlar, doyra, nog'ora, gong kabilar]ga bo'linishi ham ma'lum bo'ladi. Abdul Fayz Bayhaqiy [XIV asr] asarlarida torli-mizrobli [rud, borbad, tanbur] puflama [karnay] va urma [al-tabr, nog'ora, duhul]<sup>38</sup> cholg'ularning nomlari keltirilgan.

"Boburnoma"da keltirilishicha, Shayboniyxonning Buxorodagi saroy musiqachilariga hirotlik shoir va sozanda Binoiy, mashhur mextar Sarkashlar sardorlik qilganlar.

V. Vizgo tadqiqotida ayrim cholg'ularni aniqlashda iqqilanish holatlari tez-tez uchrab turadi, ammo uning aksariyat tahlillari to'g'ri ekanligi shubhasizdir.

A.Navoiy she'riyatida Jaros tez-tez ishlatiladi.

Chun volvola chekti kuy aro tabli asos,

May ichra anga tangrikim yetar savti Jaros<sup>39</sup>.

N.Farmer o'z tadqiqotlarida Temuriylar davrida Burg'ular doim u [Amir Temur] oldida hozir bo'lgan<sup>40</sup>ligi, ushbu cholg'uning kelib chiqishi va qadimgi turkiy xalqiga xosligini ta'kidlaydi.

N.Farmer yana Ho'ja Abdul Qodir Marog'iyning ma'lumotlarini keltirib, «Chabchig'» - shoxsimon puflama cholg'u turlari hisoblanib, Markaziy Osiyoda turk xoqonligi davridan boshlab tarqala boshlagan eng qadimgi cholg'ulardan biridir. u A.Temur harbiy harakatlari<sup>41</sup>da Sohibqiron tomonidan yana o'z o'rniga ega bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.

San'atshunos olim S.Saidiy tomonidan ilk marotaba Sohibqiron Amir Temur davri harbiy cholg'ularini tasniflanishi va turlanishini bir tizimga solib, zamonaviy tasniflanish va turlanish bilan taqqoslaganda "Yirik Konssetsiya" sini yuzaga kelgan, bular:

1. **Idiofonlar:** (bir tonli shovqinli va daal-jarangsimon nomusiqiy cholular);- Jarros (charos), jon, ulla, sanj, zanjir, g'ul-g'ul.

2. **Membranafonlar:** (teri tortilgan keng tutilqinli urma zarbli cholular);- noqur, doyra, dov, daff, dapp, ko's, tabira, katta va kichik rez nog'oralar, alohida

<sup>35 35</sup> С.Б.Саидий. Марказий Осиёда урма зарбли чолғулар (ўзбек ва тожик мусика анъаналари мисолида): /«Мусика» нашриёти. Тошкент- 2005 йил 51-54 бб.

<sup>36</sup> Амир Ҳисрав Дехлавий асарларига ишланган расмлар.- Т.: Фан.- 1983

<sup>37</sup> Zachsc. The history of Musical instruments Indian. New York-London, 1968.- 133 p

<sup>38</sup> Душанбе. «Ирфон» нашр. [Ғаройиб ус-сиғар, 3 том, 573-бет]

<sup>39</sup> Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоий асарларида ишланган расмлар.- Т.: Фан, 1981.- 44 б.

<sup>40</sup> Farnet H.G. Islam. –Musikgeschichte in Bildern. –Leipzig, s.a.Bd 3. Lfg.2.- 196 p.

<sup>41</sup> Farnet H.G. Islam. –Musikgeschichte in Bildern. –Leipzig, s.a.Bd 3. Lfg.2.- 196 p.

chindoul [tulumbas], dovul, duhul [duhol], qo'shnog'oralar [katta va kichik nog'oralar], tablak, tabllar, nodir, naqkoi, kovarga [kobarka].

3. **Xordofonlar:** (xromatik sozlanuvchi musiqiy cholg'ular);- Konun, chang, tanbur, tambur-dilkash, g'ijjak, sitor, rubob, manzur, arfa [lyutna, siqor], chig'g'ak, xuchir va turli xil Afg'on va Pokistonga yaqin tojiklar cholg'usi.

4. **Aerofonlar:** (nafasli- puflama cholg'ular ), nafir, sur [tirsakki karnay qattiq qayrililgan], qoranay [hozirgi karnay], nayi-Rumiy, surnaylar turi, shon, chabchig', dunay, safednay, siyoxnay, dukat, sonfur va hokazo cholg'ularni tashkil etgan.»

5. **Zoomorfologik:** (hayvon shoxlari va suyagidan hamda dengiz tabiiy jonzodidan iborat bir tonli dag'al va keng akustikadan iborat puflama cholg'ular);- bug', burg'u, shoxfar, gong, dengiz chig'anog'i;- dan iborat birlangan.

6. **Pozoomorfologik:** (askarlar tomonidan "Gild", "donak" va "suyak"-dan tayyorlanadigan minatyura va sovg'a uchun yasalgan turli xil shakllardagi cholg'ular va multi-ansambllar);- churrak (olxo'ri donagidan tayyorlangan), bulbulcha, toycha, dev, xo'rozcha va boshqalar esa gilddan yasalgan.<sup>43</sup>

Yuqorida kursoratilgan Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrining harbiy va musiqiy cholg'ulari hamda nomusiqiy sifatlaridan iborat ilk konsepsiya, biz kutgan dolzarb ilmiy yutuqlarimizdan biri ekanligini holisona bildirmoqchimiz.

Amir Temur davridagi boy ma'naviy muhit musiqa San'atining asosiy yo'nalishlari – cholg'uchilik va ijrochilik, bastakorlar ijrosi, shuningdek, musiqa haqidagi fanning rivojlanishiga keng imkon berdi. Musiqachilarni kasbga o'rgatish bo'yicha San'atning boshqa turlarida qabul qilingan «ustoz-shogird» tizimi muttasil ishlab turardi. Bu narsa faqat Samarqandda, Amir Temur qoshidagina bo'lmay, balki uning vorislari – Shoxruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro va Boburiylar davrida Buxoro, Xiva, Hirot, Balx, Qobulda ham davom etgan<sup>44</sup>ligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

A.Jomiy 20 dan ortiq usullarni tahriflaydi va ularni yaratishda chegara yo'qligini, istagan kishi o'z usulini yaratishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ushbu an'ana XVI-XVII asrlarda Buxoro amirlari va Xiva xonliklari tomonidan davom ettirilgan bo'lib, nog'ora cholg'usi qimmatbaho sovg'a sifatida turli davlatlar rahbarlariga taqdim qilingan. Bu haqda musiqashunos T.Vizgo «Buxoro Amirlari va Xorazm xonlari» rus podsholariga matolar, quollar, tillo piyolalar qatorida musiqiy cholg'ulardan Tulumbas [nog'ora]lar sovg'a qilganliklari haqida ma'lumot beradi.

Ulug'bek davrida Buxoroning mumtoz musiqasi yanada rivojlandi. Shayboniylar davrining buyuk sozanda va musiqa nazariyotchilaridan Mavlono Najmiddin Kavkabi-Buxoriy [XVI-asr] va Darvesh Ali Changiy [XVI-XVII asrlar] o'z tadqiqotlarida mazkur cholg'u tizimi<sup>45</sup> ga o'z hissalarini qo'shganlar.

<sup>43</sup> С.Б.Саидий. Марказий Осиёда урма зарбли чолгулар (ўзбек ва тожик музыка аънавалари мисолида): . /«Музыка» нашриёти. Тошкент- 2005 йил.

<sup>44</sup> Амир Темур тузуқлари. Форсчадан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси.- Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт, 1991.– 104 б.

<sup>45</sup> Темур ва Улуғбек даври тарихи. Қомуслар бош таҳририяти.- Т., 1996.– 264 б.

Darvesh Alining «Tuhfatus-surur» risolasida usulning kelib chiqishi va ularning tasnifi masalalariga alohida bir bob bag'ishlangan bo'lib, bunda cholg'ularning amaliyoti va chuqur nazariy yechimlari, sozlanishi, nomlanishi, hatto ansambl ijrosi, ularning parda tizimlari haqida fikr yuritilgan. Uning o'zi mohir navozanda va xonanda sifatida o'z davrida mashhur bo'lgan deyarli barcha cholg'ular haqida ilmiy va amaliy izlanishlar olib borgan. Darvesh Ali, xususan, ud, rud, borbod cholg'ularining aslan bir turdan ekanligini ta'kidlab, ular tarixan har xil turli nomlanishga ega bo'lganligini isbotlaydi. Bu ma'lumotlar Darvesh Alining ushbu cholg'ularni yaxshi bilganligi, juda ko'p usullarni o'zlashtirganligi hamda urma cholg'ular ijrochisi bo'lganligidan dalolat beradi. Shuning uchun uning yuqorida qayd etilgan risolasidagi tafsilotlar mohiyati biz uchun qimmatlidir.

Darvesh Ali Changiy yirik mutafakkir sifatida Kulliyotning - oliy maqomga bog'lanishida ambiyolar siymosi va fazoviy (kosmologik) 12 falak burchlari<sup>46</sup> ga alohida risola bag'ishlaydi.

**Darvesh Ali Changiy.** Buxoroda yashab ijod etgan bu ulug' musiqashunos, San'atkor hayotining so'nggi yillari Imomqulixon zamoniga to'g'ri keladi. Uning oxirgi yirik musiqiy risolasi aynan shu Imomqulixonga bag'ishlangan. Ma'lumki, mazkur davr Movarounnahr tarixida ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgarib, ko'proq diniy xurofotga yuz tutilgan payt edi.

Madaniy-ma'rifiy sohada ham Temuriylar saltanatida oliy maqomda bo'lgan va buyuk cho'qqilarga erishgan nafis San'atlarga e'tibor kamaya boshladi. Shuning uchun Darvesh Alining musiqiy ta'limoti, davr taqozosiga ko'ra, Kavkabiynikidan boshqacharoq ehtiyojlarga qaratilganligi bilan xususiyatlanadi.

Qanday bo'lmasin, Darvesh Ali mohiyatan Temuriylar davrida yuzaga kelgan ulkan madaniy-ma'rifiy maktabning merosxo'ri. U badiyat ilmi, xususan, musiqaning nazariy va amaliy asoslarining puxta bilimdoni, hofizi Qur'on, mohir cholg'uchi va go'yanda, xoslar davrasida e'tibor topgan ustoz. Mavlono Darvesh Ali o'z oldida turgan murakkab ilmiy vazifani yuqori saviyada ado etishga muvassar bo'ldi. Uning risolasi o'z davri va hududining oliy darajadagi musiqiy qomusi bo'lib xizmat qiladi. Darvesh Ali merosini atroflicha mutolaa qilish alohida ilmiy mavzu. Biz hozirlayotgan tadqiqot nuqtai nazaridan Darvesh Ali risolasi, birinchi navbatda, maqomot ilmiga taalluqli taraflari bilan e'tiborlidir. Unda bayon etilgan mavzuga oid diniy va dunyoviy mushohadalar, ilmiy-nazariy qarashlar, hayot tajribasida pishib odat tarziga aylangan bilim va tushunchalar, avloddan avlodga o'tib kelayotgan rivoyatlar, ko'hna dunyodan meros qolgan afsonalar maqomot asoslari hamda uning uzoq va yaqin tarixini idroklashda muhim manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Marog'iyning "Maqosid al-alhon"ida musiqaning bosh omili bo'lmish nag'maning to'rtta asosiy manbai qayd etiladi. Birinchisi, hisob ilmi negizida hosil qilingan nag'malar. Ya'ni, past-balandligi sonlar nisbati bilan ifodalanadigan nag'ma birliklari. Ikkinchisi, handasa ilmi, ya'ni, cholg'u asboblaridagi torlarning

---

<sup>46</sup> Семёнов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али. [XVII век]. - Т.: Ўздавнашр, 1946. - 116 с.

uzun-qisqaligini o'ldash yo'li bilan yuzaga keltiriladigan nag'malar. Uchinchi, ilmi tahab, ya'ni, insonning irodasi va his-tuyg'ulariga (hayojon, sokinlik, qo'rquv, shijoat, g'am, shodlik va boshqalar) kabi ruxiyyotga xos muvofiq sodir bo'ladigan nag'malar. To'rtinchi, urf etilgan ilmlardan yuzaga keladigan nag'malar.<sup>46</sup>

Buxoroda XVIII asr oxirida qadimgi "O'n iqqi maqom" asosida vujudga kelgan 250 dan ziyod cholg'u va ashula namunalarini o'zida jamuljam qilgan maqomlarning muhtasham turkumi - "Shashmaqom" yaratildi.<sup>42</sup> Ayni vaqtda maqom ijrochiligi yetakchi mavqehga ega bo'lsa-da, mavrigi turkumi ham Buxoroda keng miqiyosda, asl «sozanda»lar guruhi ijrosidagi janr sifatida Buxoro musiqa San'atida muhim ahamiyat kasb etadi. Mavrigi janri kuy-ohang tuzilishi, lad, usul asoslari, ijroviy xususiyati jihatidan ham maqomlardan ajralib turadi.<sup>79</sup>

XX asrning I yarmida o'zbek ijrochiligi San'atining rivojlanishi, yangi «zarbiy» asarlarning yaratilishi mashhur sozanda Usta Olim Komilov nomi bilan bog'liq. V.Uspenskiy, V.Belyayev, N.Mironovlar o'zbek mumtoz musiqasi usullarini ilk bor Ovro'po nota yozuviga tushirganlar. Xususan, V.Uspenskiy tomonidan 1921 yil yozib olingan. Shashmaqom usullari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Ma'naviy musiqa san'atida tanqidchilik mezonlari:** Afsuski, totalitar siyosat hukmronlik qilgan yillarda xalqimizning asrlar sinovidan o'tgan, sayqal topgan milliy qadriyatlari xasdek oyoq osti qilindi. Buning oqibati barchaga ma'lum. Xalqning ma'naviy-ma'rifiy komilligi nursizlana bordi. Mutelikka moyilligi kuchaydi. Shuning uchun ham mustamlakachilar xalqlarni o'z ona tilidan, boy ziyobaxsh tarixidan, milliy qadriyatlaridan mahrum etish yo'lini tutdilar. Bu yo'lda turli g'oyalar, nazariyalar ishga solindi. Jumladan, "shaklan milliy, mazmuniy sotsialistik" madaniyat bayrog'i ostidagi harakatlar faqat milliylikni so'ndirishga xizmat qilishi kerak edi.

1901 yil 21 mayda Ichki ishlar vazirligi Diniy nazorat, departament va Bosh shtabning maslahati bilan "Musulmonlar bosh kiyimlarini qayerda kiyishi va kiyimasligi" haqida ochiqchasiga farmon chiqardi: Mana o'sha buyruqdan ko'chirma: "...hamma musulmon xalqi bosh kiyimini faqat o'zlari yashaydigan joylarda: uylaridami, ko'chalaridami, miliy kiyimlariga yarashadigan bosh kiyimlarini bemaolol kiyib yuraversinlar". Uzoq yillar davom etgan bunday noodilona siyosat xalqning milliy qadriyatlari ravnaqini og'ir oqibatlariga olib keldi. Milliy qadriyatlardan uzoqlashish oqibatida jamiyatda shunday avlod vakillari shakllandiki, ularning ko'pchiligida milliy vijdon, o'z vataniga bo'lgan muqaddas tuyg'ular xira tortib qoldi. Ayrimlarning dunyoqarashlarida Vatan istiqlolining taqdiriga loqayd va befarqlik tushunchasi ustuvorlikni egalladi.

Bunday zarbada hatto ajdodiy san'atimiz bo'lgan "Buxoro Shashmaqomi" ni ham diniyga chiqarib, uni targ'ib qilish taqiqlandi, ya'ni shog'irdlar tayyorlash,

<sup>46</sup> Мароғий Абдулқодир. Мақосид ал-алхон. Техрон, 1344/1966. –Б. 130-131.

<sup>51</sup> Шайбонийлар ва Аштархонийлар сулоласи давридаги шиддатли урушлардан сўнг Марказий Осиёда муסיкавий санъат азалий тартиблари, махаллий услублари ва барча мумтоз анъаналари тиклана бошланди.

<sup>52</sup> Аштархонийлар ҳам ўз саройларида созанда ва хонандаларни сақлаб туришар эди. Мавлоно Поянда табиб, Мавлоно Носирий, Мирзо Ҳошим ва бошқалар Боки Мухаммад Баҳодирхон [1599-1605] саройида хизмат қилишган. Аштархоний Имомқулихоннинг [1611-1642] саройида ажойиб чангчи, бастакор ва муסיқа назариётчиси Дарвеш Али фаолият кўрсатган

o'qitish, konsertlar qo'yish, massa, omma oldida chalish va ko'pchilik bo'lib jamoa tarzida yig'inmastlikka olib keldi. Shuningdek. Qadimgi cholg'ularimizdan Tanbur cholg'usini yo'qqa chiqarishga harakatlar bo'ldi. Bu demak, davlatimizni o'ldirish uchun madaniyatimizni o'ldirsa kifoya degan g'oyalar yotardi. Zero, millat tarixi, milliy g'oyada o'zlikni anglash, inson qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usining shakllanishida ajdodiy san'atimiz hisoblangan Movoraunnaxr amaliy tarixi bo'lmish sharq mo'jizasi, jumladan YUNESKIO tomonidan tan oligan jahonning eng yuqori va birinchi hamda yagona an'anaviy san'ati "Buxoro Shashmaqom"i ning bugungi o'rni beqiyos ahamiyatga ega.

Jahon musiqa merosining ulkan sarchashmasi hisoblangan Shashmaqomning YuNESKO tomondan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" deb e'tirof etilishi katta tarixiy voqea. Ota-bobolarimizdan qolgan mo'tabar musiqiy merosni nafaqat asrab-avaylash, balki kelasi avlodlarga tortiq qilish ham bugungi vazifamizdir.

Bugungi kun Estrada san'ati yo'nalishlarida teleradio va televideniye yozuvlarida chegarasiz san'atkorlar va "Zararli hasharotlar ansamlari" ga o'xshash palapartish musiqa oqimi va so'zlardagi matnlarning bir-biroviga o'xshamas- qovushmas, dag'al, g'ayri milliy o'zaklardagi kompozitsiyalar va yevropaning havastman yo ustoz ko'rmagan ansamllaridan o'rnak tarzida ham yangramoqda. Bunday musiqa san'ati orqali yoshlarni miyyasini zararlantirib kelayotgan kimsalarni yoshlar o'zlariga singdirib, ha san'atimiz shu ekan deya taxlid qilishlari ko'zlariga tashlanib bormoqda. Ayniqsa, ularning o'bro' e'tibori ham o'zlaricha oshib bormoqda. Yana bir tomoni kiyinish va saxna mahoratida ham juda ko'p tanqidchilik ko'rinishlari ham mavjud. Shuningdek, obrazlarni tassovur etishdagi pala-partish kliplarning yuzaga kelishi maydon tanlanishi va boshqalardir.

Bir – qatorda Estrada san'atidagi cholg'u yo'nalishlarida darslik va o'quv qo'llanmalarining yetishmovchiligi va tanqisligi, noyobligi natijasida sayyoz bilimni kelib chiqishiga ham misol keltirish mumkin. Bunday holatlarni "Estrada cholg'u" yo'nalishlarida uchratish mumkin. Bunga sabab, tenderlarning yuqori ta'lim darajasidagi boshqaruv tizimida boshqarayotganlarning ahamiyatsizligi, mas'uliyatsizligi va nomutaxassisligidandir.

O'zbekistonda va ko'pgina davlatlardagi o'quv tizimida musiqa maktablari 4-5 va 7 yilgacha o'qitadi, so'ngi bosqichida esa 3 yillik kollej, akademik litseylar va 4-6 yillik konservatoriya yo'nalishlari kiradi. Hammasi bo'lib 14 yillik o'quv tizimini o'z ichiga olgan bo'lib, ayrim yo'nalishlarda bir necha yillar davomida hali- beri darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilmagan. Ammo, kadrlarni qalbaki "qori –azyod" yo'llari orqali yetishtirib kelmoqdalar.

Yana, musiqaning ayrim boshqa sohalarida esa yuzi har-xil ammo, ichini olib qaraganda bir-xil dastur va asarlardan iboratligiga amin bo'lasiz. Bu esa davlatimizga iqtisodiy jihatdan ham salbiy ko'rsatgichni bildiradi.

Qalbaki ishlarning mualliflari esa o'z manfaatlarini o'ylab ayyorlik, hiyla, vijdonsizlik, tumnat qobig'iga tushganidek, boshqasiga yo halol mehnat va ijodga yaramastligidan dalolat beradi. Bunday kimsalar katta unvon va mansabga o'ch bo'lib, kelajagimizning zararkunandasi deyish ham mumkin. Bulardan faqat o'ziga

xos va most kadrlar chiqishi mumkin. Bir-qatorda ularning nomlari ham uzoqqa bormaydi va tez orada unutiladi deyish maqsadga muvofiqdir. Sababi professional yo'ldan o'tmagan o'quvchi yoshlar yo talabalar ha!, o'qish shunday ekan-da!?! , deya xulasa qilmaydilar!!!.

Yuqoridagi kamchiliklar va tanqidchiliklardan xulosa qilib aytganda, har bir masalada o'zlik maqomida halollik yo'li orqali erishmoq darkor deyish o'rinlidir!.

**Birinchi bob bo'yicha xulosalar:** Umuman, axloq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan kishi. Vatan tuyg'usidan ham bebahra bo'lmaydi. Ayni chog'da bunday inson so'zsiz umuminsoniy qadriyatlarni ehzozlay oladi. Bas, shunday ekan, yoshlarni milliy qadriyatlarga beqiyos hurmat, Vatanga fidoyilikni tarbiyalamoq ta'lim-tarbiya sohasidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Shuningdek, musiqaning ma'naviy-ma'rifiy ko'lamida Vatanimizning turli orf-odatlarini, to'mosho, bayramlar, ko'rik tanlivlar va festivallarning tashkil etilishida ularning o'zini muhim ahamiyatga molikdir. Bunday yangi va ragbarang ijrolarda musiqiy cholg'ular va she'riyatlarining qo'shiqqa aylanib inson tarbiya vositasidagi tutgan o'zini beqiyos va cheksizdir.

Dostonchilik Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarida tarqalgan bo'lib, do'mbira jo'rli va kuyi registrli bo'g'iq ovozda kuylanadi. Xorazm vohasida esa dutor, tor yoki cholg'u ansambli jo'rli ovozda ijro etiladi. Xalq orasida "Go'r o'g'li", "Alpomish", "Avazxon", "Kuntug'mish", "Ravshan va Zulxumor", "Oshiq g'arib va Shoxsanam" kabi dostonlar mashhurdir. Ergash jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, ijrochilari va ijodkorlari xalqimiz orasida mashhurdir. Shuni qayd etish lozim ko'rinadi, san'atda turli musiqiy oqimlar ham kirib keldi va o'z navbatida ayrim xossalar yevropa yo tashqi musiqiy didlardan nafas olib, ularga taqlid qilib, qo'shiq kuylash tasniifi ham kashf etib borildi. Ya'ni, musiqa chetniki, so'zlari o'zbek yo rus tillarda va dizayn uslublari ham ajnaviy holatda , palapartish va mutlaq bema'niy nomadaniy deyish ham mumkin. Bunday Estrada ansambli ijrochilarini ustoz ko'rmagan "Zararli hasharotlar ansambli" , deyish o'rinlidir.

## **II-BOB**

### **YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA MUSIQA VA ADABIYOT QUDRATLI OMIL SIFATIDA**

#### **2.1-§. Musiqaning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati**

O'zbek xalqi juda qadimiy va boy madaniy-ma'naviy qadriyatlarga ega. Milliy ma'naviyatimizning asl ildizlari, tomirlari qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi.

Milliy ma'naviyatimiz shakllanishi va takomillashuvida o'zbek xalqining asrlar va ming yillar davomida yaratgan, ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, sayqal berib, boyitib kelgan mazmunan boy va shaklan xilma-xil og'zaki ijodiyoti tag

zamin bo'lib xizmat qildi. Boshqacha aytganda, xalq og'zaki ijodiyoti milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas xazinasidir. U o'zining boshlang'ich asosini qadimiy mifologiyadan, xalq ijodidan olgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, xikmatlar, qayroqi so'zlar, topishmoqdar, to'y va aza qo'shiqlari, laparlar, o'yinlar, teatrlar, musiqa, o'lanlar va termalarni, aytimlar, olqish va qarg'ishlarni ham o'z ichiga oladi. Xalq ijodiyotining bu qadar keng va xilma-xilligi o'zbek xalqiniig ma'naviyati, dunyoqarashi, tafakkurlash madaniyati naqadar boyligi va qadimiyligidan dalolatdir.

Bebaho ma'naviy boylik bo'lmish og'zaki ijodiyotning ham, yozma ijodiyotning ham yaratuvchisi-ijodkori, asrlardan-asrlarga avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tkazib pardoqlovchisi va keng xalq ommasidir.

Prezident “Xalq-o'zining ming yillik an'ana va tajribalari, so'nmas xotirasi va buyuk tuyg'ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch. Yolg'onga, aldovga duch kelgan paytda, uning asriy qadriyatlarini, doimo uyg'oq vijdoni tilga kiradi, nohaqlikka, qabihlikka qarshi kurashga dahvat etadi”<sup>63</sup>, -deydi.

Xalqning orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, shodlik, baxtiyorlik onlariyu, qadr-qiyamati, ma'naviy-axloqiy g'oyalari, dunyoqarashi, falsafiy- huquqiy tushuncha va tasavvurlari, olam haqidagi bilim-boyliklari uning og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti-o'tmish davrlar va uning ijodkorlari xaqida ma'lumot beruvchi ma'naviy boylik, xalq dahosining ko'zgusi, hikmatlar xazinasidir.

Og'zaki ijodiyotning jamiki boyliklari, bebaho asarlari, odobnoma va odatnomasi, hikmatlariyu afsona va rivoyatlari “xalq ko'nglidagi qayg'u - hasrat va shodlikning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning diniy va falsafiy kitobi”<sup>64</sup> dir.

Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha javohirday asrab, avaylab, sayqal berib, dilida, tilida iymon-e'tiqodla saqlab kelmayotgan birorta xalq yo'q. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, uning dunyoga kelishi, rivojlanishi, o'tmishda ro'y bergan voqea-hodisa va jarayonlarni badiiy, falsafiy aks ettirishi, ildiz-ildizlari bilan real voqeliqqa bog'liqligi haqida ham shunday deyish mumkin.

O'zbek xalqi jahondagi barcha xalqlar kabi moddiy boyliklarningina emas, ma'naviy boyliklarning ham asoschisidir. U o'zining peshona teri, tafakkur quvvati, qobiliyati va iste'dodi bilan asrlar osha tarix ijodkori sifatida madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, falsafiy, huquqiy taraqqiyotga keng imkoniyatlar yaratdi. Uning og'zaki ijodiyot borasidagi hal qiluvchilik roli bebahodir. Inson ruhiy-ma'naviy olamini o'ziga xos tarzda ifodalaydigan, voqelikning badiiy inhikosi bo'lgan dostonlar va ertaklarning, maqollar va matallarning, bahodirlar, qahramonlar haqidagi go'zal rivoyat va afsonalarning, sehvlovchi kuch va mo'jizakor ta'sirga ega bo'lgan kuylar, g'azallar, aruzlar, baytlarning, kishilarga ezgulikdan, odob –axloqdan, iymonu e'tiqoddan yo'l-yo'riq, hayotiy saboq beradigan hikmatlar, pandnomalar va zarbulmasallarning, falsafiy o'git va

<sup>63</sup> Ислом Кяримов. О:зод ва обод Ватан. эркин ва фаровон хаёт - пировард мақсадимиз 8-жилд. Т., «Ўзбекистон». 2000, 507-бет.

<sup>64</sup> Лафарг. Очерки истории культуры. Москва, 1926, стр.51

dasturlarning, xullasi kalom, og'zaki ijodiyot hamma shakllari va turlarining asoschilaridan biri-o'zbek xalqidir.

Mamlakatimiz Yo'l boshchisi "Fidokor" gazetasi muhbiri savollariga bergan javoblarida "Xalqning shuurida hamisha, har qanday sharoitda ham buyuk orzular, ezgu niyatlar, kelajakka, yorug' kunlarga ishonch yashab keladi. Ana shu ishonch bo'lmasa, mazlum xalqning ozodlik va mustaqillik sari intilishi va oxir-oqibatda yuksak taraqqiyotga erishishi mutlaqo imkoniyatsiz bo'lardi", deb ta'kidladi.

Xalq-dahodir, xalq-kuchdir. Donolar donosi ham xalqning o'zidir. Xalq barcha davrlar va zamonlardagi moddiy boyliklar-ming, bitmas-tuganmas ma'naviy javohirotlarning ham yaratuvchisidir. U jamiiki boyliklar ichida eng buyugi, behahosi-jahon madaniyati tarixiii yaratgan, yangidan-yangi g'oyalar bilan uni boyitgan, yangi tarixiy sharoitlarga muvofiqlashtirgan qudratli kuchdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodining namoyon bo'lish shakllari, muhim janrlaridan bo'lgan ertaklar, rivoyatlar, dostonlar va asotirlarni o'qir ekanmiz, xalqimizda voqealarni oldindan ko'ra biluvchi ajoyib tafakkur, bashoratgo'ylik qobiliyati va iste'dodi bor ekanligini, u hech orzu-niyatsiz yashamaganligini, har doim istiqbol sari intilganligini bilib, chuqur anglab olamiz.

Og'zaki ijodning, uning tarkibiy qismi bo'lmish ertak va afsonalarning, xalq tafakkuri boyligining har qanday turi, ma'nosi zamirida ularning ijodkori bo'lgan xalq ommasining muayyan maqsad va niyatlari, jismoniy mehnatni yengillashtirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlarni yashirib yotgan bo'ladi. Ular xalq ommasining talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelish bilan bir qatorda, o'z navbatida uning o'zi kishilarning ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga turtki vazifasini ham o'tagan, odamlarni ahillikka, hamkorlikka, do'st-birodarlikka, jamoa bo'lib yashashga mehr-oqibatli bo'lishga o'rgatgan. Ish unumini oshishiga, tabiatning xatarli kuchlariga ta'sir etishda odamzotga yordam bergan.

Xalq og'zaki ijodiyoti inson hayotiy jarayonlarini, odamlarning bir- birlariga bo'lgan o'zaro munosabatlarini tabiat bilan aloqadorligini mohiyatan badiiy ifodalash bilan bir qatorda, mehnat mashaqqatlarini yengillashtirishga hordiq chiqarishga, kishilarni mehnatga ko'niktirish va o'rgatishga ko'maklashgan.

Og'zaki ijodiyotning maqol, matal, naql, zarbulmasal hikmatli so'z, ibora, ta'bir, aforizm, qo'shiq va boshqa janrlarining, raqs va kuy- ohanglarning yuzaga kelish va rivojlanishini xalq tarixidan, xalqning kundalik hayoti mehnat jarayoni, ajdodlarimizning o'tmish hayotlari bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lidan ajratib, ayribcha tasavvur etib bo'lmaydi. Xalq shehriyati, xalq qo'shiqlari, umuman og'zaki ijodi uning tarixi bilan, mehnati jarayoni bilan uzviy aloqadorlikda, zaruriy bog'lanishlardadir.

"O'zbek xalq og'zaki poetik ijodining qadimiy namunalari mehnat va mavsum-marosim qo'shiqlaridir. Ular qo'shiq yaratuvchilarning amaliy faoliyati-ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bevosita bog'langan va mehnatkash ommaning qadimiy urf-odatlarini, xilma-xil marosimlari va e'tiqodlari negizida yashab kelgan. Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda "Xo'p xayda" yoki "mayda gul", sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi, uloqlarni emizishda "xo'sh-xo'sh", "turey-turey" "churey-churey" qo'shiqlari kuylangan. Yer haydash, o'rim,

yorg'uchoq tortish, charx yigirish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash va hayot kechirish tarzi, turli-tuman irimlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p folg'klor namunalari yaratilgan"<sup>65</sup>

Og'zaki ijodiyotda, jumladan, musiqa va qo'shiqlarda ham xalqning ruhiyati, yuksak tuyg'ulari, pok sevgisi, orzu-armonlari, ijtimoiy ahvoli mujassamlashgandir. Xalq og'zaki ijodini, jumladan, qo'shiqlarini bilmay turib mehnatkash ommaning tarixini, kamolot yo'lini idrok etish qiyin.

O'zbek xalqi azal-azaldan sho'x raqslarni, maftunkor, dilrabo, yoqimli kuy-ohanglar va qo'shiqlarni jon-dildan sevgan, shodlik kunlarida ham, g'am-anduhli chog'larida ham kuylagan, ular bilan o'zini ovuntirgan, taskin topgan, ruhiy quvvat olgani haqida "Avesto", Urxun-Yenisey yodgorliklari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Mezonul-avzon" singari shoh asarlari guvohlik beradi.

Musiqa, kuy va qo'shiqlar xalq hayoti bilan shu qadar yaqinlashib, qo'shib ketganki, odamlar o'z hayotlari, turmush tarzlari va borlikni ularsiz tasavvur etolmagan. Musiqasiz, qo'shiqsiz hayot- hayot hisoblanmagan.

Musiqa va qo'shiqning inson hayotida bu qadar o'rin olishi, uzoq yashashi, o'tmishdan kelajaqqa tomon o'tgan sari sayqal topib borishining muayyan sabablari bor, albatta. Chunki qo'shiq, aytib o'tganimizdek, insonni mehnat qilishga, qiyinchiliklarni yengishga, ruhan tetik-bardam bo'lishga, do'stlarga vafodorlik, dushmanlarga shafqatsiz bo'lishga undaydi. Kindik qoni to'kilgan ona-Vatanni sevishga da'vat etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, har bir inson o'z hayotini shod-hurramlikda o'tkazishga harakat qiladi. Bu masalada unga qo'shiq aytish, raqsga tushish, kuy tinglash, askiyachilarning o'tkir san'ati, qiziqchilar, dorbozlar, qo'g'irchoqbozlar tomoshasi katta yordam bergan.

Ashula aytish va eshitish, raqsga tushish, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy hordiq chiqarish og'ir jismoniy mehnatni yengillashtiradigan vosita ekanligini, odamlar o'z tajribalarida bir necha bor sinab ko'rganlar. Kishilar kun bo'yi qilgan mehnatdan hosil bo'lgan charchash, toliqish, horg'inlikni musiqa, qo'shiq va raqslar yordami bilan yo'qotishga ehtiyoj sezganlar. Yengil, sho'x harakatlar insonni jismoniy jihatdan baquvvat, ruhan tetik va bardam bo'lishiga, kayfiyatini yaxshilashga, zavq-shavqini oshirishga yordam bergan.

O'zbek xalqining "Xo'p hayda", "Dali daryo", "Ayrildim", "Munojot", "Bayot", "Ushshoq", "Qora ko'zim", singari uzoq tarixga ega bo'lgan qo'shiqlari, "Ro'moli", "Ayajon", "Yor-yor", "O'lan", "Alla" kabi lirikasi, "Olma deb otgan otam", "Farang ro'mol boshimda", "Bog' aylanib chiy tutdim", "Gulni gul dermu kishi", "Qoshi qaro barno yigit" nomli shingil qo'shiqlari o'zining latofati, jozibador ta'siri bilan kishiga olam-olam huzur bag'ishlaydi. Bunday qo'shiqlar insonni hech qachon zeriktirmaydi. Ular kishiga butun bir yuksak tuyg'ular, ajoyib g'oyalar olamini ochib beradi. Odamlarning ma'naviy jihatdan boy va barkamol qiladi. Xalqchil musiqa tufayli inson o'zida yangi, ilgari sezilmagan kuchlar topadi, hayot o'zgacha zavq va mexr bilan sevadi, degan g'oyani tiniqlashtiradi.

<sup>65</sup> Ўзбекистон Республикаси. Энциклопедия. Т., Қомуслар бош тахририяти, 1997, 513-бет.

Xalq og'zaki ijodiyotining durdonasi hisoblangan qadimgi milliy musiqaning ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini Sharqda fan allaqachon isbotlagan. Abu Ali ibn Sino inson ruhiy-ma'naviy kamolotida musiqaning tarbiyaviy roli va ahamiyati beqiyosligini ilmiy isbotlab "Qonun" nomli kitobida shunday degan edi; "...bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsa ko'llamoq kerak. Biri bolani sekin-asta tebratish, iqqinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu iqqisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi"<sup>66</sup>.

Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri, inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati haqida fikr yuritib Farobiy "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" degan mashhur asarida shunday deydi: "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammalliqqa yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi, Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va o'z substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi"<sup>67</sup>.

Musiqa va ashula San'atining kishilarga zavq-shavq bag'ishlovchi kuchga ega ekanligini hazrat Alisher Navoiyning mutrib va mug'aniylar haqidagi quyidagi hikmatomuz so'zlaridan bilib olsa bo'ladi: "Shodlik oshiruvchi xonanda: g'amni tarqatuvchi sozanda - bularning har iqqisiga hissiyotga berilgan kishilar va axli dardlar jon fido qiladilar. Modomiki, ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchining naqd hayoti unga fido bo'lsa ne g'am? Axir, ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi. Yoqimli ovozu mahorat bilai kuylaydigan xonandadan dard ahlining o'ti yana alangalanadi. Agar go'zal bo'lsa, hissiyot ahlining o'rtasida qiyomat ko'tariladi. Har bir sozandaning kuyi dardliroq ijro etilsa, uining chertishi dardli yurakka qattiqroq ta'sir qiladi. Ochiq chehrali xonanda yoqimli ovoz bilan kuylasa, dardli odamning kuygan bag'ridan tutun chiqaradi. Fahm-farosatli sozandaning yoqimli ijrosi hatto toshko'ngil odamni ham maftun qiladi. Xususan, o'zi chalib, o'zi kuylasa, ko'ngil mulkiga qo'zg'olon soladi."<sup>68</sup>

Navoiy musiqa va ashula San'atini, uning ishtirokchi va ijodkorlarini ta'rif va tafsiv etib qolmasdan, balki uning estetik va ijtimoiy-tarbiyaviy qimmatini, inson ko'nglini ko'tarish va ruhini o'stirishdagi ahamiyatini ham alohida ta'kidlagan.

Inson kuy va qo'shiq tinglar ekan o'zini-o'zi chuqur idroklaydi, o'ziining insonligini, mohiyatida go'zalliqqa intilish, moyillik, ustuvorlik qilishini, go'zal bo'lish uchun tug'ilganligini ham anglab yetadi. Qo'shiq va musiqa insonni o'zida mavjud bo'lgan qandaydir illatlar, qusurlarni sezishga ham yordam beradi. Xullasi kalom, musiqa va qo'shiq insonning hayotdagi, faoliyat jarayonidagi beg'araz ulfati, yo'ldoshidir.

<sup>66</sup> Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. Т., 1959, 173-бет.

<sup>67</sup> Абу Наср Форобий. Рисолалар. Т.. "Фан". 1975, 51-52-бетлар.

<sup>68</sup> Алишер Навоий. Маҳбуб ул-кулуб. Т., Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт на санъат нашриёти. 1983, 29-бет.

Xalqimizning qadimiy tarixini, madaniyati, dunyoqarashini, o'y-fikrlari, orzuniyatlarini, o'tmishda boshidan kechirgan nolayu fig'onini, yuragidagi dardu hasratini, uning tomonidan yaratilgan og'zaki ijodiyotga, diniy, axloqiy, badiiy, falsafiy, psixologik differensial harakatlari va huquqiy qarashlari, qo'shiq va musiqasiga qarab payqash mumkin.

Og'zaki ijodiyotning barcha janrlarida bo'lganidek, musiqada ham, qo'shiqda ham xalq ommasining hayoti o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Qo'shiqlar, ertaklar, termalar, dostonlar, barcha folklor asarlari xalqimizning o'tmish zamonlarda boshdan kechirgan yaxshi-yomon kunlarini, g'am-tashvishu shodliklarini u yoki bu darajada badiiy ifodalaydi.

Abdulla Oripovning "Munojatni tinglab" she'ridan ko'rinib turganidek, xalq og'zaki ijodining har bir janrida vatanparvarlik, hamjihatlik, mardlik va jasorat, kasb-hunar egallashga dahvat, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, poklik, do'stlik, sharm-hayo, or-nomus, kamtarlik, fidoiylik kabi ma'naviy-axloqiy xislat va fazilatlar o'zining badiiy-ma'rifiy ifodasini topgan. Eng muhimi shundaki, ularda yuksak insoniy fazilatlarga da'vat, ulug'lar pandiga, ajdodlar sabog'iga e'tibor berishga undash ustuvorlik qiladi.

Miflar Turonzamin xalqlari og'zaki ijodining eng qadimgi turlaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Miflar - asotirlarning vujudga kelishi moziyga - ajdodlarimiz taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Miflar qadimgi kishilarning baxt va farovonlikka, salomatlik va bardamlikka intilishlarining ifodasi sifatida vujudga kelgan.

Yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurash va bu kurashlarda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oya, qadimgi yunon, bobil, eron mifologiyasida bo'lgani kabi Turonzaminda vujudga kelgan miflar uchun ham xosdir.

Miflarda aytilishicha, yaxshilik va yomonlik olami bor. Yaxshilik olamiga Axuramazda, yomonlik olamiga esa Ahriman boshchilik qiladi. Baxt va baxtsizlik, hayot va mamot, mo'l-ko'lchilik, ochlik-qahatchilik shu ikki kuch o'rtasida kurash va uning oqibatlariga bog'liq. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi kurashda quyosh xudosi Mitra, Yer va unumdorlik mahbudasi Anaxita, birinchi inson Kayumars, Yima (Jamshid), Gershaps va shu bilan birga, qorong'ilik va baxtsizlik timsoli bo'lmish Ahriman dev, ajdar, jin va boshqalar bilan bog'liq miflarda mujassamlanadi. Ajdar, dev, jin va boshqalar har qanday yomonlik, yovuzlik, qabohatning timsollari sifatida gavdalanuvchi simvolik obrazlardir.<sup>66</sup>

O'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida xalqning turmush tarzi, odo-axloqi, urf-odatlarini, marosimlari, an'analari, diniy e'tiqodlari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo'lidagi mardonavor kurashlari, sevgi-muhabbatga sadoqatlari, kelajaqqa ishonchlari, ma'naviy -axloqiy qadriyatlarini yaqqol ifodalangan. Bu masalada qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodi tizimida To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush singari otashin vatanparvar va fidokorlar obrazini badiiy ifodalagan qaxramonlik eposlari muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>66</sup> Қаранг: Н.Маллаев. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. Т., Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 92-94-бетлар.

Qahramonlik eposlarining, ertaklar, rivoyat va afsonalarning falsafiy mohiyatini belgilaydigan, ularning asosiy negizini tashkil etadigan umumiy g'oyainson uchun jondan aziz hisoblangan muqaddas dargoh- Vatanning istiqloli, erki va mustaqilligi uchun ajnabiy dushmanlarga qarshi murosasiz kurashdir. Qadim Turon xalqlarining Eron ahmoniylari bosqiniga qarshi kurashini badiiy aks ettiruvchi To'maris va Shiroq to'g'risidagi rivoyatlar mohiyatidagi bosh g'oyaviy konsepsiya- vatanparvarlikdir.

Erk tuyg'usi, vatanparvarlik hissi, elu-yurt taqdiri va istiqboli ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketganligi "Shiroq" to'g'risidagi rivoyatda ham o'zining chuqur ifodasini topgan.

"Alpomish" dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rtonini qo'riklashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.<sup>67</sup>

Necha-necha ming yillar davomida yaratilib, gavharday asrab-avaylab, boyitib, bizning zamongacha yetib kelgan hikmatlar, maqol va matallar, ertaklar va aforizmlar ajdodlarimiz badiiy dahosining bebaho yodgorliklari, o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir. Ularning har biri ajdodlarimiz aql-idroki na tafakkuri, odob-axloqi, ma'naviyati, bilim boyliklari, hayotiy tajribalari va sabokdarining lo'nda, ixcham, qisqa xulosasidir. Xalq maqollari, matallar, aforizmlar, hikoyalar, hikmatlar falsafiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, huquqiy ahamiyat kasb etadigan g'oyat muraqqab hodisa va jarayonlar mohiyatini ochishda muhim o'rin tutadi.

Xalq donoligi-donishmandligining javohirlari bo'lgan hikmatlarda inson va uning ma'naviy dunyosi aks etadi. Ular odamzodga dunyodagi tirik mavjudotlarning gultoji bo'lgan inson va insoniylik haqida saboq beradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida, uning barcha janrlarida dunyoning azizu mukarram xilqati, hayot gultoji, jonzotlar ichra sarvari insonni ulug'lash yetakchi o'rin tutadi. "Inson jamiyki jonli-jonsiz mavjudotlardan eng ulug'i, mukarrami va azizu mo'tabaridir. Zeroki, hamma narsa-kichik giyohdan tortib ulkan daryolargacha, oddiy urug'dan tortib, barcha noz-ne'matgacha Alloh tomonidan inson uchun yaratilgan. Ha, odam, odamiylik qadr-qimmatini kabi so'zlarning ma'nosi ufqday, ummonday cheksiz azim tog'lar cho'qqisiday yuksak! Shuning uchun ham xalqimizning o'ziga xos odob, axloq qomusi – an'anaviy pandnomasida qayta-qayta ta'kidlanganidek, inson nomi, qadri, sha'ni-sharafi, nomus-ori uning o'zidan ham baland, hayotidan ham yuksakrokdir. Buni yaxshi anglab olish, insonlik nomini pok saqlash, sha'ni-sharafi uchun astoydil kurashish, insonlik izzat-nafsigacha zarracha bo'lsa-da g'ubor yuqtirmaslik uchun harakat qilish har bir katta-kichikning iymoniy burchi bo'lmog'i lozim".<sup>68</sup>

<sup>67</sup> Ислом Каримов. "Алпомиш" дostonининг 1000 йилигига бағишланган тантанали мнросимда сўманган нутк. "Халқ сўзи", 1999 йил, 9 ноябр.

<sup>68</sup> Малик Муродов. Ўзбек кадриятлари. Т., "Чўлпон" нашриёти, 1995. 226-бет.

Har bir hikmat - bitmas-tuganmas xazina, javohirlar konidir. Inson mol-dunyo, pul sarflab topa olmaydigan ma'naviy-axloqiy boylikka hikmatlar tufayli ega buladi.

Xalq og'zaki ijodining gultoji, ma'naviy-axloqiy boyligining durdonasi, qaymog'i bo'lgan hikmatlarda asriy hayotiy tajribalar, odamlarning orzu-o'ylari, his-tuyg'ulari o'zining falsafiy, badiiy-huquqiy ifodasini topgan. Hikmatlar tufayli insonlar o'tmish ajdodlari bilan hamnafas bo'ladi, ularning o'gitlari, pandunasihatlari, chaqiriqlari, ogohlantirishlari zamirida qanday falsafiy g'oya, ma'naviyat saboqlari yotganligini idrok etadi, ulardan o'zi uchun muhim hayotiy xulosalar chiqarib oladi. "Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlar sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir.

Har bir hikmatli so'zlar, maqollar - noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste'dodining masofa bilmas shug'lalari, zulm, adolat, haqsizlik ko'ksiga sanchiluvchi adolat tig'idir. Hikmatli so'zlar, maqollar - hech bir podsho e'lon qilmagan, hech bir Prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan Konstitutsiyadir.<sup>69</sup>

Xalq ogzaki ijodiyotining o'ziga xos janrlari bo'lgan maqol, matal, naql, hikmatli so'zlar va iboralarda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayot masalalarigacha o'z inhiqosini topgan. Ularning qaysi birini olib ko'rmaylik, har birining mag'izida xalqning asriy hayoti, tarixiy taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, milliy urf-odatlar, an'analari, madaniyati, ma'naviyati, fe'l-atvori, dunyoqarashi ifodalanganini ko'ramiz.

Xalq ijodiyoti inson ma'naviyati va tafakkuri mahsuli sifatida odamning aqliga aql qo'shadi, bilim saviyasini boyitadi va chuqurlashtiradi, zehni o'tkirlashtiradi, to'g'ri, rostgo'y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishga o'rgatadi, eng yaxshi insoniy fazilatlarini targ'ib etadi. Xalq hikmatlari, maqol va masallari zamirida insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvorlik qiladi. Mehnatga, el-yurtga muhabbat, poklik, halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, saxiylik kabi insoniy sifat va xislatlar targ'ib qilinadi, dilozorlik, xudbinlik, manmanlik, takabburlik singari salbiy xislatlar qoralanadi. Xalq maqollarida aytilishicha, "Baxilning bog'i ko'karmas", "Bermasning oshi pishmas", "Gadoyning xurjuni to'lsa ham, ko'zi to'yimas", "Nafsi yomon hayitda o'lar", "Saxiy topsa barcha yer, baxil topsa bosib yer", "Suq to'yimas, o'g'ri boyimas".<sup>70</sup>

Asrlar, zamonlar osha hozirgi avlod kishilariga yetib kelgan hikmatlar, maqollar, donishmandlar o'gitlarida, jumladan, o'zbek xalqining sharqona ma'naviy-axloqiy qadriyatlarida kishi haqiga xiyonat qilish, poklik yo'lidan chiqib,

---

<sup>69</sup> Эркин Вохидов. Ўз қадрини билган сўз қадрини билар. - Ш.Шомақсудов, Ш.Шорахмедов. Ҳикматнома. Т., 1990, 5-бет.

<sup>70</sup> Оз-оз ўрганиб доно булур. Донишмандлар бисотидан ҳикматлар, масаллар. Т., Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982, 35-бет.

nopoklik iziga tushib ketish, insofu diyonatni nafi uchun qurbon qilish ma'naviy tubanlik hisoblanadi.

Ogohlantirilishicha, nopok, qing'ir-qiyshiq, g'irromlik yo'li bilan topilgan boylik hech kimga vafo qilmagan, qilmaydi ham. Harom halolni surib ketadi, borini yo'q qiladi. Agar odam halollikdan yuz o'girib, nopoklik ko'chasiga kirib ketsa, undan ko'radigan kulfatini hisob-kitob qilolmay qoladi. Nopoklik - tubsiz jar sifatida insonni yuqoridan pastga tortadi.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan hikmatlar, donishmandlar pand-nasixatlari va o'g'itlari, maqollar va matallar, ertaklar va dostonlardagi ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy mazmundagi axloqiy g'oya va qoidalar hozirgi avlod uchun bamisoli dono muallim, murabbiy, ustod vazifasini o'taydi. Ularda ta'kidlanganidek, ochiq yuzli, xushxulqli, odob-axloqli odam farosat sohibi bo'ladi. Shunday go'zal sifatlarga ega bo'lgan oddiy bir odam bilan hamsuhbat bo'lish - yomon xulqli, qo'rs olim bilan hamsuhbat bo'lishdan ko'ra yaxshiroqdir. O'zidan katta, tajribali, bilimdon kishilar bilan maslahat qilmay ish boshlagan odam manfaat ko'rmaydi. Aqli-hushi joyida bo'lgan odam xalq bilan do'stona yashaydi. Xalq bilan chiqishmagan odam rohat yuzini ko'ra olmaydi.

Sharqning o'git va hikmatlari, donishnomalari, qobusnomalari, pandnomalari va tuzuklari ezgulik qilish, inson hayotining mazmuni va mezoni ekanligi haqida kishilarni yo'l-yo'riq va qoidalardan ogoh etadi. O'n narsa - to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishlash, halol, pok mehnat qilish, hammaga insof, adolat bilan muomala qilish, nafs orzulariga ortiqcha berilmaslik, olimu fozillar bilan suhbatlashish, ular suhbatidan baxramand bo'lish, kattalarning izzat-hurmatlarini bajo keltirish, kichiklarga shafqatli, marhamatli bo'lish, chin va samimiy do'stlik, muhtojlarga yordam etish va ularga in'om-ehson qilishni unutmastlik, nodonlarga nasihat etish ezgulik manbaidir.<sup>70</sup>

Hikmatli so'zlar, maqollarni diqqat-e'tibor bilan o'rgansak, ularda xalqimizning yaxshilikka yaxshilik har kishining ishidir, yomonlikka yaxshilik esa faqat mardning ishidir, degan dono o'g'itlari o'zining chuqur ifodasini topganligi va mazmuniga singdirib yuborilganligiga ishonch hosil qilamiz. Buni "Er kishining ishi" nomli o'zbek xalq ertagidagi g'oyalar misolida ko'rishimiz mumkin. Qadim zamonda bir viloyat boshlig'i olim va fozil bir kishini tuhmat tufayli qamoqqa olib, ko'p azoblar beradi. Bir yilgacha o'z huzuriga keltirib, yuz marta kaltaklab azoblaydi. Bir yildan keyin vaziyat batamom o'zgarib, o'sha zolim boshliq o'rniga haligi olim viloyat boshlig'i bo'lib qoladi. Odamlar olim kishi endi zolim boshliqdan intiqom olsa kerak, deb o'ylaydilar. Lekin ish odamlar o'ylaganlaricha bo'lmaydi. Yangi boshliq eski boshliqni o'z huzuriga keltirib unga ko'p iltifotlar ko'rsatadi, sarpolar kiygizadi. Xazinachini chaqirib olib, har kun yuz marta urgan kaltagining har biriga bir tangadan yuz tanga berishga va buni har kuni davom ettirishga buyuradi. Oradan bir qancha vaqt o'tganidan keyin, oldingi boshliq juda ham hijolat chekib, vijdon azobida qiynalib qatl qilishlarini talab etadi. Yangi boshliq bir yil mobaynida badaniga urilgan kaltak zarbidan to'kilgan badan

---

<sup>70</sup> Oz-oz ũrganiб dono булуr. Донишмандлар бисотидан хикматлар, масаллар. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982, 35-бет.

po'stlarini yig'ib qo'ygan edi. Avvalgi boshliqning iltimosini eshitgach, o'sha po'stlarni keltirib taroziga tortishga buyuradi. Po'stlar anchagina og'irlikda edi. Avvalgi boshliqqa shu po'stlar og'irligi miqdorida oltin berishga buyurib:

Yomonlik qilganga yomonlik qilish oson, lekin men yaxshilik qilish istayman. Bu oltinlarni olsin va o'zining kimligini bilsin! - dedi.<sup>71</sup>

Bu hikoyada, birinchidan, yomonliqqa yaxshilik qilish hammaning emas, balki mard insonlarninggina qo'lidan kelishi tag'kidlangan bo'lsa, iqqinchidan, yomonlik va yovuzlik qattiq qoralanadi.

Ezgulik qilish-yuksak ma'naviyatdir. Odam shaxsiy foydasini ko'zlab emas, inson bo'lganligi uchun ezgulik qilishi, kishilarni egri yo'ldan foydali nasihatlar bilan to'g'ri yo'lga boshlashi, yomonlikdan qaytarishi maqsadga muvofikdir. Yaxshilik qilishning, ezgulikning xosiyati, ahamiyati, inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati haqida o'zbek xalq maqollarida behisob darajada ko'p ajoyib g'oyalar bayon etilgan. Ota-bobolarimiz yaxshilik qilganlarga undan ham oshirib yaxshilik qilish lozimligini uqtirib, chin insoniyliqqa dahvat etganlar.

Bir donishmanddan: "Nimani esda saqlab qolib, nimani unutmoq kerak?",- deb so'zlabdilar. U: "Agar kishilar senga yaxshilik qilgan bo'lsalar - ularni unutma, agar sen birovga yaxshilik qilgan bo'lsang – unut"<sup>72</sup> — deb javob beribdi.

O'zbek xalq maqollarida inson har doim vahdasiga vafodor bo'lmog'i zarurligi, birovga berilgan va'daning ustidan chiqmaslik-nomardlik va subutsizlik ekanligi qayd etilgan.

Hikmatlar, maqollar va matallar, ertaklar va dostonlarning hammasida inson naqadar ulug' zot ekanligini, olamning obod va go'zalligi uning aql-idroki, tafakkuri, amaliy faoliyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Aytilganidek, inson qo'li gul, ya'ni, u har narsaga, hatto iloji yo'q, deb hisoblangan qiyin va mushkul ishlarga ham qodir, uning qo'li tekkan narsa, qadami yetgan joy gullab-yashnaydi.

O'zbek xalqi ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti jarayonida mukammal inson qanday bo'lishi haqida o'zining ajoyib bir ta'limot tizimini yaratgan. "Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar"<sup>73</sup>

Xalq maqollarida ilgari surilgan ma'naviyatga oid eng muhim masalalardan yana biri ilm-ma'rifatga bo'lgan ixlos, ishonch-e'tiqodni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Ularda bilimli bo'lish, madaniyat, qadriyat, ma'naviyat, ma'rifat asoslarini bilib olish, ulardan amaliy faoliyatda foydalanish inson uchun muhim hayotiy zaruriyat ekanligi aytib o'tilgan. Dunyoda ilmga teng keladigan boylik yo'q. Ilm har narsadan yuqori, hech narsa unga teng kela olmaydi. Inson egallashi kerak bo'lgan boyliklar ichida eng zaruri, muhimi, foydalisi va eng sharaflisi - ilmdir, ilmu hikmatdir. Ekinlarning parvarishi, unib-o'sishi uchun inson mehnati va mehri, sug'orish uchun suv qanday zarur bo'lsa, odam bolasi uchun ilm -ma'rifat, ma'naviyat shunchalik muhimdir. O'zbekiston Prezidenti tomonidan

<sup>71</sup> Оз-оз ўрганиб доно бўлур. Донишмандлар бисотидан ҳикматлар, масаллар.Т., Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982, 107-108-бетлар.

<sup>72</sup> Ш. Шомаксудон. Ш. Шораҳмедов. Хикматнома. Т., 1990, 462-бет.

<sup>73</sup> Ислом Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд, Т., "Ўзбекистон", 1995, 39-бет.

aytilganidek, “jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma’rifatdir”.<sup>74</sup>

Ko’rinib turganidek, ilm ko’ngil ko’zini ochadi, qorong’ulikni ma’rifat nuri bilan yoritadi. Insonning ulug’lar darajasiga yetishi ham ilm-ma’rifat tufaylidir. Ilm - odamlarning ziynatidir. Inson o’z xalqi, millati, vatani oldidagi farzandlik burchi va mashuliyatini ilm-ma’rifati tufayli chuqur his qiladi, bilib, anglab oladi.

Kishilarning hayotiy extiyojini qondirish uchun paydo bo’lgan ilm-ma’rifat insoniyat boyligidir. Tan jon bilan tirik bo’lsa, ruh ilm bilandir. Ilm inson uchun najotdir. U insonga hayotda yo’ldosh, sirdosh va ko’maqdosdirdir. Ilm bamisoli xazinalar eshigini ochadigan kalitdir. Dunyoda har qanday muammo va tugun ilm, aql-idrok va tafakkur yordamida yechilgan va yechiladi.

Ilm o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi. Ilmga hech bir inson zoti birdaniga erishgan emas va erisha ham olmaydi. Inson onasidan donoyu donishmand bo’lib tug’ilmaydi. Insondagi bilim, odob-axloq, olam, tabiat va jamiyat haqidagi barcha tushuncha va tasavvurlar, dunyoqarash va bilimlar amaliy faoliyat jarayonida, xilma-xil badiiy, tarixiy, siyosiy, nazariy, falsafiy, huquqiy kitoblar, darsliklarni o’qib – o’rganish, mutolaa qilish, hayotdan saboq olish, ustozu muallimlardan ta’lim olish jarayonida hosil bo’ladi, rivojlanib, boyib, takomillashib boradi.

O’zbek xalq maqollarida belgilab qo’yilganidek, ilm-ma’rifatga ega bo’lishning, inson qalbini ilm nuri bilan nurlantirishning, dilini pok va musaffo qilishning asosiy sharti va eng to’g’ri yo’li - bebaho ma’naviy boylıklar xazinasini bo’lgan kitoblarni qo’ldan qo’ymay o’qishdir.

Yurak qoni, ko’z nuri, qalb amri bilan yozilgan har bir kitob faqat o’tmishni aks ettirmaydi. Ayni paytda u kelajak dasturi hamdir. Kitob ham bilim boyligi, ham aqliy mehnat qurolidir. U ta’lim-tarbiyaga ham muhim ta’sir ko’rsatadi. Kitob uni yaratgan xalqning bebaho ma’naviy boyligidir. U inson aql-idroki va ijodkorligining buyuk kashfiyotlaridan biridir. Kitob odamzod yaratgan eng muraqqab mo’jizalar ichida eng buyuk mo’jizadir. Kitob - hayot darsligi, barcha bilimlar asosi, dunyo voqea -hadislari va elu elatlar hayotidan hikoya qiluvchi birdan-bir manba. Kitob - xazinalar kaliti, tafakkur manbai. Shu boisdan ham kitobni sevish, qadrlash va ehzozlash qadim-qadimlardan boshlangan.<sup>43</sup>

Kitobni eng buyuk hikmatlar xazinasini sifatida mo’jtabar va muqaddas deb bilish, uning biron varag’ining ham yirtilishiga yo’l qo’ymaslik, kitob sahifasiga hech narsa o’ramaslik, nunday azizlash haqidagi o’gitlar, pandnomalar, ma’naviy-axloqiy yo’l-yo’riqlar ajdodlarimizdan hozirgi avlodga qolgan oltin merosdir. Shuning uchun xam Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o’zbeklar kitobning hayot darsligi ekanligi, muqaddasligi haqida son-sanoqsiz naql-rivoyatlar, afsonalar, maqollar yaratganlar. “Kitobsiz uy — quyoshsiz kun”, “Kitob — inson do’shti”, “Oltin yer tagidan kavlab olinadi, bilim kitobdan”, “Non to’ydiradi, kitob

<sup>74</sup> Ислом Каримои. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 1-жилд. Т., “Ўзбекистон”, 1999, 134-бет.

<sup>43</sup> Қаранг: Малик Муродов. Олтин сандик очилди. Т., “Ўқитувчи”, 1994, 71-76-бетлар.

kiydiradi”, “Qush don qidirar, olim kitob”, “Kiyim ustingni bezaydi, kitob aqlingni”, degan xikmatlarda kitobning qadriga erishish ta’kidlangan.<sup>75</sup>

Insonga kitobdan ko’ra yaqin do’st, beminnat ulfat yo’q. U g’amli zamonda insonga g’amxo’rdir. Kitob bilan qolganda odam o’zini tanho sezmaydi. “Go’zal kitoblar ajib narsalarni ko’ruvchi ko’zgu, ovloqda sirdosh, yolg’izlikda do’st, ojizlik vaqtlarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, o’tgan zamon ahvolidan so’zlovchi, ummatlar voqeeligini hikoya etuvchi, aqlli kimsalarning aqlarini ko’zlariga ko’rsatuvchi, oz haqli - ko’p foydali narsalardir”<sup>76</sup>.

Kitob insonning zehni o’tkirlashtiradi, zavqini oshiradi, so’zga chechan qiladi. Kitob insonni kamolotga yetkazadi. Donishmandlardan biri kitob tagi yo’q xazina ekanligini, kimki u bilan ulfat bo’lsa, qadru qimmatini baland bo’lishligini uqtirib shunday degan edi: “Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo’kdir. Kitob fasohat, balog’atda, latofatda tengi yo’q, munofiqlikdan xoli hamroxdir. Yolg’izlikda va g’amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so’zlarida yolg’on va xato bo’lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o’z do’stining dilini og’ritmaydi, yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g’iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do’st ichida barcha ilmu- xilm mujassamdirki, u kishilarni o’tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham: Kitob aql qal’asidir!”<sup>77</sup> -deganlar.

Xalqlar tomonidan yaratilgan ertaklarning madaniy-ma’naviy, ma’rifiy ahamiyati beqiyosdir. Ular odamlarning bilim va ma’lumotlarini chuqurlashtiribgina qolmay, ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ham egadirlar. Ibrat bo’lmaydigan, kishilarga odamiylik, chin insoniy xislat va fazilatlar haqida saboq bermaydigan birorta ham o’zbek ertagi topilmasa kerak. Sharq va Markaziy Osiyo xalqlarining har bir ertagi o’ziga xos takrorlanmas, durdona fikrlar, hikmatlarga limmo-limdir.

Prezident Islom Karimovning uqtirishicha, O’zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o’z yo’li, Respublikani rivojlantirishning quyidagi o’ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarni har tomonlama hisobga olishga asoslanadi: “Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an’analari va urf-odatlardan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o’tmishdagi an’anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O’zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to’g’risida g’amxo’rlik qilish, ochiq ko’ngillilik, millatidan qat’iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo’lish, o’zgaralar kulfatiga hamdard bo’lish va o’zaro yordam tuyg’usi kishilar o’rtasidagi munosabatlarning me’yori hisoblanadi. O’zbeklar diyoriga, o’z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga,

<sup>75</sup> Малик Муродов. Ўзбек кадриятлари. Т. “Чўлпон”, 1995, 132-бет.

<sup>76</sup> Ризоуддин ибн Фахруддин. Насихат. Т. “Чўлпон”, 1993, 12-бет.

<sup>77</sup> Қаранг: Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони. Т. “Фан”. 1994, 20-21-бетлар.

ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatdir".<sup>78</sup>

Xalq og'zaki ijodiyotining insoniyat madaniyati va ma'naviyati boyligi sifatida asrlar qahridan hozirgi davrlarga qadar eson-omon yetib kelishini ta'minlagan bir qancha omillar, shart-sharoitlar mavjud. Bu sohada yozuvning jahon sivilizatsiyasi yutug'i sifatida ixtiro qilinishining roli va ahamiyati beqiyosdir.

Yozuvning yuzaga kelishi adabiyotning, umuman, xalq yozma ijodining paydo bo'lishi va rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuv tufayli xalqning hayotiy tajribalari va bilim boyliklarini asrlardan-asrlarga, avlodlardan-avlodlarga o'tkazish imkoniyati kengaydi, ma'naviyat va ma'rifatni saqlab qolish, targ'ib-tashviqot etish, xalq mulkiga aylantirishda uning roli va ahamiyati beqiyos bo'ldi. Yozuvning vujudga kelishi bilan qo'lyozmalar yaratish, kitoblar chop etish, kitoblarni tarqatish, ularni saqlash kabi ishlar boshlanib ketdi.

Xullas, insoniyatning buyuk tafakkur durdonasi bo'lgan tom ma'nodagi yozma ijodi, boy ma'naviy xazinasi, ilg'or dunyoqarashi xalqlar tomonidan uzoq asrlar mobaynida yaratib to'plangan madaniy boyliklari, og'zaki ijodi zaminida maydonga kelgan, mukammallashgan, uning qonuniy davomi bo'lgan.

Jahon madaniy-ma'naviy taraqqiyoti millatlar, xalqlar, el-uluslar tarixiy taqdirlarining o'zaro bog'lanishi, bir-birini boyitishi asosida amalga oshadi. Zotan, Islom Karimov ta'kidlaganidek, "jahon madaniyati g'oyasi XXI asrdagi umuminsoniy taraqqiyot falsafasining manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya o'tgan asrlarda ham ko'p qirrali va betakror insoniyat sivilizatsiyasi rivojining o'zagi, yuksak ma'naviyat va insonparvarlik g'oyalarining asosi bo'lib xizmat qilgan.

Bu g'oya bugun ham dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish yo'lida xalqlarni birdamlik va hamkorlikka da'vat etishi lozim. Men umuminsoniy qadriyatlar rivojini har bir xalq madaniyati va o'ziga xosligining o'zaro uyg'unlashuvida deb bilaman. Madaniyatlarning shu tarzdagi uyg'unlashuvigina umuminsoniy madaniyat va butun sivilizatsiyaning go'zalligi va qadr-qimmatini yaratadi. Zero, umumiy sivilizatsiya turli xalqlarning madaniyatlaridan shakllanadi".

Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, madaniy aloqadorligi va hamkorligi bir necha ming yillik tarixga ega. Sharqning G'arb, G'arbning esa Sharq bilan o'zaro hamkorligi, bir-biriga ta'sirida Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Qadim zamonlarda Xitoydan O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlariga va ulardan Yunoniston, Rim, Vizantiya imperiyasiga olib boruvchi Buyuk Ipak yo'li munosabati bilan mintaqamizning umum-bashariy mavqg'ei haddan tashqari oshgan. "Ayni bizning diyorumiz asrlar davomida Sharq bilan G'arb, Janub bilan Shimol o'rtasida aloqa bog'lovchi ko'prik bo'lib keldi. Hozirgi O'zbekiston hududidan xalqaro munosabatlarning jo'shqin qon tomiri: iqtisodiy aloqalar, hunarmandchilik, fan va San'at harakat qilib turgan Buyuk Ipak yo'li o'tgan edi"<sup>79</sup>.

<sup>78</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. Т., "Ўзбекистон", 1996, 41-бет.

<sup>79</sup> Ислом Каринов. Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. 5-жилд. Т., "Ўзбекистон", 1997, 19-бет.

“Kitob al- jome’ as-Sahix” hozirga qadar hadis ilmining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Allomaning asrlar davomida fozilu fuzalolarga dastur bo’lib kelgan aqlu odob, insofu diyonat, adolatu insonparvarlikni targ’ib etuvchi g’oyalari singari, davrimizning murakkab va ziddiyatli axloqiy-ma’naviy masalalarini hal etishda zamonaviy ahamiyat kasb etadi”<sup>80</sup>.

“Al-Kashshof”-az Zamaxshariy ijodining gultojidir. U Qur’on tafsiriga bag’ishlangan asarlar ichida eng sarasidir. Shuning uchun ham bu asar hozirgi vaqtgacha arab mamlakatlarida ko’plab musulmon axli, ayniqsa, olimlar uchun zaruriy kitoblardan bo’lib hisoblanadi”<sup>81</sup>.

XX asrning so’ngi o’n yilligi jahon tarixiga tub o’zgartirishlar davri bo’lib kirdi. Ana shu paytdan boshlab butun insoniyat hayoti va taraqqiyotida yangi davr boshlandi.

Jahon mohiyatan yangicha siyosiy – ma’naviy qiyofa kasb etdi. Dahshatli mojaro – qonli to’qnashuvlar, qirg’inbarot jahon urushlari davridan umubashariyat manfaatlari va qadriyatlarining ustuvorligi tomon, dunyo siyosiy qiyofasi o’zgardi. Yer yuzining turli mintaqalarida erkinlik, ozodlik, mustaqillik harakatlari kuchaydi. Mazlum xalqlarning erk uchun kurashi asrning asosiy g’oyasiga aylandi. O’zga mamlakatlarga tobeh bo’lib kelgan ko’plab mamlakatlar birin –ketin mustaqillika erisha boshladi. Bu jarayon XX asrning eng asosiy, eng muhim ijtimoiy – siyosiy tamoyili sifatida ajralib turadi.

Dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan mamlakatda mutelik holatida yashagan xalqlar qaramlik kishanlaridan xalos bo’ldilar. Ularning har biri o’z imkoniyati, o’z aql – zakovati darajasida milliy davlat barpo etishga kirishdi.”<sup>82</sup>

Sodir bo’lgan olamshumul o’zgarishlar oqibatida dunyo ichra yangi dunyolar, mustaqil davlatlar paydo bo’ldi. Bu masala mohiyati bilan sof ma’naviy, sof axloqiy qismatlar hodisasi sifatida insoniyat tarixida qoladi. Bu milliy istiqlol samarasi o’laroq yangi davlatlar o’z madaniy – ma’naviy, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining yangi tarixiy bosqichiga qadam qo’ydi. Ularning har biri o’z imkoniyati, tarixiy shart – sharoitlari, milliy, madaniy – ma’naviy merosi, qadriyatlarini, urf – odatlari asosida milliy davlatni barpo etishga, istiqlolcha yangi ong, yangi tafakkurni shakllantirishga, yangi insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishga, eski mafkuradan batamom voz kechishga, o’ziga xos va mos mafkurani yaratishga kirishdi. Ana shunday buyuk tarixiy vazifa o’z ma’rifiy kamolotining mohiyatan mutlaqo yangi bosqichi – istiqlol yo’liga qadam qo’ygan O’zbekiston xalqi oldida ham turardi.

XXI asr bo’sag’asida O’zbekiston xalqi hayotida chuqur tarixiy o’zgarishlar ro’y berdi. O’zbekiston siyosiy qaramlik va mutelik asoratidan qutilib, davlat mustaqilligini qo’lga kiritdi. Mustaqillik bizni mustabid va mafkuralashgan tuzum kishanlaridan ozod qildi, O’zbek xalqiga o’z yurtida boshini baland ko’tarib yurish, o’z madaniyati va e’tiqodini, ona tili va ma’naviyatini qayta tiklash imkonini berdi. Yurtimizda boshimizni baland ko’tarib yurib, erkin nafas

<sup>80</sup> Ислом Каримов. Истиқлол ва маънавият. Т., “Ўзбекистон” 1994. 105-бет

<sup>81</sup> Қаранг: Абул Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. Шарҳлар муаллифи ва таржимон Убайдулла Уватов. Т., “Камалак”, 1992, 42-44-бетлар.

<sup>82</sup> Ислом Каримов. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. Т., “Ўзбекистон” 1996 294 – бет.

olishimiz, milliy o'zligimizni anglash imkoniyatiga ega bo'lganligimiz, ijtimoiy – siyosiy sohalarni, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatni, jamiyat hayotining barcha jabhalarini jiddiy ravishda rivojlantirishga, isloh qilishga kirishilganligimiz – bularning hammasi milliy istiqlool natijalaridir. “Bir so'z bilan aytganda, - deydi Prezident, - istiqlool biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratadigan bo'ldik. Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umume'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib qurishdek, noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'ldik. Bu juda katta boylik. Biz uning qadriga yetishimiz, ko'z qorachig'idek asrab – avaylashimiz kerak.”<sup>79</sup>

Butun insoniyat hayotida bo'lgani singari yetuk ma'naviyat va ma'rifat mustaqil O'zbekiston uchun ham o'ta muhim va zarurdir. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda u hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir... Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi”<sup>83</sup>

O'zbekiston uchun davlat mustaqilligini qo'lga kiritish qanchalik og'ir va mashaqqatli jarayon bo'lgan bo'lsa, uni saqlab qolish, mustahkamlash, barqarorligini ta'minlash ham shu qadar murakkab va o'ta mas'uliyatli vazifadir. Kishilik tarixida o'z istiqlolining qadriga yetmagan xalqlar, elatlar va millatlar ko'p bo'lgan. Istiqlolini saqlab qololmagan xalq, millat, elatlar tarix sahifalaridan butunlay o'chib ketganini, erkini asrab qolgan xalq va millatlar esa sha'n va shavkatda tengsiz yuksalishlarga ko'tarilganini ibratli misollar vositasida xalqimizga yetkazishimiz lozim, - deydi Prezident.

Mustaqillikni mustahkamlashda jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish va jadallashtirishda iqtisodiy va siyosiy omillar qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi o'z – o'zidan tushunarli, albatta.

Mustaqillik bu taqdir, buyuk nehmata ekanligini insonlar, davlatimiz fuqarolari jismu jonu, ruhi – ravonlarila his qiladilar, anglaydilar. Ana o'shandagina xalq, millat o'z erkini va ozod kamolotini qadrlay oladi, jarayonlarda ongli, faol ishtirok etishni o'zi uchun qalb amri, qismati, taqdir deb biladi. Shaxsning, millatning, xalqning bu ma'naviy – ma'rifiy yuksakligi jamiyatimizni yangi mohiyat bosqichiga, milliy kamolotning yangi sivilizatsiya sahnasiga olib keladi. Uni istiqbolli qiladi, buyuk davlat bo'lishini ta'minlaydi. Ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, istiqlool davri darajasiga, talabga, buyuk kelajaqqa boshlaydi. Dunyoni ma'naviyat, ma'rifat qutqaradi, halokatdan saqlab qoladi.

Istiqloolning ilk bosqichlarida mustaqil O'zbekistonning o'ziga xosu mos manzarasini yaratish mohiyatan hayot – momot muammosi, ya'ni bosh, aniq va ravshan strategik vazifa edi. Zotan, shunday vazifa hal etilmasa biror – bir davlat, biror – bir xalq, biror jamiyat o'z istiqbolini ko'ra olmasdi. O'zbek dunyosining

<sup>79</sup> Ислом Каримов. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5-жилд. 1997, 105-бет.

<sup>83</sup> Ислом Каримов Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд, Т., “Ўзбекистон” 1996, 80,81-бетлар.

shunday manzarasi, siyosiy mafkurasi Istiqlol Yo'l boshchisi donoligila yaratildi. Uning markazi uchun bosh maqsad-milliy g'oyaning eng oliysi, mumtozi – istiqbolli mustaqil davlatchilik g'oyasi va u bilan bog'liq istiqbol mafkurasi asos qilib olindi.

**Xalq qo'shiqchiligi janrlari;** Xalq qo'ushiqchiligi qo'shikchilik san'atining eng ko'hna turidir. U xalqning orzu-umidlari, turmushi, ahloqi, sotsmal va milliy ozodlik uchun kurashini o'zida ifodalaydi. O'zbek xalq qo'shiqchiligining janrlari jihatidan xilma-xilligi va hayotda tutgan o'rning xilma-xilligi bilan boshqa xalqlar qo'shiqchiligi madaniyatiga ko'p jihatdan o'xshashdir. O'zbek qo'shiqchiligini o'z funksiyasi va hayotda tutgan o'rniga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. 1. Ma'lum vaqt va sharoitda ijro etiladigan qo'shiqlar. Bunga oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar va har xil tantanalarda ijro etiladigan qo'shiqlar kiradi.

**1. Istalgan vaqtda,** har qanday sharoitda ijro etiladigan qo'shiqlar. Bularga laparlar, yallalar, ashula qo'shiq, chalgu kuylari, chublama doston qo'shiqlari, aytishuvlar kiradi.

Har biri guruhga kiruvchi qo'shiqlar o'ziga xos tavsifli belgilarga ega. Masalan: Ijro etilishi ma'lum vaqt, yoki sharoitni taqoza etadigan birinchi guruh qo'shiq janrlarining mavzusi muayyan marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog'lik, bo'lib, ulardan deyarli chetlashmaydi. Bunga yor-yorlarni misol keltirish mumkin. Ikkinchi guruhga kiruvchi qo'shiqqa esa joy va vaqt tanlamaydi. Ular umuminsoniy qadriyatlar asosidagi qo'shiqlar bo'lib, janr jihatidan ham xilma-xil va murakkabdir.

**2. Maqomlar** – mumtoz qo'shiqlarning ma'lum yo'nalishi va lad asosida uyg'unlashgan hamda birlashgan ko'rinishdir, desak xato bo'lmaydi. Shashmaqom ana shunday 250 ga yaqin mumtoz qo'shiq va kuylarni olti lad va yo'nalishga birlashtirgan yaxlit yirik musiqiy asarlar majmuasidir.

1. Mumtoz ashulalar va kuylar. Xalq hamda bastakorlar tomonidan yaratilib, uzoq davrlar istemoldan tushib qolmagan kuy va qo'shiqlardir. Hatto keyingi davrlarda bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan ko'pgina musiqa asarlari ham mumtoz kuy-qo'shiqlar darajasida bo'lib, tinlovchilar, qalbidan chuqur o'rin eggallaganligi bois mumtoz asarlardir.

**3. Katta ashula.** Bu yirik xajmli ashula bo'lib, uning kuy oxanglari keng nafasli Hofizlar ijrosi uchun mo'ljallangandir.

Katta ashula. asosan Fargona-Toshkent ashula yo'liga xos bo'lib, uni odatda ashulachi hofiz, yoki 2-4 xamnafas ashulachi-hofizlar aytadilar. Bu ashula janri keng diopazonali bo'lib, adatda musikasiz kuylanadi. (chalgu sozlari jurligisiz)

**4. Ashula.** Nisbatan keng diopazali, aksariyat hollarda gazallarga bastalanadi. Uni yakka hofiz hamda ashulachilar ansambili kuylashi mumkin. Ritm jihatidan ham ko'shiqqa nisbatan murakkab bo'ladi.

**5. Qo'shiq.** U janr sifatida nisbatan kichik diapazonali kuydan tashkil topgan, ko'proq barmoq vazndagi she'rlar, mustaqil to'rtliklar hamda termalar asosida yoziladi. Qo'shiqlar ko'p hollarda naqoratli bo'ladi. Naqorat ko'pincha bir kuplet she'r hajmida bo'lib, qo'shiqchidagi har bir kupletdan so'ng takrorlanadi.

**6.Yalla.** Yalla o'zbek qo'shiqchilik san'atida aloxida o'rin egallaydi. Odatda yalla qo'shiqning raqs bilan birga ijro etilgan ko'rinishidir.

**7.Lapar.** Odatda qo'shiqning duyet, aytishuv shakllarigisha yaqin bo'lib, ikki xil ko'rinishda bo'ladi. 1. Yakka ijrochi o'zi qo'shiq kuylab, o'zi raqs harakatlari bajaradi. Erkak va ayol, oan-bola, ota-bola o'rtasida kechayotgan voqealarni hazil tariqasida ifodalaydi.

**8. O'lan.** O'lan ma'lum bir ladga to'liq rioya qilmagan holda, terma, she'rlar asosida aytiladi. Ko'p hollarda erkak va ayol, yigit va qiz o'rtasidagi aytishuvga o'xshaydi.

**9.Akademik vokal** qo'shiqchiligi. Unga romanslar, vokal qo'shiqlari, ariyalar, konon, rechitativ, kantenela uslublari kiradi va bular asosan saxnada ijro etiladigan qo'shiqlardir.

## **2.2-§. Yoshlarning ma'naviy salohiyati, tafakkurini rivojlantirib tarbiyalashda musiqa va adabiyotning ruhiyyotga ta'siri**

**Har bir satri bir g'azal;** Ilmda moziy voqeligini falsafiy idrok etish degan hikmatomuz ifoda mavjud. Ayni hikmat Muhammad Yusuf she'rlarida teran falsafiy nuqtai nazar kasb etadi. Sharhlashga jazm etganimiz shoirning "Vatanim" she'ri borasida.

Men dunyoni nima qildim,  
O'zing yorug' jahonim,  
O'zim hoqon,  
O'zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim.  
Yolg'izim,  
Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi...

Singlim deymi,  
Onam deymi,  
Hamdardu hamxonam deymi,  
Oftobdan ham o'zing mehri -  
Ilig'imsan, Vatanim.

Dastlabki ikki baytdagi poetik obrazlar (**yorug' jahon, yolg'izim, yagonam, topingan koshonam, shodon kun, gul, chechak, ona, singil, hamdard, hamxona, oftob, mehri iliqlik**) she'rxon shuurida hayotni sevish, vatanni va onani qadrlash, go'zallikka oshuftalik hamda iliq mehrning avjlanishi kabi hissiyotlarni jo'shtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Poetik obrazlar Vatan timsolida teran hayotiy mazmunni, samimiy tuyg'ular uyg'unligini ta'minlaydi.

Sen Mashrabsan,  
Xalqda tumor,

Balxda dorga osilgan,  
Navoiysan, shoh yonida  
Faqirni duo qilgan.  
Yassaviysan, meniki deb  
Ko'ringan da'vo qilgan,  
Ming bir yog'i ochilmagan  
Qo'rig'imsan, Vatanim.

Mashrabning darbadar hayoti davomida Ollohni zikr etib yozgan g'azallari, buyuk Navoiyning insonni oliy maqomda kuylashi va madh etishdagi yuksak mahorati, Xo'ja Ahmad Yassaviy ta'limotining oriflar nazdida "ming bir yog'i ochilmagan qo'riq", tuganmas ma'rifat sarchashmasi ekanini satrlarda his qilamiz, anglab yetamiz.

Sen Xo'jandsan,  
Chingizlarga  
Darbozasin ochmagan,  
Temur Malik orqasidan  
Sirdaryoga sakragan,  
Muqannasan qorachig'i  
Olovlarga sachragan.  
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon-  
Cho'lig'imsan, Vatanim.

**Cho'pon, olov, Sirdaryo, Xo'jand qal'asi** ko'ngilda kechayotgan hissiyotni ifodalovchi detal, harakatni yuzaga keltiruvchi to'lqin sifatida **Shiroq, Muqanna, Temur Malik** kabi xalq qahramonlarining jangavor holatini, muhoraba manzarasini yaqqol namoyon etishi ayonlashadi.

...Jaloliddin Kurdistonda,  
Boburing Hindistonda  
Bu qanday yuz qarolig' deb,  
Yotarlar zimistonda...

Moziy voqeligini she'riy satrlarda ifodalash shoirdan yuksak mahoratni va kuchli iqtidorni talab qiladi. Muhammad Yusufning shoirlik iqtidori shunda ko'rinadiki, lo'nda jumla, qisqa satrlarda butun tarixiy manzarani yarata olgan.

Jaloliddin Kurdistonda,  
Boburing Hindistonda...

Tire (-) vositasida har ikki tarixiy shaxsning hayoti, kurashi, taqdiri, kechmishi ifodalab berilgan. **Zimiston** timsoli o'zi ifodalab kelgan mazmun (qabr, mozor, go'riston) dan-da keng ko'lamli ma'no kasb etib, tarixiy shaxslar taqdiri va qismati nobopligini, ijtimoiy hayotning qorong'i qatlamlarini namoyon etayotgani ko'rinadi.

O'g'lim, desang osmonlarga  
Firoto bo'lib uchgayman,  
Chambil yurtda Alpomishga  
Navkar bo'lib tushgayman...

**Alpomish, Firot, o'g'il, navkar** poetik obrazlari she'rxon shuurida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, elsevar va xalqparvar tuyg'ularni tarkib toptiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Padarkushdan pana qilib  
Ulug'beging quchgayman,  
G'ichir-g'ichir tishimdagi  
So'lig'imsan, Vatanim.

“G'ichir-g'ichir” taqlid so'zi o'tmishning qabohat va jaholat timsoli bo'lgan shaxslar (padarkush Abdullatif)ga qaratilgan qasoskorlik, shiddatkorlik belgisi sifatida qo'llangan bo'lsa, tishdagi so'liq mardonavorlik va kurashuvchanlik timsoli bo'lib gavdalanadi.

O'tgan kuning - **o'tgan kundir...**

Ushbu satrlar Qodiriy qismatiga daxldor jamiyat jallodlarining qilmishlarini yaqqol fosh etgan. Orif insonlar taqdirini zulmat chulg'agan davr, shoir ta'biricha, o'tgan kun - **o'ta mash'um, o'ta qattol kundir.**

...O'z boshingga yetgan kun  
Qodiriyni bergan zamin,  
Qodiriyni sotgan kun.  
Qo'lin bog'lab,  
Dilin dog'lab,  
Yetaklashib ketgan kun  
Voh bolam ! deb aytolmagan  
Dudug'imsan, Vatanim.

Obrazli fikrlash tarzini belgilovchi qator ifoda birliklari **o'z boshiga yetgan kun, Qodiriyni sotgan kun, qo'lin bog'lab, dilin dog'lab** oqibatda **aytolmaydigan duduqqa** aylanishida ajdodlarimiz hayotida yuz bergan nohaqliklar oqibati she'rxon tafakkurida jonlanadi.

- VOH, BOLAM !- deb aytolmaslik...

Bu holat nafaqat ichki iztirob, balki haqsizlik va huquqsizlikka qarshi isyon, kurashuvchanlik ruhini shakllantiradigan his-tuyg'ular ifodasi hamdir.

Sen - shoxlari osmonlarga  
Tegib turgan chinorim...

“Shoxlari osmonga tekkan chinor” navqironlik, qadimiylik va umrboqiylik ma'nolari sifatida Vatan istiqbolining mangulikka daxldor qirralari, davr voqeligi silsilasida hamon yashab, kundan kun jilo topib kelayotgan an'analar jilvalanishini namoyon etadi.

Ota desam,  
O'g'lim deb

Bosh egib turgan chinorim,  
Qo'ynimdagi iftixorim,  
Bo'ynimdagi tumorim,  
O'zing meni ulug'lardan  
Ulug'imsan, Vatanim.<sup>44</sup>

Ulug'vorlik chinorda bo'lsa, mehr-muruvvat xislatlari padari buzrukvorga xos fazilatdir.

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf she'riyat mulkini teran fikrlar, yorqin ifodalar bilan boyitdi. U insonning insonga bo'lgan sevgisini, tabiatga mehrini uyg'ota oladigan, takrorlanmas, xalqona ohangdagi she'rlari bilan nazm olamida uzoq yashab qoladi.

**Qo'shiqlarda Vatan obrazining poetik talqini:** Vatan tabiat va jamiyat birligi ifodasi, hayvonot va nabotot nafas olayotgan olamning inson tasavvuri va shuurida aks etish in'ikosi demakdir.

Inson tug'ilib o'sgan makonida yashar ekan, uni e'zoz va qadr topishi uchun o'zini jisman va ma'nan mas'ul hisoblaydi.

Ijodkorlar talqinida, xususan, she'riyat ahli lafzida “**VATAN**” termini tanho qo'llanilmagan, **ona, aziz, jonajon, ulug', gul, hur** so'zlari go'yo ajralmas birikma tarzida, sifatlovchi vazifasida vatan so'zi bilan yonma-yon ifodalanib kelingan. Uning muqobili va ma'nodoshi bo'lgan **diyor, yurt, o'lka, maskan** atamalari baytning ma'no ko'lami va qofiya izmiga ko'ra qo'llanaveradiki, bu shoir uchun nazmiy manzara yaratishga yoki lirik qahramon holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

Shoir she'riyatda Vatan obrazini yaratishi - bu uning “yuragida doimo yashab kelayotgan ezgu va qutlug' tarixiy tuyg'u”<sup>45</sup> to'lg'og'idan ko'z ochgan ijod samarasidir.

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov o'z she'rlarida o'zbek xalqining o'tmishini teran ifodalar bilan faylasufona talqin qila olgan buyuk ijodkordir. Uning “O'zbekiston” faxriyasi, “O'zbekim”, “Inson” qasidalari mazmun- mohiyati bilan vatandan faxrlanish, millat kamolotida insonning tutgan o'rni borasida falsafiy mushohada yuritishga undovchi ijod mahsuli sanaladi.

She'riyatda ustivor g'oya sifatida vatan g'oyasining tanlanishi shoir uchun tarixiy o'tmishni o'rganish, tarixiy qahramonlar faoliyatini ifodalash bo'libgina qolmay, unda shoir bo'lib o'tgan voqealarni his etadi, qahramonlar bilan yonma-yon yurib, mardonavor kurashlarda g'alaba nash'asidan masrurlanadi; mag'lubiyatlardan iztirob chekadi, ruhiy qiynoqlar girdobida azoblanadi. She'rxon shuurida fikrlar va kechinmalar junbushi g'ayriinsoniy qilmishlarga qarshi olovlanadi:

O'tdilar sho'rlik boshingdan  
O'ynatib shamshirlarin,

<sup>44</sup> Muhammad Yusuf. Saylanma. “Sharq” nashriyot-matbaa AK. Toshkent. 2007 y.

<sup>45</sup> Ishoq Jabborov. “Abdulla Oripov she'rlarida tarix tuyg'usi” maqola. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2008 y. 2-son.

Necha qon, necha sulton,  
Necha ming xon, o'zbekim.

\*\*\*

Qaysari Rum nayzasidan  
Ko'ksida dog' uzra dog',  
Chingizu Botu tig'iga  
Ko'ksi qalqon o'zbekim...<sup>46</sup>

Yuqoridagi satrlarni o'qir ekanmiz, yurakda jo'sh urayotgan to'lqin yanada mavjlanib, poetik tarixiy siymolar ko'z o'ngimizda gavdalanadi; ularning mardonavorligidan, fidoiy va jasurligidan ongu tafakkurimizda g'ururlanish hissini, iftixor tuyg'usini tuyamiz.

Normurod Narzullayev qalamiga mansub "Mustaqillik alyori" she'ri xalqqa murojaat tarzida "elim, bugun erta uyg'on, to'ydir bugun, to'y bugun" misrasi bilan boshlanadi. Ko'rinib turibdiki, to'yga chorlov kuchli va baland ovozda aytiladi. Kompozitor va bastakor Habibullo Rahimov bastalagan ohang ushbu she'rga juda mos tushgan.

Xumo qushi osmoningda  
Aylanadi baxt bo'lib,  
Istiqlolim sharafiga  
Yangrar qo'shiq, kuy bugun....

Istiqlol shukuhi shoir qalbida kuy, qo'shiq bo'lib yangramoqda.

She'riy satrlarda qo'llangan **kuy, qo'shiq, ohang** kabi poetik timsollar **yurak, shodlik, baxt** detallari vositasida go'yo biri ikkinchisini izohlab, to'ldirib kelayotgan ma'nodosh so'zlar kabi tafakkurimizda o'zaro uyg'un hislarni uyg'otadi.

Hassos shoirning "Ozod vatan - obod vatan" **she'rida oppoq, nahor, mangu... bahor, muqaddas el, ona diyor** singari so'z birliklari shuurimizga dilxush navo kabi singishadi, qalbni to'lqinlantiruvchi orombaxsh shabada kabi ta'sirlantiradi:

Kulib otar oppoq nahor  
Mangu mehmon yurtda bahor.  
Muqaddas el, ona diyor,  
Bizdan qolur obod vatan....

Shoir ijodkorligi mahsulidan ruhlangan bastakor Farhod Olimov yaratgan kuy uzukka ko'z qo'ygandek xonanda ovozida aks-sado beradi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishilgan ilk davrlarda xalqni o'zlikni anglashga, tarixiy haqiqatni teran idroklashga undovchi, shuningdek, milliy an'analar va qadriyatlar salmog'ini omma tafakkurida jonlantirish maqsadida da'vatkorlik ruhida yaratilgan she'riy asarlar dunyoga keldi.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodidan ayni shu ruhdagi "O'zingdan qo'ymasin, xalqim", "Xalq bo'l, elim" she'rlari o'rin olgan bo'lib, nazmiy badiiyatdan zavq olgan mohir kompozitor va bastakorlarning ohanglar

---

<sup>46</sup> E.Vohidov. "Kuy avjida uzilmasin tor" she'rlar va doston. Toshkent 1991 y.

uyg'unligida yaratgan qo'shiqlari ommaviy sahnalarda, bayram tadbirlarida o'ziga xos ko'tarinki ruhiyat kasb etmoqda.

Qushday uchib quchog'ingdan dunyo kezdim,  
Kezib-kezib topganlarim sog'inch bo'ldi.  
Qancha olis ketsam, shuncha qadring sezdim,  
Qayda yursam yodi mehring ovunch bo'ldi.  
Aylanayin qora qoshu ko'zingdan-a,  
O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan-a.

Insonni Vatanga bog'lab turuvchi rishta - sog'inch va mehrdir.<sup>47</sup>

**“AYLANAYIN...”**

Mehr va erkalanishga qorilgan bu so'zni yaqin o'n-o'n besh yillar muqaddam she'riyatda-da, adabiyotda-da kam uchratardik.

“Ko'zingdan-a, so'zingdan-a” qofiya so'zlaridagi “a” yuklamasi mehribonlik, dilga yaqinlik va erkalash tuyg'ularining avjlanishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur she'rda Vatanga bo'lgan mehr tafti, qalb harorati, uni sog'inish kechmishidagi iliq iztiroblar baland pardalarda kuylanganiga ishonch hosil qilamiz.

O'n besh yildan buyon doimiy o'tkazilib kelinayotgan “O'zbekiston - Vatanim manim” qo'shiqlar ko'rik-tanlovi respublikamizda ijodkor shoiru xonandalar kashf etilishini ta'minlab kelmoqda. “O'zbekiston - Vatanim manim” qo'shiqlar to'plamining (notalashtirilgan holda) musiqa mutaxassislari va qo'shiq shinavandalari bisotidan o'rin olishi ijrochi yosh xonandalar soni ko'laminin kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqil diyorumizda ijodkorlar, xususan, shoir va xonandalar nufuzining ortib borishi quvonarli hol, albatta. Vatanning o'tmishi, buguni va kelajagini yorqin ranglarda ifodalash orqali hayotni go'zallashtirish, jamiyatni poklash va insonni komillashtirishga qaratilgan yuksak g'oyani - milliy Istiqlol g'oyasini avlodlar ongiga singdirish oliy burch ekanligini his qilib yashashimiz zarur.

**Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar:** Shubhasiz, milliy qadriyatlarsiz millat kelajagini tasavvur etish qiyin. Yurtboshimizning xalq qadriyatlarini tiklash va milliy o'zlikni anglash, kamol toptirishga alohida e'tibor qaratayotganligi ham aslida bejiz emas. “Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Shunday ekan, aytmog'imiz mumkinki xalq qadriyatlari kishilar, xususan yoshlarimizning o'z Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Zero, ota-bobolarimizdan meros turkona qadriyatlar bamisoli yo'lni yorituvchi mashhala, dillarga yorug'lik, ezgulik olib kiruvchi mo'jizadir. Ayni chog'da bu yuksak tuyg'ular farzandlarimiz ongi, shuurini charxlovchi, ularning kamoliga ziynat bag'ishlovchi betakror donishmandlikdir”.

---

<sup>47</sup> Normurod Narzullayev. “Xalqim, sen bilan qalbm” she'rlar, qo'shiqlar, to'rtliklar. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2000 y.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida harbiy musiqa cholg'ularining jangda qo'llanishi juda katta ruhiy ta'surotlarga ega bo'lgankim, ayrim janglarni boshlanmastdan turib dushman taslim bo'lgan tomonlari ham mavjud. Shaxsning, millatning, xalqning bu ma'naviy – ma'rifiy yuksakligi jamiyatimizni yangi mohiyat bosqichiga, milliy kamolotning yangi sivilizatsiya sahnasiga olib keladi. Uni istiqbolli qiladi, buyuk davlat bo'lishini ta'minlaydi. Ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, istiqlol davri darajasiga, talabga, buyuk kelajaqqa boshlaydi.

### **III-BOB**

#### **III-BOB. CHOLG'U IJROCHILIGI JO'RNAVOZLIGIDA SHE'RIYAT SHARXI VA BOG'LANISHIDAGI SUXANRONLIK TALQINI**

##### **3.1. Ma'naviyatning suxanronlik va suvanronlik talqinlarida tavsilot, tasnifot va tavzehot,**

Suxanronlik san'atining rivojlangan markazi Eron xalqi madaniyatiga mansubdir. Ushbu eroniylarning she'riyatxonlik davrasidan musobaqa bellashuvlari zamirida rivoj topgan. Hatto opera san'atining kesimidagi barcha she'riyatxonliklarning takomillashuviga ham Eron musiqa madaniyati va adabiyotidagi til farovonligidagi she'riyatxonlik maktabi ta'sir ko'rsatmasdan qolmagan deyish o'rinlidir. Ushbu she'riyatxonlik san'ati Podshoxlarning saroyida mashhur shoiru-xonandalar va hofizi qur'ondagilar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu elchilar sharafiyu-mehmonlar oldida doimo manzur bo'lganligi va hammani hayratga qoldiruvchi so'zlar talaffuzi shinavandalarni mumday eritgan.

Suxanronlikni –suvanronlik uslubi esa, so'zlarning talaffuzidagi qiroatlar, nag'ma va usullar, mug'om talqini tasnifida musiqa bilan qo'shib ketgan va yangi tasnifotni yuzaga keltirgan. Bu holat esa qo'shiqchilikni va nasihatxonlik, nadxonlik (diniy-pand-nasihatlari va rivoyatlar) hamda farzxonlik (diniy an'anadagi payg'ambarlar hayotidan ) naqlar etishgan va so'ng qo'shiq uslubiga bog'lab o'qilgan.

O'tmishda "Gurug'lixonlik", "Qalandariy" va "Mug'om" uslublari eramizdan oldin bunyod bo'lib, XIX –asr va so'ngi yillarda esa "Baxshichilik" san'atiga o'zgacha tasniflanishida biozgacha yetib keldi.

Keyinchalik asrlar davomida Buxoro 'Mavrigi'si va "Zangbandi" xonlik turkumlaridagi kirish qismlariga kirib, mahalliy uslublarni boyitib bogan.

Musiqa-ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. Musiqa inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulidir. Musiqa asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. "Musiqa" keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. Musiqa hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. "Musiqa" so'zi jonli tilimizda nechog'li keng ma'noda qo'llanmasin, tabiiyki, bizni uning emas, balki istilohiy ma'nosi qiziqtiradi.

Istilohiy ma'noda "Musiqa"<sup>48</sup> deganda insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi o'laroq vujudga kelgan jami narsalar tushuniladi. Ya'ni, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi musiqaga aloqadordir.

Musiqaning quyidagi ikki turi farqlanadi: amaliy va badiiy (nafis). Amaliy San'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Ba'zi san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa-ifoda san'ati kompozitorlik mahoratida ohanglar orqali kechinmalarni ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Musiqa va Rassomlik san'atidagi badiiylikni ifoda etish kabi kompozitsiyalar bir-biroviga o'xshab ketadi. Bunda; haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari bo'lib, unda biror manzara, holat musavvir qalbini jumbushga keltirib, qalbida muayyan kechinmalrni qo'zg'atadi va musavvir o'sha manzarani rang-tasvirga muhrlaydi. Shu tariqa san'at asarlari ruhiyatimizga oziq beradi. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'ziga xos usullar yordamida aks ettiradi. Masalan, musiqada tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali; badiiy adabiyot so'z, obrazlar orqali; tasviriy san'atdagi bo'yoqlar yordamida muayyan hissiy obraz gavdalantiriladi va ularni jumbushga keltiruvchi omil Musiqadir. Falsafaviy qilib aytganda musiqa tasvirdagi ifodaga jon kiritadi, go'yoki u haqiqiy deb tuyuladi, zero "inkoru-inkor"ga o'xshab ketadi. Ya'ni jonli tabiatni aks etuvchi sunniy obraz bu tasvir bo'lsa, ammo uni yanada jonli tabioatga qaytaruvchi yoxud unga jon kirituvchi bu musiqa san'atidir. Teatrda p'yessa qahramonlarining siymosi aktyorlar orqali namoyon bo'ladi. Mavjud san'at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchi o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyot universal bilish va ifoda vositasi bo'lmish so'z bilan ish ko'radi va uni musiqa bilan bog'laganda g'azal, qo'shiq va ashulalar yuzaga keladi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi

---

<sup>48</sup>Ўзбекистон Миллий энциклопедия

bo'lib, jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning hamma shakllari bilan aloqaga kirishadi. San'at voq'elikni badiiy vositalar orqali yanada to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi. San'at uchun inson bosh mavzu bo'lib xizmat qiladi. San'atda inson hamma vaqt ham bevosita ifodalanmaydi. San'at narsalardan, tabiat hodisalaridan inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'noni izlaydi, inson qalbini poklaydi, uning har tomonlama kamol topishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni, shuningdek, kishilar ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

Tarixiy musiqa san'ati bu "Shashmaqom", "Maqom" va boshqa turlari ham mavjud. Estetik tafakkur tarixida San'at narsa va xodisalarni qanday bo'lsa shundayligicha aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi San'at predmeti hisoblanadi.<sup>49</sup> Voq'elik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi. San'at inson uchun estetik zavq-shavq manbai; inson hayotiga go'zallik baxsh etadi; odamlarda voq'eliqqa nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi; hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi; hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi; tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi; hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlaydi; odamlar orasidagi ma'naviy ko'priq, muloqot vositasi; odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi. San'at jamiyat ma'naviy hayotining boshqa xodisalari (fan, mafkura, axloq) ma'lum darajada bog'liqdir. San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamga lazzat baxsh eta oladigan, uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

San'at asarlarining diqqat markazida insonlar, ularning ijtimoiy aloqasi va o'zaro munosabatlari, muayyan tarixiy sharoitlardagi hayoti, faoliyati turadi. Shuning uchun ham San'at asarlari beradigan bilim muayyan mamlakat, millat yoki ma'lum bir tarixiy davr va shaxslar haqidagi ilmiy asarlardan olingan ma'lumotlardan farq qiladi. San'atning tarbiyaviy kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o'quvchi, tomoshabinning qalbiga kirib borishi, ularda estetik zavq uyg'onishidadir. San'at barcha ijtimoiy ong shakllari singari o'z taraqqiyot qonunlariga ega. Bu qonuniyatlar San'atning o'z ichki xususiyatlaridan kelib chiqsada, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan xalq, millat, elat, mamlakat va jahon sivilizatsiyasi darajasi bu qonuniyatlarini o'z ifodasini topadi.

San'at qonuniyatlarini estetika, San'atshunoslik fani o'rganadi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan. Masalan, ba'zi San'atkor va San'atshunoslar uni "tabiatning taqlidi" yoki "voq'elikning aks ettirilishi" deb hisoblasa, boshqalari "San'atkorning sof shaxsiy ijodiy mahsuli", "o'z-o'zini izhor etish" sifatida talqin etadi<sup>50</sup>. Bu San'at predmetining

---

<sup>49</sup> "Мустақиллик" изоҳли луғати

<sup>50</sup> "Ижтимоий ҳимоя" луғат

murakkabligi, uning xususiyatlari va shakllari, mujassamlashtirishning usullarining xilma-xilligi hamda turli davrlarda San'at nazariyotchilarining sinfiy va g'oyaviy fikrlari o'rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. San'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani-go'zallik San'atning zarur sharti ekanligini, go'zalliksiz San'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin ham emasligini uqtiradi. San'atda mazmun va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. San'atning o'ziga xos xususiyati uning voq'elikni ilg'or g'oyaviy nazardan badiiy obrazlar orqali aks ettirishdir. Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida San'at alohida o'rin tutadi. Chunki San'at yuksak ijtimoiy g'oyalarni targ'ib etuvchi, inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan zarur bo'lgan o'zaro muloqotlar vositasi sifatida turli qithalar va davlatlarni o'zaro bog'laydi.

Zotan, inson San'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va shu ma'noda San'at ma'naviy yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi.

Yuksak ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, qayg'uradi, shuningdek kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat – kelajak poydevori» degan hikmatli shiorini yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biridir.

Ajdodlarimizdan qolgan har bir meros bugungi odamlarning ma'naviy - ma'rifiy, madaniy – tarbiyaviy va axloqiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular, ayniqsa, yoshlarda milliy iftixor tuyg'ularini tarbiyalash ishlarida yetakchi o'rinni egallaydi.

Bu borada yurtboshimiz «O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida shunday fikrni bildiradi: «Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boyluk bo'lgan San'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistonga qaytarish ma'naviyat dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etadi».

I.A.Karimovning ma'naviyat haqidagi fikrlarini chuqur o'rgatish jarayonida ma'naviyatning keng qamrovli fan sohasi ekani anglashiladi. Uning mazkur asarida quyidagi fikrlari shu ma'noda hikmatli va ibratlidir. «Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostguylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda, axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom – alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani»<sup>51</sup>, deb ta'kidlagan.

Totalitar tuzum davridagi o'zbeklarning qadimiy qadriyatlari, milliy g'ururi va xalqchil g'oyalarini o'zida badiiy ask ettirgan, necha ming – minglab misralarni, jild – jild kitoblarni tashkil etadigan asotirlar va afsonalarga, rivoyatlar

---

<sup>51</sup> Каримов. И. А. “Юксак маънавият – энгилмас куч”.Т. “Маънавият” 2008.

va ertaklarga, maqollar, topishmoq va latifalarga, «Alpomish, Go'ro'g'li, Rustam, Xasanxon, Avazxon, Ravshanxon, Nurali, Sherali, Kelinoy singari dostonlarga, qo'shiqlar, milliy kuy ohanglar, ganchkorlik, naqqoshlik, kulolchilik, kashtado'zlik singari San'atimiz durdonalariga bir yoqlama munosabatda bo'lindi, ularga zamonasozlik, sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan turib baho berildi.

To'g'risini aytadigan bo'lsak, bebaho dostonlarimizga, xalq ijodiyotining barcha nodir asarlari, qo'shiqlar va kuylarga aqidaparastlik vasvasasi bilan yondoshildi.

O'zbekiston Davlat mustaqilligiga erishgandan keyin erkimiz va haq - huquqlarimizni, tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf – odatlarimiz va qadriyatlarimiz rivojini bug'ib tashlashga qaratilgan qatog'onchilik siyosatiga abadiy chek qo'yildi.

Ma'naviyat insonga xos bo'lgan ichki ruhiy xolatgina emas, balki jamiyat, davlat. Millat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biridir. «Ma'naviyat, - deydi - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi»<sup>52</sup>.

Ma'naviyat insonga suv va havodek zarur. Ma'naviyatning bu jihatlari I.A. Karimovning quyidagi so'zlarida o'zining yaqqol ifodasini topgan: «Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar. Qarindosh urug'lar, qo'ni qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik - ma'naviyatning ma'nosi ana shunday keng».

### **3.2. Amaliy ijro va annotatsiyalar**

---

<sup>52</sup> И.А. Каримов «Истиқлол ва маънавият»

# САРАҲБОРИ КЎҲИСТОН

Ўртача

*mf*

б к б к

*mf*

This image shows a page of handwritten musical notation for piano, consisting of four systems of staves. Each system contains three staves: a single treble clef staff at the top, and a grand staff (treble and bass clefs) below it. The notation is in a key with one sharp (F#) and a 3/4 time signature. The first system begins with a treble clef staff containing a melodic line with eighth notes and a key signature change to one sharp. The grand staff below it features a bass line with quarter notes and chords in the treble staff. The second system is marked with a blue '7' and shows a more complex treble staff with sixteenth-note patterns. The third system is marked with a blue '5' and features a treble staff with a steady eighth-note accompaniment. The fourth system is marked with a blue '3' and includes a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) in the first measure of the grand staff. The notation is clear and well-organized, typical of a composer's manuscript.

*rit.* **Te3**

The image shows a page of musical notation for a piano piece, consisting of four systems of three staves each. The notation is in treble and bass clefs. The first system includes a forte (*f*) dynamic marking and a *rit.* (ritardando) instruction. The second system includes fingering 'V' and a triplet '3 V V'. The third system includes fingering 'V' and a triplet '3 V V'. The fourth system includes fingering 'V' and a triplet '3 V V'. The score is written in treble and bass clefs with various musical notations including notes, rests, and dynamic markings.

This image shows a page of handwritten musical notation for piano, organized into four systems. Each system consists of a treble clef staff and a bass clef staff. The notation includes various rhythmic values, accidentals, and dynamic markings. The first system features a complex melodic line in the treble with several 'V' markings above it. The second system continues this melodic development. The third system includes a 'ff' (fortissimo) dynamic marking in the treble staff. The fourth system concludes with a 'f' (forte) dynamic marking and a double bar line. The paper is aged and yellowed, and the ink is dark.

The first system of musical notation consists of three staves. The top staff is a treble clef with a key signature of one flat and a 3/4 time signature. It contains a melodic line with eighth and sixteenth notes. The middle staff is a treble clef with a key signature of one flat, containing a melodic line with eighth notes and rests. The bottom staff is a bass clef with a key signature of one flat, containing a bass line with eighth notes and rests. A vertical bar line is present after the third measure. The dynamic marking *mf* is written above the second staff after the bar line.

The second system of musical notation consists of three staves. The top staff is a treble clef with a key signature of one flat and a 3/4 time signature. It contains a melodic line with eighth and sixteenth notes, featuring accents and slurs. The middle staff is a treble clef with a key signature of one flat, containing a melodic line with eighth notes and rests. The bottom staff is a bass clef with a key signature of one flat, containing a bass line with eighth notes and rests. A vertical bar line is present after the third measure.

The third system of musical notation consists of three staves. The top staff is a treble clef with a key signature of one flat and a 3/4 time signature. It contains a melodic line with eighth and sixteenth notes, ending with a double bar line. The middle staff is a treble clef with a key signature of one flat, containing a melodic line with eighth notes and rests, ending with a double bar line. The bottom staff is a bass clef with a key signature of one flat, containing a bass line with eighth notes and rests, ending with a double bar line. The dynamic marking *rit.* is written above the top staff.

## ANNOTATSIYA

### SARAHBORI KO'XISTONI

Tojik xalq kuyi “Dutor” cholg’usi ijrosida

Sarahbori ko’xistoni Tojikiston xalqining sevimli kuylaridan biri hisoblanadi. Ushbu kuy dator cholg’usi uchun bastalangan bo’lib, 2/4 choraklik o’lchovda boshlangan. Tezligi o’rtacha notalar joylanishi asar mavsumining tavsiloti bilan bo’g’liq kechgan bo’lib, uning hajmi 80 taktli ijrodan iborat. Asar kompozitsiyasi ikki shklli ko’rinishda, ya’ni 2- qismga bo’linganligi bilan 6/8 o’lchovli ijroda boshlanib yakun topgan. Asarning birinchi qismidagi tavsiloti o’rtacha kayfiyatda Ijro etiladi. Ikkinchi qismi esa sho’x, da’vansimon va raqsona kayfiyatni talab etgan.


Sarahbori ko’histoni asari Tojikistonning “Pomir”- xalqi farovon turmush hayoti va urf odatlari, turli folklor –etnografik musiqiy ijrolari tasnifi tizimidan tassovur qiyoslar asnosida yaratilgan oddiy va raqsona asarlardan biridir.

### DILOROM OMONULLAYEVANING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

Dilorom Omonullayeva ( 1959) yilda Toshkent shahrida tug’ilgan. O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi, kompozitor. O’zining ijodiy faoliyati bilan Respublika musiqa san’atining rivojlanishiga samarali hissa qo’shib kelmoqda.



Dilorom Omonullayeva konservatoriyani fortepiano, so’ng kompozitorlik va nazariya asoslari kafedrasini taniqli va mashhur kompozitor Sulaymon Yudakov, Manas Leviyev, Mo’tavakkil Muzaidinovich Burxonovlardan tahsil olgan. Olimlardan O’zbekistonga xizmat ko’rsatgan san’at arbobi, professor, san’atshunoslik fanlari doktori Fayzulla Karomatlidan mahalliy uslublar va ularning etnografik turlarini zamonaviy ladlarda namoish etishda namunali shogirdlari hisoblanadi.



### **Kompozitor Xayri Izomov(1922) hayoti va ijodi.**



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor va dirijyor Xayri Izomov 30 - yillarda musiqa dunyosiga kirib keldi. U o'zbek professional kompozitorlarning ikkinchi avlodiga mansub. O'zining ko'p qirrali ijodiy va dirijyorlik faoliyati bilan respublikamiz musiqa san'ati rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Izomov Xayri G'ulomjon o'g'li Buxoro shahrida, ziyoli oilasida 1922 yilning 30 dekabrda tug'ildi. 1928 yildan umumta'lim maktabida o'qidi. Bolaligidan musiqa qiziqdi va 1931 yili Buxoro musiqa texnikumida skripka bo'yicha o'qidi va 1935 yili bitirdi. 1935 - 1936 yillarda Buxoro musiqali drama teatrida sozanda bo'lib ishladi.

Ma'lumki, 1936 yili T. Jalilov boshchiligida O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida o'zbek xalq cholg'ulari ansambli tashkil topdi. Mazkur ansamblga boshqa sozandalar qatori 14 yoshli Xayri Izomov ham ishga taklif qilindi. U 1937 yili

Moskvada o'tkazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasida eng yosh sozanda sifatida qatnashdi. Dekadadan qaytib kelgach, T. Jalilovning ansambli qoshida O'zbekiston xalq artisti, kompozitor va dirijyor N. N. Mironov yosh sozandalardan notali orkestr tuzdi. X. Izomov nota yozuvini musiqa texnikumida o'rgangani uchun ustozga yordamchi va dirijyor bo'ldi. Bu jamoa Rossiya va Belorusiya shaharlari bo'ylab o'zbek musiqasini targ'ibot qildi. Mazkur jamoa asosida 1938 yili filarmoniya qoshida O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkil topdi.

1938 yili X. Izomov Toshkent konservatoriyasining tayyorlov kursiga o'qishga kirib, B. B. Nadejdin sinfida saboq ola boshladi. X. Izomov 2 -jahon urushi davrida Olmaota shahri harbiy aviatsiya maktabida uchuvchilika o'qidi. Ushbu maktabda kursantlardan tashkil topgan badiiy havaskorlik ansambliga rahbarlik qildi. So'ngra u uchuvchi bo'lib frontda, urushdan keyin shu armiyaning zaxiradagi aviapolkida xizmat qildi. 1946 yilning sentabridan boshlab uzilib qolgan o'qishni konservatoriyaning asosiy kursida B. Nadejdin sinfida davom ettirdi. O'qib yurgan yillari musiqaning turli janr va shakllarida asarlar yaratdi. Ular orasida «Pari» (Navoiy g'azali) romansi, «Vatan olqishi» (P. Mo'min so'zi), «Gul» (T. Ernazarov so'zi), «O'zbekistonim mening» (Uyg'un so'zi) qo'shiqlari va fortepiano uchun «Tokkata» kuyi mashhur bo'lib ketdi. Uning notasi 1949 yilda chop etilgandan buyon respublikamizning hamma musiqa maktablarida yosh pianochilar hamon ijro etib kelmoqdalar. Talaba - kompozitor X. Izomov o'qish bilan birga 1949 - 50 yillarda O'zbekiston radio komiteti musiqiy tahririyatining mas'ul kotibi, 1950 - 1955 yillarda esa radiokomitetning badiiy eshittirishlar boshqarmasining bosh muharriri vazifalarida ishladi.

Toshkent davlat konservatoriyasini X. Izomov 1952 yilda bitirib, radiodagi ishini davom ettirish bilan birga mustaqil ravishda turli janrlarda ijod qila boshladi. Masalan, 1953 - 64 yillarda birin - ketin quyidagi qo'shiq va boshqa musiqiy asarlar yaratdi: «Qahramon qizlar», «Shonli elim», «Yoshlik bayrami», «Tinchlik haqida yoshlar qo'shig'i», «Dutorim» (M. Koriyev so'zlari), «Mening sevimli o'lkam», «Toshkent osmoni» (D. Polinin so'zlari), «Sayr etdim» (P. Mo'min so'zlari), «Kiz qo'shig'i» (F. G'ani so'zi), «Salom, yulduzlar» (T. To'la so'zi), «Sevmay bo'lmaydi», «Ziyofatda aytiladigan qo'shiq» (H. Sharipov so'zi) o'z davrida juda mashhur bo'lgan qo'shiqlar bilan birga simfonik orkestrga o'zbekcha syuita, skripka va fortepiano uchun p'esa, fortepiano uchun Etyud, 7 ta variatsiya, «Noktyurn», «Musiqali quticha», 4 ta p'esa; klarnet va fortepiano uchun p'esa, xonanda va simfonik orkestr uchun «O'zbekiston paxtasi» (V. Muxtorov so'zi) qo'shiq, xonanda va xor jamoasi uchun «Sevikli yor» qo'shiq, Toshkent davlat yosh tomoshabinlar teatrida sahna yuzini ko'rgan quyidagi spektakllarga musiqa bastaladi: «Abdulla Nabiyev» (A. Rahmat p'esasi), «O'jar» (M. G'ani va U. Ismoilov p'esalari), «Kim aybdor» (I. Ahmedov p'esasi), «Oygul va Baxtiyor» (H. Olimjon asari asosida U. Rahmonov p'esasi), «Iqbol» (Yo. Mirzo p'esasi), «Vafodorlik» (O. Yoqubov p'esasi); qo'g'irchoq teatri uchun «To'ti qiz» (M. Muhamedov p'esasi), «O'rmondagi voqea» (S. Abdukahdor p'esasi), Hamza nomidagi drama teatri uchun «Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim» (O. Yoqubov p'esasi) va boshqalar. X. Izomov 1964 -1966 yillarda Afg'oniston hukumati taklifiga binoan Kobul radiosida maslahatchi bo'lib ishladi. 1966 yili Toshkentga qaytgach, radio qoshidagi «O'zbek

xalq cholg'ulari» orkestrida dirijyor vazifasida ishini davom ettirdi va 1992 yili nafaqaga chiqdi. X. Izomov dirijyorlik va jamoatchilik ishlari bilan band bo'lishiga qaramay musiqaning turli janrlarida yangi yangi, jozibali asarlar yaratdi. Kompozitor 60 - yillarning 2 - yarmi, 70 - 80 yillarda zamonaviy o'zbek estrada san'atining rivojlanishiga katta ahamiyat berdi. U yaratgan estrada qo'shiqlaridan «O, Dilbar», «Bu muhabbat», «Salomalaykum» (D. Polinin so'zlari), «Kim o'zi?» (E. Rahim so'zi), «Kimga aytay?» (A. Po'lat so'zi), «Ko'zi xumor» (Sh. Shomahmudov so'zi), «Sen» (O. Hojiqosimov so'zi), «Ishva ko'z» (S. Xolmuhamedov so'zi) mashhur bo'lib ketdi. Yakkaxon va O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun yozilgan «Kuyoshli O'zbekiston» nomli vokal - raqs syuitasi, «Zangori kema kapitanlari» va «Yangi Toshkent» (D. Polinin so'zlari) qo'shiq – balladasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Dramaturg S. Abdukahhor bilan hamkorlikda «Alijon va Valijon» spektakliga musiqa bastalagan. Bastakorlar uyushmasining ommaviy janrlar komissiyasiga uzoq yillar raislik qildi. 1954 yili «O'zbekiston hukumatining faxriy yorlig'i», 1967 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» va 1974 yili «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» faxriy unvonlari va 2000 yilda «El yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan.

#### **Tayanch tushunchalar:**

- 1.«Pari» romansi, «Vatan olqishi», «O'zbekistonim mening» - kompozitorning dastlabki asarlari
- 2.Tokkata – (ital.toccate - tegmoq) qisqa cho'zimli (sakkizlik va o'n oltilik) notalar vositasida ifoda qilinuvchi beto'xtov xarakterdagi musiqa asari
- 3.Noktyurn – (fr.nocturne – tungi qo'shiq) – go'yoki tun timsollari bilan yo'g'rilgandek hayolparastona, kuychan musiqa asari
- 4.Syuitta – (fr.Suite - izchillik) bir – biriga qarama-qarshi qismlil musiqa siklik musiqa shakli
- 5.Variatsiya – mavzu va uning o'zgarib tarorlanishidan iborat musiqa shakli

#### **Nazorat savollari:**

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering
- 2.Kompozitor Xayri Izomovning vokal vokal - simfonik ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitor Xayri Izomovning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitor Xayri Izomovning estrada ijodiga xarakteristika bering..

#### **Adabiyotlar:**

1. Музыкально- энциклопедический словарь. Москва. 1990 г.

2. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaniiya (materialy simpoziuma) 1980 g.
3. A. Jabborov. T. Solomonova. Kompozitory i muzykovedy Uzbekistana. Tashkent. 1975.
4. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
5. Yu. Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
6. T. Qilichev. Xorazm xalq teatri.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbek xalq muzikasi, VII tom. Toshkent 1960
2. O'zbek xalq muzikasi, IV tom. Toshkent 1960

# СЕВИКЛИ БҮР

М. БОБОВЕВ шөһри

Х. ИЗОМОВ музыка

Moderato

*mf*

*f*

*sf* *p* *sf* *p*

Дар- ё уз- ра кеч қун- моқ- да.  
Ках- ра- мо- ним, мех- на- тинг- дан

Қир- гоқ- ла- ри хуб ча- ро- ғон.  
Гул- гул яш нар пах- та- зо- ринг

Се- вик- ли ёр, шум- дай чоғ- да  
Эл- га кил- ган хим- ма- тинг- дан

тур- сак бун- да биз ён- ма- ён,  
Ку- во- на- ди сев- ган ё- ринг

Се- вик- ли ёр, шум- дай чоғ- да  
Эл- га кил- ган хим- ма- тинг- дан

*unis*

тур- сак бун- да  
Ку- во- на- ди

биз ен- ма- ен,  
сев- ган е- ринг.

*f*

Кел е- ним-  
Да- ланг о-

*f*

га, у- зинг бир боқ,  
бод хо- сил мул- дар.

бу кенг кум-  
Ку- ли гул-

күк май- дон- лар- га,  
сан ках- ра- мон- сан

боқ- қан са-  
Су- зинг бир-

Poco rit

Март ур-лон-

a tempo

cresc.

2.

### Sevikli yor

**M. Boboyev sheri**  
**H. Izomov musiqasi**

Daryo uzra kech qo'nmoqda,  
 Qirg'oqlari ho'p charog'g'on.  
 Sevikli yor shunday chog'da,  
 Tursak bunda biz yonma yon.

Sevikli yor shunday chog'da,  
 Tursak bunda biz yonma yon.  
 Kel yonimga o'zing bir boq,  
 Bu keng kum-ko'k maydonlarga.

Boqqan sayin zavqing ortar,  
 Biz yaratgan bo'stonlarga.  
 Boqqan sayin zavqing ortar,  
 Biz yaratgan bo'stonlarga.  
 Qahramonim mexnatingdan  
 Gul-gul yashar paxtazoring  
 Elga qilgan hizmatingdan  
 Quvonadi sevgan yoring

Elga qilgan hizmatingdan  
 Quvonadi sevgan yoring

Dalang obod xosil mo'ldir  
Qo'li gulsan qahramonsan

So'zing birla ishing birdir  
Hop yigitsan mard o'g'lonsan  
So'zing birla ishing birdir  
Hop yigitsan mard o'g'lonsan

### **Annotatsiya**

Asar 3/8 o'lchovni birga dirijorlik qilishdagi dastlabki ish uchun misoldir. Bunga mo'tadil sur'at ifodali kuyni shoirona so'z bilan mosligi ,qulay ovoz ohangdorligining bir muncha oddiy usul tasviri bilan yordam bermoqda.

Orkestor muqaddimasida dastlab jumlani ikki va to'rt taktga birlashtirish maqsadga muvofiqdir."sf" va "P" bilan uzilmaydigan firmatali taktlarni "uch"ga derijorlik qilish yaxshiroq bo'ladi. Xor boshlanish davridan to'rt taktni bir jumlagga birlashtirish kerak.

Moderanto tempida yozilgan bolib asarda dinamik belgilaridan "f","p","mf", "sf"va krishendo, dimuniendo la ishtirok etishgan asar re major tanalligida yangraydi , qaytarish belgisi repriza ,nuqtali notalar ,liga ,ligattolar asarni boyitib turibdi. Asar oxiridagi "poco rit" ni uchga "a tempo"ni esa yana birga dirijorlik qilmoq kerak.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosalar**

Suxanronlik va suvanronlik san'atining bir-birovidan farqi shundaki, biri she'riyatxolikdagi nag'ma, chiroyli ovoz egasi, no'lalar orqali she'rlar aytish bo'lsa, ikkinchisi Suvanronlik tizimidagi nag'ma, no'la va tarovat bilan qiroat etish, bu uslubda qo'shiqni oldindan boshlang'ich qismini ahbor etish "Saraxbor" ma'nosi ham shashmaqomda boshlang'ich ma'nosini anglatadi, ammo mahalliy uslubda esa qo'shiqqa bog'lab ketadi.Suxanronlik- San'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani-go'zallik San'atning zarur sharti ekanligini, go'zalliksiz San'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin ham emasligini uqtiradi. San'atda mazmun va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. San'atning o'ziga xos xususiyati uning voqelikni ilg'or g'oyaviy nazardan badiiy obrazlar orqali aks ettirishdir. Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida San'at alohida o'rin tutadi. Chunki San'at yuksak ijtimoiy g'oyalarni targ'ib etuvchi, inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan zarur bo'lgan o'zaro muloqotlar vositasi sifatida turli qithalar va davlatlarni o'zaro bog'laydi. Zotan, inson San'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va shu ma'noda San'at ma'naviy yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi.

Shuning uchun ham San'at asarlari beradigan bilim muayyan mamlakat, millat yoki ma'lum bir tarixiy davr va shaxslar haqidagi ilmiy asarlardan olingan ma'lumotlardan farq qiladi. San'atning tarbiyaviy kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o'quvchi, tomoshabinning qalbiga kirib borishi, ularda estetik zavq uyg'onishidadir. San'at barcha ijtimoiy ong shakllari singari o'z

taraqqiyot qonunlariga ega. Bu qonuniyatlar San'atning o'z ichki xususiyatlaridan kelib chiqsada, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan xalq, millat, elat, mamlakat va jahon sivilizatsiyasi darajasi bu qonuniyatlarini o'z ifodasini topdi.

#### **IV-BOB**

### **MUSIQA VA SHE'RIYATNING O'ZARO BOG'LANISH**

### **KOMPOZISIYASINI YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA O'RGATISH**

### **USULLARI**

#### **4.1-§.O'zbek xalq ommaviy aytimlarining maktab repertuariga kiritilishi;**

O'zbek xalq musiqasining ommaviy aytimlari: qo'shiq, yalla, lapar, alla va boshqalardir. **Qo'shiq**-kichik avjli bo'lgan va bir hamda ikki ko'rinishli bandida ko'tariladigan kuyidan iborat vokal janridir. Masalan «Oy layli», «Yoshligim», «Bahor keldi» Alla-onalar tomonidan yaratilib, ular tomonidan aziz farzandlariga mehr-muhabbat va orzu-umidlarni ifodalab kuylanadigan musiqa. Shu bilan birga mayin orombaxsh yoqimli ohangga ega bo'lib, bola ruhiyatini tinglashini yoshlikdan musiqaga idrok etishni o'rgatadi.

**Lapar**<sup>58</sup>-Cholg'uchilar jo'rligida yakka ijrochi ham kuylab ham raqsga tushadi. Masalan: «Bugmacha bilagim» «Fabrika», «boshginam ogriydi» kabilar. Shuningdek, lapar birin-ketin savol-javob tarzida ham aytiladi.

Yalla<sup>59</sup>-cholg'uchilari yakkaxon yoki xonandalar ijrosida aytiladigan vokal janr. U raqsbopligi ijrosida ko'pchilik ishtirok etishi kabi jihatlari bilan laparga yaqin turadi.

**Yor-yor**<sup>60</sup> qo'shigi kelinni kuyovnikiga uzatib borishi jarayonida ayollar tomonidan ijro etiladi. Xududiy yor-yorlar ham mavjud. Masalan: Toshkent yor-yori, Fargona yor-yori, Namangan, Andijon, Buxoro yor-yorlari mavjuddir.

---

<sup>58</sup> Кароматов Ф. Исполнительские традиции музыкальных культур народов Ближнего и Среднего Востока в условиях современности // Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность.- М.: Советский композитор, 1987.

<sup>59</sup> Кароматов Ф.М. О локальных стилях узбекской народной музыки.- М.: Музыка, 1984.- 196 с.

<sup>60</sup> Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка.- Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1972.- 360 с.

Terma-rechitativ tarzida qaytarma kuyda ko'proq pand-nasihat odamiylik, mehr-muhabbat kuylanadi. Termalar ikki asosiy ko'rinishda bo'ladi.

1. Baxshi (shoir, dostonchi) termalari
2. Xalq termalari ommaviy xalq kuylari-tizimi oddiy bo'lgan va ijroda qulay bo'lgan kuylar. Masalan «Ufor», «Andijon polokasi», «O't bo'laman», «Chertmak», «Qashqarcha», «Do'loncha» va boshqalar. Shu bilan birga bolalar uchun ham ko'pincha hazil, kulgili aytishuvli qo'shiqlar bor. Ular sevib eshitib kelmoqdalar<sup>61</sup>.

**Halfa**<sup>53</sup> chilik san'ati Xorazm xalqiga xos janr turi bo'lib, bunda ikki ayyol garmon cholg'usi ijrosida mahalliy a oddiy turkumdan iborat badiiylikni ijro etilgan holda kuylashadi va raqsbob hazilomud aytishuvlarni ham bellashuvdek ifoda etishadi. Bir qatorda Xorazmning milliyliги liboslarida aks ettirgan<sup>62</sup>idek, badiiylikni guli darajasiga yetgan deyish mumkin.

**Bayram va marosim qo'shiqlari:** O'zbek xalqining uzun o'tmishi davomida turli bayram va marosimlar hamda urf-odatlar shakllanib, ularda xalqimizning dunyo qarshi, hayotiy qismatlari orzu-istaklari va ma'naviy dunyosi asosida uni aks ettiruvchi kuy va qo'shiqlar yaratilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda to'rt faslga bo'lingan quyidagi marosimlar o'tkaziladi.

1. Qish faslida «Yas yusup» «Gap-gashtak
2. Bahor faslida «Navro'z bayrami»
3. Yoz faslida «Choy momo»
4. Kuz faslida «Obla baraka»

Mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng namunalari go'zal bahor va undagi asosiy sana-Navro'z bayramiga bog'liq ijod etilgan e'tiborli joy shundaki, bu toifa namunalari asosan bolalar folklori tarkibida bizgacha yetib kelgan.

Ommaviy bayram va marosimlarda musiqa muhim o'rin tutadi. Hatto shu tadbirlarni o'tkazish uchun karnay, surnay, nog'ora, doyra, dovul kabilardan foydalanishadi.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari deganda, xalqimizning yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'lik holda o'tkazilgan marosimlari hamda shu marosimlarning tarkibiy qismi bo'lgan aytilmlari tushuniladi.

**O'zbek dostonlari:** Milliy musiqamizda dostonlar keng tarqalgan. Ular kishini maftun etuvchi qiziqarli mazmun va ajoyib she'riy-musiqiy qo'shiq aytilmlaridan iboratdir, odatda dostonlar ishq muhabbat yo'lidagi vafodorlik, Vatanga sadoqat, qahramonlik, do'stlik tuyg'ulari, tabiat go'zalligiga maftunkorlik kabi muhim ijtimoiy mavzular kuylanadi.

Dostonlikning maftunkorligi shundan iboratki, unda yirik nasriy hikoya va she'riy musiqa bir mushtarak asar bo'lib, uni san'atkor baxshi ijro etadi. Baxshi asarning nasriy qismlarini mohirona hikoya qiladi, she'riy bo'laklarni esa qo'shiq va ba'zan musiqiy sozlama (rechitativ) tarzida kuylaydi. Qo'shiqlar asosan o'zining ijrosidagi yakka cholg'u ijrosida kuylanadi. Dostonxonlik o'ziga xos zavqli va

<sup>61</sup> Кароматов Ф.М. Узбекская домбровая музыка.- Т.: Гослитиздат, 1962.- 260 с.

<sup>53</sup> Xorazm Halfachilik san'ati. Video slayt. 2011 yil (qo'lyozma arxiv).

<sup>62</sup> Abdurasulov A.Xiva(tarixiy-etnografik ocherklar).O'zbekiston. 1997.-B. 97.

qiziqarli adabiy-musiqiy kecha bo'lib, tinglovchilar diqqat eotiborini soatlab jalb etadi. Mahoratli baxshi ijrosidagi doston mazmuni va obrazlarini tinglovchi tasavvur qilib boradi va asardagi voqealarga beixtiyor qatnashayotgandek bo'ladi.

#### **4.2-§. Cholg'u-she'riyat hamda o'qituvchi va o'quvchi munozaralarida kompozision kulminatsiyalarni badiiyligi**

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmida "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham — o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. Bu xil o'qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo'layotgan omillarni o'rganadi.

Talqin atamasini biz "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida tushunamiz. Talqin badiiy asarni sharhlash, uning mazmun mohiyatini, undagi badiiy konsepsiyani idrok etish demakdir. Keng ma'noda "talqin" so'zi o'zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o'tmish ilmida "talqin" so'zining ma'nosi qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan. Yana ham aniqroq aytsak, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni "mantiq tili"ga o'girmoq, obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir.

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va h.), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ilgari ham aytganimizdek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham aniqki, o'quvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog'li turfa bo'lmasin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro(javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo'ladi. Bu yadro esa - badiiy asarning o'zi, badiiyat hodisasini o'zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo'ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni

ob'ektiv va sub'ektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni sub'ektiv ibtido deb olsak, badiiy matn ob'ektiv ibtidodir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni yetarli darajada bilmasa, asar qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini yetarli tasavvur qilolmasa, uning talqini sub'ektivlik kasb etadi. Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrlashi, obrazning esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligini e'tiborga olsak, talqinning sub'ektsiz mavjud emasligi ayon haqiqatdir. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq yaratilgan va asarda aksini topgan obrazning mazmun qirralari faqat sub'ekt ongidagina (ya'ni, uning ham assotsiativ fikrlashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo'ladi. Aytilganlar tushunish jarayonida tahlil va talqinning har vaqt hozirligining yorqin dalilidir. Oddiy o'quvchidan farq qilarmoq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilarkan, tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma'noda tahlil badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish demakdir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar tahlilining maqsadi - asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad). Xo'sh, "asarni tushunish" deganda nima nazarda tutiladi? Bu masalada ham adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud: ayrimlar asarga muallif tomonidan yuklangan mazmuni tushunishni nazarda tutsalar, boshqalari asarda tasvirlangan narsalardan (ob'ektiv ibtidodan) kelib chiqadigan mazmuni tushunishni nazarda tutadilar. Bu qarashlarning birinchisiga ko'ra tushunish jarayonida tahlil yetakchilik qilsa, ikkinchisida talqinning mavqei ustunroq ekanligi tayin; birinchisi badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o'rganishni (kontekstul tahlil) taqozo etsa, ikkinchisi badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini o'rganish (immanent tahlil) bilan cheklanadi. Biroq mazkur qarashlarning ikkisini ham mutlaqlashtirib bo'lmaydi, bu o'rinda "oraliq" mavqenining egallangani, har ikki yo'sindagi tahlilning ham mavjudligini, ularning bir-biridan ko'zlagan maqsadi va ahamiyati jihatidan farqli ekanligini tan olingani to'g'riroq bo'ladi.

Tushunish jarayonining nazariy muammolarini o'rganuvchi soha — hermenevtikaning asosiy qoidasi shuki: qismni butun, butunni qism orqali tushunish darkor. Bu qoida yuqoridagi tahlil yo'sinlarining ikkisiga ham birdek aloqador. Faqat bu o'rinda immanent tahlil "kontekst" tushunchasini asar doirasi bilan cheklab olsa, kontekstual tahlilda "kontekst" tushunchasining ko'lami kengayib boradi (konkret asar "yozuvchi biografiyasi", "muallif yashagan davr shart-sharoitlari", "muallifning ijodiy merosi", "asarni yaratilgan davr adabiyoti", "milliy adabiy an'analar" kabi kontekstlar doirasiga kiradi). Kontekstual tahlil asarga muallif tomonidan yuklangan mazmuni tushunishga yo'l ochsa, immanent tahlil asarda tasvirlangan narsalarga (va, albatta, undagi muallif obraziga) tayangan holda o'quvchiga o'z mazmunini shakllantirish imkonini beradi. Mutaxassisdan farqli o'laroq, oddiy o'quvchilarning asarni tushunishida immanent tahlil unsurlari yetakchilik qiladi (shu bois ham o'quvchilar ongida konkret asarning turfa talqinlari mavjud). Zero, aksariyat o'quvchilar uchun konkret asarning qay maqsadda, qanday omillar ta'sirida yozilgani ahamiyatsiz - ular asarning o'zinigina taniydilar, uning o'zidagina zavq oladilar. Aksincha, adabiyotshunos uchun

bularning bari muhim, chunki asarni tarixiylik tamoyiliga tayanib, biografik yoxud sotsiologik metodlar (kontekstual tahlil) asosida tekshirib chiqarilgan xulosalar adabiy-nazariy tafakkur rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular, tabiiyki, badiiy adabiyot rivoji hamda badiiy did tarbiyasiga faqat bilvosita ta'sir qiladilar, bu xil xulosalar bilan badiiy didga bevosita ta'sir qilishga urinish esa adabiyotga faqat ziyon keltiradi. Demak, badiiy asarni alohida butunlik sifatida ham, kontekst doirasida ham tushunish (tahlil va talqin qilish) mumkin, - ikkisinin ham o'z o'rnini, vazifasi va maqsadi tayinlidir.

Badiiy asarni kontekstual tahlil qilishda unga turli jihatlardan yondashish mumkinki, shu asosda bir qator tahlil metodlari haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Sotsiologik tahlil metodi tadqiqotchini badiiy asar voqeligi bilan real voqelik munosabatlari, uning tarixan haqqoniylik darajasi, hayot haqiqati bilan badiiy haqiqat munosabati kabi masalalarni o'rganishga yo'naltiradi. Bu xil yondashuv asarning g'oyaviy-mafkuraviy tomonlarini tahlil qilarkan, qahramonlarning xarakter xususiyatlari, asardagi konfliktlar tabiati, obrazlar tizimi va h. badiiy unsurlarning ijtimoiy ildizlarini ochib beradi. Xayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayoni, xarakter va prototip, tarixiy shaxs obrazi va real tarixiy shaxs munosabati kabi ijod jarayoni bilan bog'liq muammolarni o'rganishda ham sotsiologik yondashuv asos vazifasini o'taydi. Sotsiologik metod adabiyotshunoslikda muhim ahaiyatga molikligi shubhasiz, biroq uni boshqalardan ustun qo'yishlik, unga ayri-ayricha e'tibor berishlik adabiyot uchun zararli oqibatlariga olib kelishi mumkinki, bunga yorqin misollarni sho'ro adabiyotshunosligidan istalgancha topishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, sho'ro adabiyotshunosligidagi vulgar sotsiologizm ko'rinishlari ayni shu metodning mavqeini mutlaqlashtirilishining natijasi edi. Badiiy asar tahlilida shu metodgagina tayangan va shuning asosidagina baholagan tanqidiy maqolalar keyincha ularning mualliflarini qatag'on qilish uchun dastakka aylandigina emas, o'quvchi ommani o'sha ijodkorlarni "xalq dushmani", asarlarini "zararli" deb tushunishga tayyorladi.

Tarixiy-madaniy tahlil metodi badiiy asarni milliy madaniy an'analar, shuningdek, davr adabiy-madaniy kontekstida o'rganishga qaratilgandir. Ma'lumki, badiiy asar madaniy-adabiy an'analar zaminida dunyoga keladi, uning qator badiiy xususiyatlari shu kontekstdagina yorqin namoyon bo'ladi, anglashiladi. Masalan, Cho'lponning qator she'rlari borki, ularning mazmun mohiyati mumtoz adabiyotimiz, xususan, tasavvuf she'riyati kontekstidagina o'zining ramziy ma'nolarini ochishi, tushunilishi mumkin bo'ladi. Yoki "O'tgan kunlar"dagi bir qator xususiyatlar (Otabekning oshiqligi sahnalari, syujet motivlari, maktublar va h.) folklor va mumtoz dostonchilik an'analari zaminida yetishgani shundoq ko'zga tashlanadi. Mazkur yondashuv badiiy asarga umummilliy madaniyatning vakili sifatida qarashi diqqatga molikki, bu xil yondashuv adabiy jarayondagi yangi hodisalarning tub omillarini anglash imkonini beradi.

Qiyosiy metod badiiy asarni boshqa asar(lar) bilan qiyosan tahlil qilishni tutadi. konkret asarni o'tmishda yoki u bilan bir paytda, boshqa milliy adabiyotda yoki o'zi mansub adabiyotda yaratilgan q tadqi etishi mumkin. Qiyoslash ob'ekti tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Deylik, asarni o'tmishda yaratilgan asar bilan qiyoslash undagi an'ana va yangilik nisbati, ayrim badiiy

unsurlar genezisi haqida tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi; boshqa milliy adabiyot vakili bilan qiyoslash asosida esa adabiy aloqa va ta'sir, milliy adabiyotlar rivojida tipologik umumiylik kabi masalalarni o'rganishga keng imkoniyat yaratiladi. Misol uchun Navoiy va Nizomiy "Hamsa"larini qiyosiy tahlil qilish har ikkala san'atkorning ijodiy o'ziga xosligi, ularning dunyoqarashidagi o'ziga xos jihatlarni yorqin tushunish va tushuntirish, Navoiy dahosini xolis baholash imkonini yaratadi.

Biografik metod badiiy asarni muallifining hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o'rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko'ra biografik metod asarga muallif tomonidan yuklatilgan mazmuni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, A.Qahorning "O'g'ri" va "Dahshat" hikoyalari o'tmishdan bahs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa, adib har ikki hikoyada ham ular yaratilgan davr muammolarini badiiy idrok etishga, o'sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarini ifodalashga harakat qilgani anglashiladi. Biografik metodning qanchalik samarali bo'lishi ko'p jihatdan tadqiqotchi qo'l ostidagi biografik materialga bog'liq bo'lib qoladi. O'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning yetarli darajada samara bilan qo'llanilmay kelayotgani ayni shu narsa - biografik materialning yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Ijodiy-genetik metod biografik metodga yaqin va u bilan birlikda qo'llanib, badiiy asarning ijodiy tarixini o'rganishni maqsad qiladi. Bu metod adabiyotshunosga hayot materialining badiiy obrazga aylanish jarayoni, badiiy matnning sayqallanish yo'lini kuzatish imkonini beradi. Mazkur metod tadqiqotchining asar qoralamalari, uning turli nashr variantlari, tarixiy hujjatlar va h.ni chuqur o'rganishini, konkret faktlar asosida asarning yaratilish tarixi va omillarini ochib berishini taqozo etadi. Adabiyotshunosligimizda ijodiy-genetik yondashuv samara bilan qo'llangan tadqiqotlardan biri sifatida R.Qo'chqorning A.Qahor romanlarining ijodiy tarixi haqidagi ilmiy ishini ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagi metodlarning bari asarning tashqi aloqalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning bari tarixiylik tamoyiliga tayanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, konkret badiiy asar tahlilida ular qorishiq holda qo'llanadi, ya'ni, tahlilda ulardan bitta-ikkistasi yetakchi bo'lgani holda, qolganlari ularni to'ldiradi. Ikkinchi tomondan, kontekstual tahlil jarayonida adabiyotshunos immanent tahlil metodlaridan ham o'rni bilan foydalanadiki, bu uning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Immanent tahlil metodlari sifatida struktural, stilistik va semiotik metodlarni ko'rsatish mumkin. Struktural metod badiiy asar qismlari va ularning o'zaro aloqalarini o'rganadi. Bu o'rinda tadqiqotchi matnning tashkillanishini yoki badiiy voqelikning tashkilanishini diqqat markaziga qo'yishi mumkin bo'ladi. Stilistik tahlil matnning uslubiy o'ziga xosligini, semiotik tahlil esa badiiy asardagi lisoniy belgilarning ma'no qirralarini o'rganishga qaratiladi.

Bulardan tashqari, badiiy asarni, aniqrog'i, uning ijtimoiy mavjudligini o'rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlari, shuningdek, o'sha asar haqida yaratilgan tanqidiy asarlarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**To'rtinchi bob xulosasi**

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va h.), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ilgari ham aytganimizdek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham aniqki, o'quvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog'li turfa bo'lmasin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro(javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo'ladi. Bu yadro esa - badiiy asarning o'zi, badiiyat hodisasini o'zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo'ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni ob'ektiv va sub'ektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni sub'ektiv ibtido deb olsak, badiiy matn ob'ektiv ibtidodir.

### UMUMIY XULOSA

Dissertatsiya yuzasidan umumlashtirgan xulosada shuni qayt etish lozimki, qiyosiy tahlil va tasniflanishlarning yangicha talqindagi badiiyligini yo'lga qo'yish va kelajak kadrlarimizni milliy g'oya usullarida tarbiyalash muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Umuman, axloq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan kishi. Vatan tuyg'usidan ham bebahra bo'lmaydi. Ayni chog'da bunday inson so'zsiz umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlay oladi. Bas, shunday ekan, yoshlarni milliy qadriyatlarga beqiyos hurmat, Vatanga fidoyilikni tarbiyalamoq ta'lim-tarbiya sohasidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Shuningdek, musiqaning ma'naviy-ma'rifiy ko'lamida Vatanimizning turli orf-odatlarini, to'mosho, bayramlar, ko'rik tanlivlar va festivallarning tashkil etilishida ularning o'rni muhim ahamiyatga molikdir. Bunday yangi va ragbarang ijrolarda musiqiy cholg'ular va she'riyatlarining qo'shiqqa aylanib inson tarbiya vositasidagi tutgan o'rni beqiyos va cheksizdir.

Dostonchilik Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarida tarqalgan bo'lib, do'mbira jo'rli va kuyi registrli bo'g'iq ovozda kuylanadi. Xorazm vohasida esa dutor, tor yoki cholg'u ansambli jo'rli gida ochiq ovozda ijro etiladi. Xalq orasida "Go'r o'g'li", "Alpomish", "Avazxon", "Kuntug'mish", "Ravshan va Zulxumor", "Oshiq g'arib va Shoxsanam" kabi dostonlar mashhurdir. Ergash jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, ijrochilari va ijodkorlari xalqimiz orasida mashhurdir. Shuni qayd etish lozim ko'rinadi, san'atda turli musiqiy oqimlar ham kirib keldi va o'z navbatida ayrim xossalar yevropa yo tashqi musiqiy didlardan nafas olib, ularga taqlid qilib, qo'shiq kuylash tasniifi ham kashf etib borildi. Ya'ni, musiqa chetniki, so'zlari o'zbek yo rus tillarda va dizayn uslublari ham ajnaviy holatda, palapartish va mutlaq bema'niy nomadaniy deyish

ham mumkin. Bunday Estrada ansambli ijrochilarini ustoz ko'rmagan "Zararli hasharotlar ansambli", deyish o'rinlidir.

Shubhasiz, milliy qadriyatlarsiz millat kelajagini tasavvur etish qiyin. Yurtboshimizning xalq qadriyatlarini tiklash va milliy o'zlikni anglash, kamol toptirishga alohida e'tibor qaratayotganligi ham aslida bejiz emas. "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Shunday ekan, aytmog'imiz mumkinki xalq qadriyatlari kishilar, xususan yoshlarimizning o'z Vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Zero, ota-bobolarimizdan meros turkona qadriyatlar bamisoli yo'lni yorituvchi mashhala, dillarga yorug'lik, ezgulik olib kiruvchi mo'jizadir. Ayni chog'da bu yuksak tuyg'ular farzandlarimiz ongi, shuurini charxlovchi, ularning kamoliga ziynat bag'ishlovchi betakror donishmandlikdir".

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri musiqa va arxitektual madaniyati, shaxsning, millatning, xalqning bu ma'naviy – ma'rifiy yuksakligi jamiyatimizni yangi mohiyat bosqichiga, milliy kamolotning yangi sivilizatsiya sahnasiga olib keladi. Uni istiqbolli qiladi, buyuk davlat bo'lishini ta'minlaydi. Ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, istiqlol davri darajasiga, talabga, buyuk kelajaqqa boshlaydi.

O'tmishdan meros bo'lib qolgan, ammo unutilgan musiqa va she'riyatxonlikdagi Suxanronlik va Suvanronlik san'atining tiklanishi ijobiy xol albatta. San'at turidagi suxanronlik va suvanronlik san'atining bir-birovidan farqi shundaki, biri she'riyatxonlikdagi nag'ma, chiroyli ovoz egasi, no'lalar orqali she'rlar aytish bo'lsa, ikkinchisi Suvanronlik tizimidagi nag'ma, no'la va tarovat bilan qiroat etish, bu uslubda qo'shiqni oldindan boshlang'ich qismini ahbor etish "Saraxbor" ma'nosi ham shashmaqomda boshlang'ich ma'nosini anglatadi, ammo mahalliy uslubda esa qo'shiqqa bog'lab ketadi. Suxanronlik- San'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani-go'zallik San'atning zarur sharti ekanligini, go'zalliksiz San'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin ham emasligini uqtiradi. San'atda mazmun va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. San'atning o'ziga xos xususiyati uning voqelikni ilg'or g'oyaviy nazardan badiiy obrazlar orqali aks ettirishdir. Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida San'at alohida o'rin tutadi. Chunki San'at yuksak ijtimoiy g'oyalarni targ'ib etuvchi, inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan zarur bo'lgan o'zaro muloqotlar vositasi sifatida turli qithalar va davlatlarni o'zaro bog'laydi. Zotan, inson San'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va shu ma'noda San'at ma'naviy yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi.

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "O'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (alohida

epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va boshqalar), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi va suxanronlikdan suvanronlik san'atini qo'llashga yangicha talqindagi badiiylikni qo'llaydi. Bunday usuldagi tarbiya vositasi tezkor sur'atlarda **bilim-ko'nikma-malakaga** erishiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **PREZIDENT QARORI, FARMON VA FARMOISHLARI**

#### **1.Rasmiy nashrlar**

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2012 y.
- 2.O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: Sharq, 1997-1-30 b.
- 3.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir. Xalq so'zi gazetasi. 2010 yil 28 yanvar.
- 4.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi gazetasi. 2010 yil 30 yanvar.
- 5.Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. -T.: O'zbekiston, 1995. -23 b.
- 6.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin farovon turmush-pirovard maqsadimiz. T.8. T.: “O'zbekiston”, 2000 y.

#### **Monografiya va to'plamlar**

##### **1.1. O'quv qo'llanma va darsliklar**

- 1.1.Abu Rayxon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. T., 1968 yil.
- 1.2.Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig». T.: «Yulduzcha» 1990.
- 1.3.Alisher Navoiy. «Lison-ut-tayr» T.: G'.G'ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi 1991.

- 1.4. Abdulla Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud Axloq». T.: «O'qituvchi» 1992.
- 1.5. Antonovich I.I. sovremennaya filosofskaya antropologiya. Minsk. 1970
- 1.6. Axundov M.F. Obmanut'e zvyozdi. Izbrannoye. M., 1963 g  
Kaykovus. «Qobusnoma». T.: «Meros» nashriyoti 1992.
- 1.7. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri». T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1993 yil.
- 1.8. Amir Temur. «Temur tuzuklari». Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti. 1996 yil.
- 1.8. Imom Buxoriy. «Hadis». 4 jildlik. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1992 yil.
- 1.9. Sa'diy. «Guliston». «Bo'ston». A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.
- 1.10. Husayn Voiz Koshifiy. «Futuvvati sultoniya». A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti T.: 1994.
- 1.11. Mirzo Ulug'bek. «To'rt ulus tarixi». T., 1996 yil.
- 1.12. Nizomulmuluk. «Siyosatnoma» T.: «Adolat» 1997.
- 1.13. G'ulomov S. Usmonov Q. Mustaqillik O'zbekistonga nima berdi. T.: 2001.
- 1.14. G'ulomov S. Salimov O., Usmonov K., Faniyev D. Asrlarga teng yillar. T.: 2002.
- 1.15. Jondor Tulenov «Qadriyatlar falsafasi» T.: «O'zbekiston» 1998.
- 1.16. Najmiddin Komilov. «Islom ma'rifat dini». T.: «Ma'naviyat» 2000.
- 1.17. Narzulla Jo'rayev «Mafkuraviy immunitet» T.: «Ma'naviyat» 2000.
- 1.18. Narzulla Jo'rayev, Shodmonqul Azizov. «Ijtimoiyot asoslari» T.: «Ma'rifat-ma'dadkor» 2003.
- 1.19. «Komil inson haqidagi to'rt risola» T.: «Ma'naviyat» 1997.
- 1.20. «Ma'naviyat» yulduzlari. T., «Abdulla Qodiriy» nomidagi nashriyot, 1999 yil.
- 1.21. Tojiboyev A, Sindarova F. "Xorazm Mahmud akademiyasi va uning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni» o'quv kursini O'rta maxsus, kasb-hunar tahlimi tizimida o'rganish bo'yicha dastur va uslubiy qo'llanma. T.:2007.
- 1.22. Tojiboyev A, Sindarova F, N, Jo'rayeva. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarini o'rta maxsus kasb-hunar tahlimi tizimida o'rganish bo'yicha dastur va uslubiy qo'llanma. T.:2008.
- 1.23. Zoirov I, M. Omonov. Manaviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. 2009 yil.
- 1.24. Aliyev G. Yu Temq i syujetq Nizami i literaturax narodov Vostoka. M., 1985 g
- 1.25. Basilov V.N. Shamanstvo u narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1992 g
- 1.26. Gorkiy M. Nesvoyevremennqe mqsli. M., 1990 g
- 1.27. Gryaznov A.F. Evolyutsiya filosofskix vzglyadov L.Vitgenshteyna. M., 1985 g
- 1.28. Guseynov A. Zolotoye pravilo npravstvennosti. M., 1979 g
- 1.29. Zablotska Yu. Istoriya Blijnego Vostoka v drevnosti. M, 1989 g
- 1.30. Rouzentalg' F. Torjestvo znaniya. M., 1978 g
- 1.31. Jomiy Abdurahmon. Musiqqa haqida risola. Tojik tilidan tarjima qiluvchi

- Boldirov A.N. Belyayev V.M. tahriri.- Toshkent San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti.- 1-qo'lyozma.- inv. №63
- 1.32. Rahimov B.M. Xorazm dutor maqomlari va ularning O'zbekiston musiqa madaniyatidagi IIN.sf.n. ilmiy dissertasiya so'lyozmasi.SITI arxiv. Toshkent-2010.
  - 1.33. Sharifiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.- T.: Sharq, 1997.- 237 b.
  - 1.34. Hakimov N. Istoriya ispolnitel'stva na narodnix instrumentov Sredney Azii.- D.: Irfon,1989.- 160 s.
  - 1.35. Rahmatov M. Madaniyati xalqi tojik.- D.: Irfon,1987.- 306 s
  - 1.36.Rempel L.I. Xudojestvennaya kultura Sredney Azii. IX-XI vv.- T.: Izdatel'stvo literaturi i iskusstva imeni Gafura Gulyama, 1983.- 68 s.
  - 137.S.B.Saidiy Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida). Toshkent. 2005 yil.-144 s.
  - 1.38.Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. T.: 2001.
  - 1.39.Zuxuriddinov Z. Tarixi musiqi sharq.- D.: Irfon, 1982.- 160 s.
  - 1.40. Kavkabiyy Najmiddin. Risolai musiqiy. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi inv.№ 456/11
  - 1.41. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqati.-T.,2000
  - 1.42.Rasulov A. Ilmi g'aribani qo'msab.-T.,1998
  - 1.43.Sodiq S. So'z san'ati jozibasi.-T.,1996
  - 1.44.Q'o'chqor R. Men bilan munozara qilsangiz.- T.,1997
  - 1.45.Ismoil H. Qoshi yosinmu deyin... // Sharq yulduzi.-1995.-№1.-B.197-204
  - 1.46.Quronov D. Istiqlol dardi.- T.,2000
  - 1.47.Quronov D. Badiiyat sirlari//Tafakkur.-1998.-№1
  - 1.48.Yo'ldoshev B. Adabiy tanqidchilikda tarixiy-biografik yondashuv tamoyili //O'zbek tili va adabiyoti.-2000.-№3.-B.16-18
  - 1.49.Zarubejnaya estetika i teoriya literaturi XIX-XX vv.-M.,1987
  - 1.50.Bar L.B. Analiz xudojestvennogo proizvedeniya.-T.: O'qituvchi,1995
  - 1.51.Gadamer G-G. Aktualnost prekrasnogo.-M.,1991
  - 1.52.Adabiyot nazariyasi .-2 tomlik.- 1978, 1979.
  - 1.53. Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi.-T.:Fan,1994
  - 1.54. Qosim Ya. Badiiy fikrning uyg'onishi //Yoshlik.-1995.-№3.-B.20-21
  - 1.55.Do'stmuhammad Hurshid. Konsepsiyani yangilash uchun //O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-1990.-16 fev.
  - 1.56. Mineralov Yu.I. Teoriya xudojestvennoy slovesnosti.-M.,1999
  - 1.57. Zarubejnaya estetika i teoriya literaturi XIX-XX vv.-M.,1987
  - 1.58. Literaturno'y ensiklopedicheskiy slovar.-M.,1987

## **2. Qo'lyozma va arxiv materiallari**

- 2.1.Amir Hisrav Dehlaviy asarlariga ishlangan rasmlar.- T.: Fan.- 1983.
- 2.2. Jomiy Abdurahmon. Musiqa haqida risola. Tojik tilidan tarjima qiluvchi Boldirov A.N. Belyayev V.M. tahriri.- Toshkent San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti.- 1-qo'lyozma.- inv. №63.

- 2.3.Samaylovich A. Ustav-risolya. Sexa artistov materialы etnografii.- Vip.№2.-L.-1927.
- 2.4.Sulaymon X. Alisher Navoiy asarlarida ishlangan rasmlar.- T.- SITI.-1981.
- 2.5.Trenojkin A.I. K istorii iskustva Xorezma.-SITI.- 1939.- inv №2.
- 2.6.Uspenskiy V.A. Avdji-tyurk i yego rol v razvitii narodnoy pesni Buxari. Biblioteka instituta iskusstv AN Uzbekskoy SSR // Rukopis.

### **3. Avtoreferat va dissertatsiyalar**

- 3.1. Matyokubov O. Xorezmskiye makomy Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata iskusstvovedovaniya.-Tashkent.- 1976.
- 3.2.Nazarov A.F. Mumtoz iyqo' nazariyasi. San'atshunoslik fanlari doktori ilmiy darajasiga da'vogar dissertatsiyasi.- Toshkent.- 1996.
- 3.3.S.B.Saidiy. Markaziy Osiyoda urma zarbli cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida): . /«Musiqqa» nashriyoti.Toshkent- 2005 yil.

### **4. Maqolalar va tezislar**

- 4.1.Saidiy S.B. Abdurauf Fitrat va usul ta'limoti //Ta'lim islohoti va uni takomillashtirishning ayrim muammolari. Ilmiy to'plam.- T.: Ma'naviyat.- 1999.- 235-237 b.
- 4.2.Saidiy S.B. Muzikalno-istoricheskoye naslediye Sentralnoy Azii [Na primere uzbekov i tadjikov] // J. Pedagogik mahorat.- 2002.- №4.- 80-84 b.
- 4.3.Saidiy S.B. Zardushtiy va buddaviylar davri musiqa san'ati //J. Moziydan sado.- T.- 2003.- №№ 3-4.- 28-29 b. 74-77 b.
- 4.4.Saidiy S.B. Fitratning ta'limot usuli // J. Tafakkur.- T.-2004.- №1.- 123-124 b.
- 4.5.Saidiy S.B. Amir Temur davri Samarqand cholg'ulari. //J.SAN'AT, - Toshkent, 2004. №3-4. 28 b.
- 4.6.Saidiy S.B. Temuriylar davri cholg'ulari. //J. MOZIYDAN SADO, - Toshkent, 2004. №4(24). 26-27 b.

**Rasulova Yulduz Baxtiyarovnaning Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan “Yoshlarning ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda cholg’u ijrochiligi va adabiyotning roli”, mavzuidagi 5A111101“Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistranti dissertatsiyasining**

### **ANNOTATSIYASI**

**Tayanch (eng muhim so'zlar):** ma'naviy- ma'rifiy, adabiyot, cholg'u, sharq, suxanronlik, suvanronlik, angxonlik, gurug'li, qalandari, mavrigi, zangbandi, nadxonlik, farzxonlik, akustika, milliy, mahalliy, idiofon, membronofon, xordofon, aerofon, zoomorfologik, pozomorfologik, maqom, mug'om, no'la, qiroat, opera, estrada, saxna, teatr, must'e, ayritom frizi, terakkota, Avesto, Iskandar zu-ul qarnayn, mifologiya, Ho-zam-zam, Mozandaron, darboriy, navro'z.....

**Tadqiqot ob'ekti:** - O'zbekiston xalqlari cholg'u ijrochiligi va turli adabiyot merosiga bag'ishlangan tadqiqotlardir. Ijro uslublari ilk marotaba tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganildi.

**Tadqiqot metodi va Ishning maqsadi:** tadqiqot metodi asnosida Markaziy Osiyo san'atshunos olimlari, musiqashunos, sharqshunos va xorij davlatlarning musiqashunoslari hamda Jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishda va har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazishda. Jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishda va har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazishda, yuksalib borayotgan mamlakatimiz poydevorini mustahkamlashda tadqiqotlarni umumlashtirish, musiqa- cholg'u- adabiyotning tutgan o'rnini yoritib berishdan iborat. ilmiy jihatdan umumlashtirish tadqiqotning **asosiy maqsadi** etib belgilandi.

**Olingan natijalar va ishning yangiligi:** Tadqiqotning **ilmiy yangiligi** uchun avvalo, cholg'u ijrochiligi va adabiyot birligi, chambarchas bog'liqlik muammolarining yaxlit ilmiy tizimli asosda ilk bor o'rganilayotganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, bu yangilik mazkur masalaning mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi zahirida alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. hamda o'zga xos uslublarni yosh avlod tarbiya vositasida tadbiiq etilishi ilk marotaba tadqiqotdir.

**Amaliy ahamiyati:** Ishning amaliy tadbiiqi Vokal, xonandalik va dramatik saxna ko'rinishlari yo'nalishlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashga mo'ljallangan.

**Tadbiiq etish darajasi va ijtimoiy samaradorligi:** Dissertatsiya matnidan musiqashunoslikga oid kelajak tadqiqotlar uchun tayanch manbalaridan biri bo'lishi; "Estrada xonanda", «Cholg'ushunoslik», «O'zbek musiqa adabiyoti», «Musiqa manbashunosligi», «San'at tarixi», fanlariga oid **amaliy** uslubshunoslik, maktab va san'at kollejlari mutaxassislik kurslari bo'yicha mashg'ulotlarda **nazariy** manba sifatida foydalanilishi kutiladi.

**Qo'llanilish (foydalanish) sohasi:** xonanda va vokal amaliyoti hamda saxna mahorati fanlari.

## АННОТАЦИЯ

Диссертации Расуловой Юлдуз Бахтияровне на тему "Роль инструментального исполнительства и литературы в осознании перспективного развития молодёжь" на соискание академического магистра в направлении 5A11101 «Музыкальное обучение»

**Ключевые слова:** осознательно- опознание, литература, инструмент, Восток, речоведение, стихопение, речваторство, пасховеди, мавричествование, колоколосвяженное-танец, советопедство, богословно пение, сцена. театр, Авесто, Александ Македонский, Мифология, опера, мустье, Айритамский фриз, Тераккота, местный пение эй-родник, Мозандарийская военная пения, навруз (новый год), Дарийские, -идиофон, мембронифон, хордофон, аэрофон, зооморфологик, позоморфологик, макам (традиционная), мугам, (голосизация).

**Объекты исследования:** в качестве объекта исследования в первые избрана древнейшая и традиционная музыка народов Узбекистана, изучать современно-устное исполнения в контексте связующего литературоведения в обрядах с контакте инструментальной методов. Впервые изучается методы устных исполнительских методов и исторические введение ученых народов Узбекистана.

**Цель и метод работы:** Метод исследования: опорой послужили фундаментальные научные труды музыковедов, востоковедов, искусствоведов Центральной Азии и ближнего востока, а также исследования этнографов, историков.

**Полученные результаты и научная новизна:** Основой научной новизной является определением музыкального исполнительство, этнографии, профессионального исполнительство на инструментах а также устных традиции музыкальной культуры на тему “Роль инструментального исполнительства и литературы в осознании перспективного развития молодёжь” Изучать стьльевых возможности инструментов, характеризовать и анализировать их возможности в художественном практике “Традиционнсей музыки. Притенит для ознокомление воспитании молодёжь и опознавательност музыкальных культур для воспитание высщих и средно – образовательных учреждениях.

**Практическая значимость:** предназначена для вокальной и традиционной пение и драматической драи а также исполнительство. В подготовке пособий по инструментоведении и учебников .

**Степень внедрения и социальная эффективность:** материалы диссертации могут быть использованы в музыкальных коллежах по составлению учебных пособий по циклам: “музыкальное источниковедение”, “основа макома”, “инструментоведение”, “история узбекской музыки”.

**Область применения:** применяется в традиционной и вокального обучение а также сценических творчество.

## ANNOTATION

**Dissertation of Rasulova Yulduz Bakhtiyarovna on a theme “Percussion instruments in culture of examples of traditional music on western research work competition of a scientific degree of the academic Master’s Art criticism on a specialty 5A111101- musical art ”.**

**Key words:** spiritual-enlighten, literature, musical instrument, eastern style, tone-master, acoustics, folk etymology, rhythm-formula, ergology, modulation, idiophone, diaphragm-phone, chord-phone, aerophone, zoomorphologic, posomorphological, makam(traditional) and mugam(tone), local-national music style...

**Object of research:** In the capacity of object research is selected the most ancient and traditional music of the nation like Uzbekistan national instrumental performance and devoting investigations to different literal heritage.

**Method of research:** On underpinning have musicologists, orientalists, art historian acted in creative fundamental-scientific work in Central Area and Middle East, Foreign countries. Although the researches of ethnographs and historians.

**The purpose of work:** to define the difference learning of similarity and dissimilarity of music in west nation, researching methodical problems professional-traditional implementation although the problem of modern practical traditional music rendition.

**Derived results and news of music science:** The main music science news is definition of similarities and dissimilarities in music ethnography, professional execution of musical instruments and traditional musical culture renditions of west countries.

Studying the features of instruments, characterize and analyze its’ opportunities in fiction practice “Traditional music affineness and unaffinences of West people”. Resort to familiarization with upbringing the youth and sensorial music culture of the west countries for higher and middle educational establishment.

**The practical importance:** To be intent for the usage of preparation for benefits in instrumental authority and manual features of oriental studies, practical work in singing, dramatic performance.

**Degrees of introduction and scope:** materials of the dissertation can be used in conservatoires of Central Asia musical colleges on cycle “of musical sourcecriticism”, “musical sciences”, “foundation of makam”, “instrumental performing”, “history of Uzbek music”.

**Sphere of using:** spheres of execution and singers’ practices.